



Талантливая узбекская молодежь

Молодежный творческий альманах



РОСКОМНАДЗОР,

г. Москва

2023



**Талантливая узбекская
молодежь:** стихи и проза, научная статья / альманах - г. Москва
Всероссийский информационно-образовательный
портал «**Магистр**» **2023 - 160 с.**
ISBN: 978-1-4466-2298-8

ISBN: 978-1-4466-2298-8

© Коллектив авторов., текст, 2023
© Стихи, проза, альманах 2023
© Всероссийский информационно-образовательный
портал «**Магистр**», 2023



Ro'ziqulova Nigora Alisher qizi 2003_yil Samarqand viloyati Narpay tumanida tug'ilgan. 2010_2021yillarda 36-umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olgan. Hozirgi kunda O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetida 3 kurs talabasi kitoblari „Moychechak“, „First step“, Reindeer „Qalb gavhari“, „Muvaffaqiyat darvozasidan“ „Kuz tuhfası“, va bir qancha kitoblarda ijodiy ishi o'rin olgan.

CHET TILLARINI ZAMONAVIY USLUBLARDA O'RGATISH

Ro'ziqulova Nigora Alisher qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universitet talabasi

***ANNOTATSIYA:** Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda dolzarb mavzularda bo'lgan chet tillarini oson usullarda va qiziqarli metodlardan foydalanish haqida qisqacha ma'lumot berilib o'tilgan.*

***KALIT SO'ZLAR:** chet tillari, zamonaviy metodlar, fikrlash, intellektual mashq, kommunikativ didaktika*

***ABSTRACT:** This scientific article provides brief information about the use of foreign languages, which are current topics today, in easy ways and interesting methods.*

***KEY WORDS:** foreign languages, modern methods, thinking, intellectual exercise, communicative didactics*

KIRISH.

Til o'rgatish uchun avvalo, maqsadli auditoriya bilimidan tashqari, o'sha tilni o'rgatish uchun kerak bo'lgan sharoit va muhit kerakdir. Oddiy o'qituvchi dars beradi, yaxshi o'qituvchi bilim olishga ko'maklashadi, zo'r o'qituvchi esa o'zi o'rnak bo'ladi. Zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Davlat tizimining o'zgarishi va bozor iqtisodiyot munosabatlarining shakllanishi yosh avlodni o'qitish va ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zgarishlarni belgilaydi. Chet tillarni o'qitish



nazariyasi va amaliyotida jamiyatni rivojlantirishning yangi talablariga javob beradigan printsiplar asosida o'quv jarayonini modernizatsiya qilish jadallik bilan olib borilmoqda.

Fikrlash -bu intellektual mashq qilish, aql bilan ishlash degani, bu sizning bilim olishingiz uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olgan holda, aqliy mashq qilishni anglatadi"[1,45]. Yangi ta'lim standartlarida ta'limni nafaqat o'quvchilarning ma'lum miqdorda bilimni o'zlashtirishga, shuningdek, shaxs, bilim va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratish zarurligi ta'kidlanadi. Umumta'lim maktablari umuminsoniy bilim, ko'nikma hamda o'quvchilarning mustaqil faoliyati va shaxsiy mas'uliyatining ajralmas tizimini, ya'ni ta'limning zamonaviy sifatini belgilovchi asosiy kompetentsiyalarni shakllantirishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

Chet til - bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabaning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtrishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bog'langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelikning inikosi ekanligi uchun ularning hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbai bo'la oladi, misol uchun, "til" ijtimoiy hodisasini o'z nuqtai nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruxshunoslik (psixologiya), ta'limshunoslik (didaktika) o'rganadi. "Chet til metodikasi" atamasi kishi ongida quyidagicha ya'ni assotsatsiya "bog'lanish" uyg'otadi:avvalambor, tilni o'rgatishga qaratilgan metod va metodik usullar yig'indisi tushuniladi yoki o'qitish metodlari haqidagi ilmiy bilimlar va nihoyat, mustaqil pedagogik fan ko'z oldimizga keladi. Chet til o'qitish metodikasi didaktika bilan uyg'un, o'zaro bog'langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o'quv fanlarining o'qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma'lum. Chet til o'qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta'limining umumiy nazariyasi, metodika muayyan o'quv predmetini o'qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o'qitish umumiy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o'qitish ilmi sifatida qaraladi. "Metod" atamasi bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni



shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi o'qituvchi-pedagog va talabning ish usuli ma'nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son -sanoqsiz ta'riflarga ega. Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", "tog'ri", "qiyosiy", "aralash" deb atash qabul qilingan.

XULOSA

Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. *Academic research in educational sciences*, 2(2).

Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).

Журабоев, Б. (2020). Мотивированные люди для удовлетворения своих собственных потребностей. *Academic research in educational sciences*, (3).

Samarova, S. R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7(10), 37-43.

Samarova, S. R., & Mirzayeva, M. M. (2020). The problem of the formation of creative abilities of students in foreign psychology. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1937-1943.

<https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tilini-o-rganishda-zamonaviy-kompetentsiyalarning-axamiyati>

S.Saydaliev, CHet til o'qitish metodikasidan ocherklar, Namangan, 2004

D Coste // *Le français dans le monde*. - P. : CLE International . P. 9-26.
Dortier J.-F. *Le Dictionnaire des sciences humaines* / J.-F. Dortier. - P. : Editions . P. : Hachette, 1978. Bérard, E. 1991. *L'approche communicative, Théories et pratiques*. Paris, CLE International

www.ecolemusicaviva.com

www.education.gouv.fr

O'ZBEKISTONDA FIZIKA FANINING FIDOYILARI

Buxoro davlat pedagogika instituti

Fizika va astronomiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Xusanova Nargiza Farxod qizi

Qadimda yashagan odamlar to'la-to'kis tabiatga bog'liq bo'lganlar. Chunki hech narsani o'z qo'llari bilan yaratmasdan, atrofida borini iste'mol qilganlar. Yog'in-sochin, sovuq va yovvoyi hayvonlardan g'orlarda bekinib jon saqlaganlar. Asta-sekin ov qurollarini o'ylab topganlar va olovdan foydalanishni o'rganishgan. Natijada ularning turmushi yengillasha borgan. Shunga ko'ra tabiatni o'rganish, undan foydalanish va unga ta'sir ko'rsatish boshlangan. Tabiat haqidagi bilimlarni o'rganish va ular asosida tabiat boyliklaridan samarali foydalanishi natijasida insoniyat sovuq qotish, qorong'ilikda qolish, och qolish kabi holatlardan va ko'pchilik kasalliklardan qutula oldi. Inson yer yuzi bo'ylab, havoda va suvda bemalol harakat qilmoqda.



Tabiiy fanlar ichida fizika yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Birinchi mavzuda aytib o'tilganidek, uning o'rganadigan sohasi keng qamrovlidir. Fizikaning har bir o'rganilgan yangi qonuniyatlari jamiyat rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, O'zbekistonimizda ham fizika fanini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Bu ishlar bilan asosan O'zbekiston Fanlar akademiyasiga tegishli ilmiy-tadqiqot institutlari hamda oliy ta'lim muassasalari laboratoriyalaridagi olimlar shug'ullanadilar.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti, Akademik S.A. Azimov nomidagi «Fizika-Quyosh» IICHB qoshidagi Fizika-texnika instituti va Materialshunoslik instituti, G'.Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti va Qoraqalpog'iston tabiiy fanlar ilmiy-tekshirish institutida mexanik, issiqlik, elektr, yorug'lik va tovush hodisalariga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda fizika fanining rivoji, boshqa fanlarni rivoji bilan bir qatorda o'tgan asrning 20-30 yillaridan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki, O'zbekistonda birinchi oliy o'quv yurti 1920 yilda tashkil topgan bo'lib, dastavval u Turkiston universiteti, keyinchalik O'rta Osiyo universiteti, Toshkent davlat



universiteti, hozirgi kunda esa O‘zbekiston Milliy Universiteti nomi bilan yuritiladi. Ushbu universitet negizida birin-ketin institutlar tashkil topaboshladi va O‘zbekiston Fanlar Akademiyasini tuzishga zamin paydo bo‘laboshladi.

Azimov Sodiq Azimovich, 7.XI.1915 – 12.XI.1988 Uzbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1962 yil)., 1948 yilda «Doiraviy qurilma yordamida kosmik nurlarni tadqiq etish» degan mavzuda kandidatlik dissertatsiyasini 1955 yilda «Issledovanie elektronno-yadernix livney i poglosheniya yaderno-aktivnix chastits v vozduxe i v plotnix poglotitelyax raznogo atomnogo vesa» degan temada doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. O‘zbekistonda XX asr fizikasini rivojlantirish tashkilotchilaridan biri bo‘lmish Sodiq Azimovichning butun ilmiy faoliyati yadro fizikasi va kosmik nurlar fizikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda u kosmik nurlarning yumshok. komponentlari va elektron-yadro quyunlarini kashf etdi, lionlarning protonlar va pioplar bilan difraktsiyasi generatsiyasining jarayonlarini aniqladi, uning 100 dan ortik. ilmiy ishlari kosmik nurlarning tabiati va yadro fizikasi masalalariga bag‘ishlangan.

Fizik-texnik institutida 52 nafar 40 yoshgacha bo‘lgan yosh olimlar, jumladan 6 nafar katta ilmiy xodim, 14 nafar kichik ilmiy xodim va 9 nafar tayanch doktorantlar va 2 nafar mustaqil tadqiqotchilar ishlamoqda.

2017 yilda institutning yosh olimlar tomonidan nashr etilgan ilmiy ishlar miqdori:

Hisobot davrida institutning yosh olimlari ishtirokida 34 ta maqola, shu jumladan 26 ta xorijiy jurnallarda va 8 maqola respublika jurnallarida chop etildi. Ilmiy anjumanlarda yosh olimlarning 56 ta tezislari, shu jumladan 8 ta uzoq xorij va MDH davlatlarida o‘tkazilgan xalqaro anjumanlarda va 48 respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda chop etilgan.

2017 yilda yosh olimlari ishtirokida, ixtiro uchun 2 ta patent, foydali model uchun 2 ta patent, shuningdek kompyuterlar uchun dasturiy ta'minot mahsulotlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun 2 ta talabnoma, sanoat namunalariga 1 ta patentga talabnoma yuborildi.

Yosh olimlarga ajratilgan loyihalar va yosh olimlarning loyihalardagi ishtiroki haqida ma'lumot:

Hisobot davrida uchta yoshlar loyihasi, bitta xorijiy loyiha va bitta ilmiy-texnik loyiha muvaffaqiyatli yakunlandi:

1. YoF-FA-F002 “Past haroratli quyosh energiyasi qurilmalarida fazoo’tuvch issiqlik akkumulyator issiqlik texnik xususiyatlarini o‘rganish” mas’ul bajaruvch - Jo'raev E.T. (2016-2017).

2. YoF-FA-F001 “Kremniyli diodlarning elektr parametrlarini nazorat qilish uchun issiqlik ishlov berish usulini ishlab chiqish” mas’ul bajaruvch - Karimov A.A. (2016-2017 yillar)

3. Yo-FA-F004 “Katta diametri monocystal kremniy asosidagi ikkikoordinosizuvchan datchiklarni tayyorlash va ishlab chiqish” mas’ul bajaruvch Toshmurodov Yo.Q. (2016-2017 yillar)

4. M/Uzb-KNR-19/2015 “Nanosuyuqlik issiqlik tashuvchilarning issiqlik xususiyatlari va ularning past potentsialli quyosh qurilmalari issiqlik texnik xarakteristikasiga ta’sirini o‘rganish” loyiha rahbari t.f.n. Ahatov J.S.

5. FA-A4-F012 "Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi geliostatnym sohasida rivojlantirish" loyihasi menejeri - Doktor Akhatov J.S.



Bundan tashqari, institut yosh olimlari institutda olib borilayotgan va bajarilayotgan barcha loyihalarda, faol ishtirok etmoqda.

Chet el safarlari va yosh olimlarning chet el amaliyotidagi ishtiroki:

2017 yil davomida institutimizning 3 nafar yosh olimlar chet el safarlariga ishtirok etdi: A.U. Vohidov va O.F. Tukfatullin.- Yaponiyada, Jo'raev E. - Hindiston, Rossiya va Qozog'istonda:

2017 yilda yosh olimlarning doktorlik dissertatsiyalar himoyasi soni:

2017 yil hisobot davrida bir qator fan doktori (DSC) va falsafa doktori (PhD) himoya qilish uchun dissertasiya tayyorlandi. 9 nafar yosh olim muvaffaqiyatli himoya qilib diplom oldi. Xususan, (7 ta falsafa doktori / 2 fan doktori).

Institutning yosh olimlar Toshkentda va mamlakatimizning boshqa mintaqalarida X Respublika innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasida faol, ishtirok etdi:

- «Fotoelektrik tizimlarni elektr parametrlarini monitoring qilish tizimi («SMFES-2»)» -Tukfatullin Oscar Faritovich.

- «Kupfunksiyali termoelektrik generator» - Radjapov Bekjon Saliyevich, uchinchi darajali diplom bilan taqdirlandi.

- «O'zbekiston Respublikasi issiqliktaminot tizimlarida quyosh energiyasini mavsumiy saqlash» - Vohidov Akmal Ulashevich, shuningdek «YANGI INTELLEKT-2017» kurik tanlovda «Eng yaxshi foydali model» nominatsiyasida birinchi o'rinni shuningdek, Komolov I.M. esa «Eng yaxshi sanoat namunasi» nominatsiyasida ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi

Institut yosh olimlarining boshqa tadbirlarda ishtirok etishi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti B.S. Yuldashevning №1-318 sonli «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xodimlariga arzon ipoteka kreditlari asosida uy-joy ajratish» buyrug'iga asosan institutning to'rt nafar yosh olimlari yangi qurilgan xonadonlar olishdi.

Yo'ldoshev Behzod Sodiqovich (1945.9.5, Toshkent) — fizik olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (2000), fizika-matematika fanlari doktori (1981), professor (1987).

ToshDU ni tugatgan (1968). O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida ilmiy xodim (1968—83), direktor (1990 yildan). O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika ilmiy tadqiqot institutida laboratoriya mudiri (1984—90). O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti (2000-2006).

Ilmiy ishlari yuqori energiyalar fizikasi, yadroviy fizika va elementar zarralar fizikasiga oid. Behzod Yo'ldoshev rahbarligida Yadro fizikasi institutida jahon standartlariga mos keluvchi radioizotoplarni keng ko'lamda ishlab chiqarish va chetga sotish ishlari yo'lga qo'yildi; mahalliy tog'-kon sanoati chiqindilaridan asl va nodir metallarni qo'shimcha ravishda ajratib olish texnologiyasi ishlab chiqildi va h. k.

Behzod Yo'ldoshev Vashington universiteti fizika fakulteti professori (1977—78; 80—81; 89—90) sifatida yuqori energiyali neytrinolarning o'zaro ta'sirida bo'ladigan yadroviy effektlarni o'rganish bo'yicha ilmiy loyihaga rahbarlik qildi. Keyingi yillarda AQSh, Kanada, Rossiya va O'zbekiston fiziklari tomonidan Kanadaning «Triumf» yadroviy markazida va E. Fermi nomidagi Milliy tezlatkichlar lab. (Bataviya, AQSh) da hamkorlikda bajarilayotgan xalqaro ilmiy loyihalar rahbari.



Behzod Yo'ldoshev bir qancha xalqaro akademiyalar va xalqaro jamiyatlar a'zosi, xorijiy universitetlar faxriy doktori. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1983). 2-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

“Kurs fizika” - Trafimova. Moskva.

Bekjonov.R.B B.Axmadxo'jayev “Atom fizikasi” Toshkent 1979-yil.

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston, 1997, 328 b.

Fizika. II qism. Akademik litsey va KHKlar uchun o'quv qo'llanma. No'monxo'jaev A.S. va boshqalar. Toshkent.“Oqituvchi”. 2001 yil.





БИОГРАФИЯ

Урунов Шохижахон Джамшидович родился 9 октября 2003 года в городе Когон Бухарской области. Сначала он учился в семилетней общеобразовательной школе в этом городе.

В 2021 году Урунову Шохижахону была предоставлена государственная стипендия для обучения на историческом факультете Бухарского государственного педагогического института. С тех пор он написал более 10 статей, которые были опубликованы не только в республиканских, но и в международных конференциях и журналах. В 2022 году он участвовал в более чем 10 конференциях и получил более 50 сертификатов и дипломов. Урунов Шохжахон также является лидером различных соревнований и конкурсов, проводимых "Союзом молодежи".

В 2022 году он был назван "Самым активным студентом года" на республиканском этапе конкурса "Студент года 2022". Он также был удостоен звания "Активного партнера" в рамках проекта "Инновационная академия RSC" и награжден академическим удостоверением и наградами.

Более того, в соответствии с указом Президента Республики Узбекистан, Урунов Шохжахон был признан победителем в конкурсе под названием "Независимость в 31 год" и награжден iPhone 13 Pro Max.

Урунов Шохижахон также занял первое место в конкурсе "Молодые читатели" на республиканском уровне, а второе место в номинации "Самый активный участник" во втором сезоне.

В начале 2023 года Шохжахон был принят в члены "Национальной федерации прав человека и гуманитарных наук" Индии и "Клуба глобальных друзей".

Урунов Шохижахон отличается выдающимися учебными достижениями, активным участием в общественной деятельности, характеризуется уникальными качествами и лидерством в общественных делах.

Инклюзивное образование: международный опыт и практика, достигнутые результаты, проблемы и их решения

Ш.Дж. Урунов

Бухарский государственный педагогический институт, Факультет педагогики и социальных наук, Кафедра исторического образования, студент 3 курса

Аннотация. Эта статья написана на тему "Инклюзивное образование: международный опыт и практика, достигнутые результаты, проблемы и их решения." Статья рассматривает международную историю инклюзивного образования, его достигнутые результаты и важность их использования. В ней также анализируются международные опыт, практические аспекты инклюзивного образования, проблемы и способы их решения. Статья подчеркивает, как инклюзивное образование приносит изменения в мире и обсуждает важные правовые вопросы в этом контексте.



Ключевые слова: Инклюзивное образование, международный опыт, результаты, методы обучения, проблемы, решения.

Международная история инклюзивного образования начинается в начале 20-го века, но в последние годы произошли значительные изменения в его развитии. Эта система изначально создавалась для образования людей с ограниченными возможностями, но затем была расширена, чтобы приносить пользу и другим учащимся. Международный опыт играет важную роль в изучении того, как инклюзивное образование внедряется в мировой практике.

Основные опыты иллюстрируют одну из причин определения инклюзивного образования как индивидуальных уроков и методов обучения для каждого ученика. На международном уровне представлено внедрение инклюзивного образования и последующие изменения в этой области. Эта система играет важную роль в улучшении и развитии постоянно меняющейся системы образования во всем мире, помогая учащимся максимально раскрыть свой потенциал.

Международная история инклюзивного образования служит для понимания изменений и важных правовых вопросов для каждого ученика, сосредотачиваясь на их достигнутых результатах. Достигнутые результаты включают в себя знания, навыки и опыт, приобретенные в процессе обучения и преподавания. Эти результаты уникальны для каждого ученика и помогают им готовиться к независимой жизни на мировом уровне.

Возможность использования достигнутых результатов студентами на международном уровне крайне важна. Это готовит их к независимой жизни и помогает им самостоятельно решать правовые вопросы, дополнительно способствуя их развитию и независимости.

В системе инклюзивного образования студенты учатся различным способам использования достигнутых результатов. Эти методы предоставляют практическое руководство для применения знаний и навыков, полученных в повседневной жизни. Студенты используют духовные и практические методы для применения своих достигнутых результатов вне классной комнаты. Среди этих методов включено использование наиболее актуальных знаний и навыков, максимальное использование их в независимой жизни и помощь в личном развитии.

Проблемы и решения в инклюзивном образовании необходимы для преподавателей и направлены на выявление наиболее эффективных

способов выбора наиболее подходящих методов обучения для каждого студента. Важно решать эти проблемы, чтобы предоставить студентам необходимые ресурсы для развития и поддержки их на пути к независимой жизни. В следующей краткой информации вы найдете больше информации о проблемах и решениях инклюзивного образования:

Проблемы:

1. Особенности каждого студента: Студенты могут иметь разные характеристики в своем стиле обучения и методах усвоения информации. Это требует от учителей помощи в выборе наиболее эффективных методов обучения для каждого студента.

2. Правовые вопросы: Между студентами могут возникать скрытая дискриминация, стигматизация и конфликты с системой правопорядка.



Учителя должны разрешать эти вопросы и помогать студентам в правовой защите.

3. Учебные материалы и ресурсы: Учебные материалы и ресурсы должны быть обеспечены наиболее удобными и полезными инструментами для каждого студента. Это важно для увеличения учебного потенциала и эффективности обучения.

Решения:

1. Духовное терпение и опыт: Учителя должны быть терпеливыми и иметь опыт в восприятии студентов. У каждого студента могут возникать изменения, и учителя должны помогать им выявлять свой опыт.

2. Знание законов и понятий: Учителя должны обладать знанием законов и понятий студентов о правах. Это важно для выявления проблем и помощи в правовой защите.

3. Индивидуальная работа: Работа с каждым студентом индивидуально, правильное их понимание и предоставление наиболее подходящих методов обучения являются важными компонентами инклюзивного образования.

4. Творчество и инновации: Подготовка студентов к творчеству и инновациям, создание благоприятных условий для самостоятельного творчества и участия в обществе являются важными целями инклюзивного образования.

Проблемы и решения в инклюзивном образовании важны для предоставления наиболее эффективного образования и поддержки для каждого студента. Для учителей важно найти наиболее подходящие методы обучения для каждого студента и использовать их для достижения успеха инклюзивного образования.

Список использованных литературных источников:

1. "Inclusive Education: International Policy & Practice" - Edited by Paraskevi Knüpfer and Andrej Kohont (2017)

2. "Inclusion: The Dream and the Reality Inside Special Education" - By Martha Minow (2012)

3. "The Inclusion Toolbox: Strategies and Techniques for All Teachers" - By Jennifer Borel and Katharine Davies Samway (2019)

4. "Inclusive Education in Action: A Practical Guide to Teaching Diverse Learners" - By Susan Stainback and William Stainback (2016)



To'rayev Shuhrat 1999 yil Surxondaryoda tug'ulgan . Qozoqiston Respublikasi Shimkent shahridagi Abdumusa Quatbekov nomidagi Halqlar do'stligi unversitetining 4-kurs talabasi



Бебаҳо онам.

Куйинманг арзимас бу дунё иши,
Номард-у нодоннинг бўлар ташвиши.
Бир куни ҳаммаси бўлади яхши,
Мен учун йиғламанг бебаҳо онам.

Душманим аёвсиз кўрсатди ҳунар,
Мен жимман амалим жавобин берар.
Ўзича нимадур ҳаёл килсинлар,
Улар деп йиғламанг бебаҳо онам.

Тўғри аламлардан оғрийди жоним,
Дўстларга ортикча йўқ еди зорим.
Сиз менинг жаннатим кетмас баҳорим,
Мен учун йиғламанг бебаҳо онам.

Волидам бардошни сиздан оламан,
Минг бир дард чек
Мен ҳали дунёнинг зўри бўламан,
Мен учун йиғламанг бебаҳо онам.

Қаддингиз егмасин йиллар заволи,
Сўнмасин бошимдан меҳр офтоби.
Чиройли ёзаман умр китоби,
Мен учун йиғламанг бебаҳо онам.

Унутинг ғам, алам ўтади бари,
Ёкчилик онларин ҳайдайман нари.
Бўламан замоннинг енг олди бойи,
Мен учун йиғламанг бебаҳо онам.

**FIZIKA FANLARNI ZAMONAVIY TADQIQOT USULLARI VA
QO‘LLANISHI**



Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Begmuradov Shokhzod Dilmurod o'g'li

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy tadqiqot usullari va ularning fizika fanida qo'llanilishi muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Zamonaviy, tadqiqot usullari, to'g'ri funksiya, teskari funksiya, molekulaning fizik xususiyatlari.*

Kimyoning asosiy masalalaridan biri moddaning nima ekanligini va uning tuzilishini aniqlashdir. Bu ish avvallari kimyoviy usullar bilan yechilgan bo'lsa, hozirda asosan fizik usullar bilan hal qilinmoqda. Odatda, kimyogar moddani o'rganishni lmi qaysi elementlardan iboratligini aniqlashdan boshlaydi va yalpi formulasini topadi. Shundan keyingina u o'z molekulasining tuzilishini aniqlashga harakat qiladi.

Agar kimyoviy jarayon o'rganilayotgan bo'lsa, unda bu jarayonning ma'lum bir bosqichida reaksiya natijasida hosil bo'lgan aralashmaning tarkibiy qismlarini, shuningdek birikmaning miqdoriy xususiyatlarini aniqlash masalasi ham tug'iladi. Metodologik nuqtai nazardan, moddaning va molekulaning fizik xususiyatlarini o'rganish fan sifatida, o'rganilayotgan modda va unga ta'sir qiluvchi fizik maydon (elektr, magnit, elektromagnit ...) kiruvchi chastotalar "raqamlari" turi (rentgen, ultrabinafsha, ko'rinadigan, infraqizil, radio to'lqinlar) bilan bog'liq. (elektron, neytron). Bunday ta'sir natijasida moddaning va uning molekularining ma'lum xususiyatlari o'zini namoyon qiladi.

Fizik usulning bevosita vazifasi moddaga tushayotgan yorug'lik, zarrachalar nurlari va unga ta'sir etuvchi turli fizik maydonlarning modda bilan o'zaro ta'siridan keyin o'zgarishini aniqlashdan iborat. Har bir chastotadagi elektromagnit nurlar, zarrachalar va fizik maydonlarning moddalar bilan o'zaro ta'sirini o'rganish, ya'ni tajriba natijalariga ko'ra, moddaning fizik xossalarini aniqlash va molekulaning fizik miqdorlarini topish masalani teskari tomondan yechishning bir qismi bo'lib, fizik usulning teskari masalasi deb ataladi.

Masalan, yuqori aniqlikdagi yadro magnit-rezonans (YMR) spektrlarini tahlil qilganda, bu usulning to'g'ri va teskari masalalarini farqlash qiyin emas. To'g'ri funksiya. Tegishli moddaning kimyoviy siljishlari va spin-spin o'zaro ta'sir konstantalari qiymatini hisobga olgan holda, uning NMR spektrini hisoblash kerak. Teskari funksiya. Modda eksperimentda olingan NMR spektri orqali beriladi, undan mos yadroning kimyoviy siljishlari va spin-spin effekti konstantalarini aniqlash talab etiladi. Qoida tariqasida, teskari masalani yechish amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda kimyoda fizik tadqiqot usullari doirasida spektroskopik usullar keng qo'llaniladi. Bu usullar yordamida modda tomonidan chiqarilgan yoki yutiladigan elektromagnit nurlar intensivligining ularning NMH chastotasi yoki to'lqin uzunligiga bog'liqligi o'rganiladi.

Spektroskopik usullar atomlar va molekularining elektron, tebranish, aylanish va magnit energiya darajalari, spektral diapazonning intensivligi orqali energiya darajalari o'rtasidagi farqni topish. Ularni o'rganish, o'z navbatida, molekulaning simmetriyasini, qaysi atomlardan iborat geometriyasini, elektr xossalarini va boshqa miqdorlarni topish imkonini beradi.

Spektral zonaning chastotasi, intensivligi, kengligi va shakli moddaning xususiyatlariga, molekulaning ko'p o'lchamlariga bog'liq. Ushbu muammolarni spektral tahlil qilish usullarini teskari masalani yechish orqali tekshirish mumkin. Fizik usullardan foydalanish kimyoviy tuzilish nazariyasining asosiy masalalarini tadqiq qilish imkonini beradi. Ularga quyidagilar kiradi: ketna ketma-ketligi va



kimyoviy bog'lanishlarning ko'pligi, optik va konformatsion izomeriya, atomlararo koordinatsiya soni, molekulalardagi atomlar va atom guruhlarining o'zaro ta'siri, molekuladagi ichki aylanishlar va boshqa turdagi harakatlarning katta amplitudasi, energiyasi, elektr va boshqa xususiyatlari molekulalarning reaksiyalari va mexanizmlari natijasida hosil bo'lgan reaksiyalar va boshqalar.

Umuman olganda, zamonaviy kvant va nazariy kimyoning asosiga aylanadigan miqdoriy ma'lumotlar asosan fizik tadqiqot usullari yordamida olinadi. Kimyoviy muammolarni hal qilishda eng ko'p qo'llaniladigan fizik tadqiqot usullari orasida: yadro magnit-rezonans spektroskopiyasi (NMR), infraqizil nurni yutish spektroskopiyasi (IR), massa spektrometriyasi va elektron yutilish spektroskopiyasi. Fizika va kimyo fanidan bilim olish jarayoni tabiiy sharoitda fizikaviy va kimyoviy hodisalarni kuzatish yoki maxsus tajribalar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Umuman olganda, tajriba o'quv jarayonining muhim qismidir.

Qo'llaniladigan elektromagnit nurlanishning to'lqin uzunligi diapazoni va tegishli o'tishlarning tabiatiga qarab, atom spektroskopiya usullari optik va rentgen spektroskopiyaga bo'linadi. Optik spektroskopiya usullarida elektromagnit nurlanishning ultrabinafsha va ko'rinadigan hududlari qo'llaniladi. Bu valentlik elektronlar energiyasining o'zgarishiga mos keladi. Atom-optik spektrlarni olish uchun namunani oldindan purkash, ya'ni uni gazsimon atom holatiga o'tkazish kerak. Bu ish atomizatorlar, ya'ni turli tuzilishga ega yuqori haroratli manbalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Elektromagnit nurlarning moddalar bilan o'zaro ta'sirining fizik tabiatiga ko'ra atom spektroskopiya usullari nurlanish va yutilish usullariga bo'linadi. Optik nurlanish usullarida nurlangan nurlar spektrini olish uchun atomlarni qo'zg'atilgan holatga aylantirish kerak.

Atomlarni qo'zg'atuvchi va yuqori haroratga ta'sir qiladigan emissiya optikasi usullari atom emissiya spektroskopiyasi usullari deb ataladi. Ushbu usullar moddani atomlarga aylantirish va qo'zg'atuvchi bog'larni qo'zg'atish uchun bitta qurilma, qo'zg'atuvchi manbadan foydalanadi.

Fizik usullardan foydalanish kimyoviy tuzilish nazariyasining asosiy masalalarini tadqiq qilish imkonini beradi. Bularga quyidagilar kiradi: kimyoviy bog'lanishlarning ketma-ketligi va ko'pligi, optik va konformatsion izomeriya, atomlarning koordinatsion soni, molekulalardagi atomlar va atomlar guruhlarining o'zaro ta'siri, molekuladagi ichki aylanishlar va boshqa katta amplitudali harakat turlari, molekulalarning energiya, elektr va boshqa xarakteristikallari, reaksiyalar natijasida hosil bo'ladigan mexanizmlar va boshqalar.

Umuman olganda, zamonaviy kvant va nazariy kimyoning asosiga aylanadigan miqdoriy ma'lumotlar asosan fizik tadqiqot usullari yordamida olinadi. Kimyoviy muammolarni hal qilish uchun eng ko'p qo'llaniladigan fizik tadqiqot usullari orasida: yadro magnit-rezonans spektroskopiyasi (NMR), infraqizil yutilish spektroskopiyasi (IR), massa spektrometriyasi va elektron yutilish spektroskopiyasi.

Fizika va kimyo fanidan bilim olish jarayoni tabiiy sharoitda fizikaviy va kimyoviy hodisalarni kuzatish yoki maxsus tajribalar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Umuman olganda, tajriba o'quv jarayonining muhim qismidir. Fizika va kimyo tajribaga asoslangan fan bo'lganligi uchun laboratoriya ishlarining o'zni juda katta.

Spektroskopiya, jumladan molekulyar spektroskopiya — moddadagi elektromagnit to'lqinlarning yutilishi, qaytarilishi va tarqalishi jarayonlari orqali moddani tashkil etuvchi molekulalarning tuzilishi va xossalarini o'rganuvchi fan.



Spektroskopik tadqiqotlar ob'ekti sifatida turli agregat holatlardagi turli moddalardan foydalanish mumkin. Bunday ob'ektlarning eng oddiy holati bu molekulalari bir-biridan uzoqda joylashgan noyob gazlardir, bu ularni mustaqil deb hisoblash imkonini beradi. Biroq, eng qiyin holat har bir zarracha molekulalararo o'zaro ta'sirda ishtirok etadigan kondensatsiyalangan muhitdir. Spektroskopik ma'lumotlar nafaqat molekulaning tuzilishi va xususiyatlari, balki molekulalar orasidagi o'zaro ta'sir kuchlari, shuningdek, moddaning tuzilishi haqida ham ma'lumot berishi mumkin. Ma'lumki, elektromagnit nurlanish energiyasining to'lqin uzunligi bo'yicha taqsimlanishi spektr deyiladi. Nurlanishning materiya bilan o'zaro ta'siriga qarab, nurlanish spektri, yutilish spektri, tarqalish spektri va qaytish spektri farqlanadi. Spektroskopiya umuman o'rganiladi, atom-yadro spektroskopiyasi, molekulyar spektroskopiya va kristall spektroskopiyaga bo'linadi.

Har bir mintaqa molekulyar tizimning o'ziga xos harakati haqida ma'lumot beradi. Misol uchun, agar ko'rish va ultrabinafsha sohasida elektron o'tishlar haqida ma'lumot olinsa, u holda infraqizil maydonda muvozanat holati atrofida molekula atomlarining tebranishlari haqida ma'lumot olish mumkin.

Molekulaning spektri moddaning xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot beradi. Molekulaning spektriga qarab, moddaning nafaqat qaysi molekulalardan iboratligi, balki molekuladagi atomlarning o'zaro joylashishi, molekulalarning izomerlari haqida ham ma'lumot olish mumkin.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, bu hodisaning nomi "yadro" so'ziga ega bo'lsa-da, yadro fizikasining IMRga hech qanday aloqasi yo'q va radioaktivlikka hech qanday aloqasi yo'q. Agar biz qat'iy tavsif haqida gapiradigan bo'lsak, unda kvant mexanikasi qonunlarisiz qilolmaymiz. Ushbu qonunlarga ko'ra, magnit yadroning tashqi magnit maydon bilan o'zaro ta'sir qilish energiyasi bir nechta diskret qiymatlarni olishi mumkin. Agar magnit yadrolar o'zgaruvchan magnit maydon tomonidan nurlantirilsa, uning chastotasi ushbu diskret energiya darajalari orasidagi farqga mos keladigan chastota birliklarida ifodalanadi, u holda magnit yadrolar energiyani yutib, bir darajadan ikkinchi darajaga o'ta boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.M.Babayev. "Yuqori molekulyar birikmalar". Toshkent-2015. 412 b.
2. M.I.Nazarbayev., A.Z.Sobirjonov. "Biofizika". Toshkent-2018. 128
3. R.R.Vildanov, G.B.Eshonqulov. "Optik nurlanishning kogerent effektlari". O'quv qo'llanma. -T.: "Universitet". 2009. 68b.
4. R.R.Vildanov, G.B. Eshonqulov. "Lazerli fizika va lazerli texnologiya: Optik signallarni qabul qilish va qayta ishlash asoslari" O'quv qo'llanma. T.: "Universitet", 2005. 56 b.



Rus shoirasi, **Iplina Antonina Aleksandrovna**, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, falsafa doktori filologiya fanlari bo'yicha (Ph.D.), Namangan davlat universiteti ingliz filologiyasi fakulteti dotsenti, 1981-yil 7-fevralda Namangan shahrida tug'ilgan. Antonina o'sgan oilada bolalarning ko'p tomonlama rivojlanishiga,



ma'naviy, pravoslav va estetik tarbiyaga katta e'tibor berildi. Yosh Antoninaning iste'dodlarining erta namoyon bo'lishiga uning onasi Irina Sergeevna Kryukova yordam berdi. U bolaligidan yolg'iz qizini go'zal, mehribon, boqiy dunyoga tanishtirdi, uning ildizlarini eslab qolishga, hurmat qilishni o'rgatdi. Shunday qilib, o'rta maktab bilan bir qatorda Antonina ham musiqa maktabini uchta bo'limda tugatgan: fortepiano, xoreografiya va tasviriy san'at.

Никогда не была на рыбалке...

Никогда не была на рыбалке,
не держала в руках и уду.
Только в детстве пластмассовых в банке
рыб ловила я в детском саду.

Не знаком мне азарт рыболова,
не кормила собой комаров.
Я пластмассовым детским уловом
была счастлива - я рыболов!

До сих пор мне живых рыбин жалко,
они плавают долго в тазу.
Я, как в детстве, с наивной смекалкой
под водой вижу рыбью слезу.

Мне их чудятся жалкие звуки,
тихий шёпот, отчаянный крик.
Я боюсь взять живых рыбин в руки,
оборвать жизни рыбин тех в миг.

Может это покажется глупо
и до нельзя наивным, и пусть...
Каждый раз над тарелкою супа

STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Amonova Aziza

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda qilinayotgan islohotlar xususida va o'quvchilarning savodxonligini oshirishdagi sa'y-harakatlar haqida qayd etilgan. STEAM o'qitish dasturining afzalliklari va bizda ham bu dasturning joriy etilgani haqida bayon qilingan

Kalit so'zlar: STEAM, fan, texnologiya, tanqidiy fikrlash, 4K, matematika

Annotation: This article mentions the reforms that are being carried out to improve the quality of education and the efforts to improve the literacy of students. The advantages of the STEAM training program and the implementation of this program in our country are described

Key words: STEAM, science, technology, critical thinking, 4K, mathematics

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilishning yangi bosqichida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Ayni paytda, zamonaviy dunyo amaliyoti matnini tushunish mezoniga qaratilgan. Ko'p mamlakatlarda muntazam ravishda o'tkaziladigan o'qish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha topshiriqlar o'qish savodxonligi mezoniga asoslanadi, bu "insonning yozma matnlarni tushunishi va ular ustida fikr yuritish, o'z maqsadlariga erishish, bilim va imkoniyatlarni rivojlantirish uchun foydalanishi, faol ishtirok etish qobiliyati" sifatida shakllantiriladi. Texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda yoshlarning texnik, madaniy savodxon bo'lishi robotatexnika fanlarni yaxshi o'zlashtirishi doimgidan ham muhimroqdir. Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida STEAM ta'limni joriy qilish yuzasidan alohida vazifalari belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

STEM o'qitish - bu bolalarimizning mahoratini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradigan innovatsion metod. Uning yordami bilan biz iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo'lishimizga imkon beradigan ilg'or kadrlar bazasini shakllantirishimiz mumkin. (STEM) doiralarning ko'plab sonining paydo bo'lishi bilan bunday ijtimoiy talabga javob beradi. Bugungi kunda, ilmiy va texnik bilimlarning etishmasligi haqidagi fikrlar tobora ko'proq eshitilmoqda. Kelajakda 4K deb nomlanadigan XXI asrning ko'nikmalari talabga ega bo'ladi. Shunday qilib, kelajakdagi 4K asosiy ko'nikmalari shakllandi: aloqa, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik ko'nikmalarni faqat laboratoriyalarda yoki ma'lum matematik algoritmlarni bilish orqali olish mumkin emas. Shuning uchun mutaxassislar STEAM fanlarini tobora ko'proq o'rganishlari kerak". Bu borada, rivojlangan davlatlarni kuzatadigan bo'lsak, AQSh, Singapur, Koreya, Avstraliya, Xitoy, Buyuk Britaniya kabi ko'pgina mamlakatlarda STEAM ta'limi sohasida davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Massachuset texnologik instituti (MIT) STEAM yondashuvga yorqin misol bo'ladi. Bu universitetning shiori "Mens et Manus" ("Tafakkur va qo'l") bo'lib, STEAM kurslari va bolalarning STEAM konsepsiyasi bilan oldindan tanishishlari uchun ba'zi o'quv muassasalarida mashq markazlari ochilgan bo'lib, maktab partasidayoq bu yo'nalishni chuqur o'rgatish rejalashtirilgan. Shuning uchun, qator me'yoriy hujjatlarimizda bu muammolarga keskin ravishda aniqliklar kiritish, muammolarni bartaraf etish, o'qituvchilar malakasini oshirish, STEAM ta'limni joriy qilish ishlari rejalashtirilgan va qat'iy



belgilangan. Bu yoʻnalishda Prezident maktablarida ingliz tilida oʻtiladigan STEAM fanlari qoʻshimcha ravishda “Khan Academy” platformasidan foydalanib, oʻqitish amalga oshirilmoqda. Bunda, oʻqituvchi va oʻquvchilar “web-site”dan roʻyxatdan oʻtib, kichik “Online sinf” tashkil etiladi. Mavzuga doir videomateriallar hamda mashqlar oʻqituvchi tomonidan guruhga qoʻyib boriladi va oʻqituvchi har bir oʻquvchining vazifani bajarganini kuzatib boradi. Oʻquvchilarni roʻyxatdan oʻtkazish oʻqituvchi tomonidan amalga oshirilishi ham mumkin. Oʻquvchi esa “Online sinf”ga kirib, videodarslarni oʻzi mustaqil oʻrganib chiqadi, tushunmagan qismini oʻqituvchisidan soʻrash imkoniyatiga ega. Har bir mavzu yuzasidan maxsus testlar tuzilgan boʻlib, darsdan soʻng oʻquvchi ularni bajaradi. Berilgan javob natijasi shu zahoti dastur tomonidan koʻrsatiladi va yechish usuli ham taklif etiladi. Bu oʻquvchi mashqni toʻliq tushunishi uchun juda foydali boʻladi. Online sinfda ham odatdagi darslardagi kabi bolaning mashqni oʻzlashtirish koʻrsatkichi namoyish etiladi. Shuningdek, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoʻnalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib oʻqitishga ixtisoslashtirilgan maktabda oʻtkazilayotgan robototexnika darslari orqali oʻquvchilar C dasturlash tili, elektronika asoslari, sodda va murakkab sxemalar yasash, 3D dizayn va 3D modellashtirish, mikrochiplar bilan ishlash, sensorlar va qoʻshimcha modullar bilan ishlash (PGB, WIFI, PIR, LSD display, RFID) kabi bilim va koʻnikmalarni egallashmoqda. Bu kabi ishlarni boshqa taʼlim muassasalarida ham joriy qilish uchun avvalo,

STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urgʻu berishni hisobga olgan, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan, telekommunikatsiya muhitiga asoslangan yangi oʻqitish tizimini bosqichma-bosqich amaliyotga kiritish va shu asosda kadrlarni tayyorlash lozim.

Hozirgi vaqtda inson hayotining turli sohalarini keng miqyosda robotlashtirish: mashinasozlik, tibbiyot, kosmik sanoat va boshqalar ishlab chiqarish sohalarining ajralmas qismiga aylandi. Birgina, tibbiyot sohasini olaylik, xorij texnik jihozlari keng qoʻllanilmoqda. Bu meditsina jihozlarini ishlatish uchun albatta kuchli mutaxassislar kerak boʻladi. Oʻqituvchilar loqaqal shuni koʻz oldilariga keltirishi va bugungi oʻzining oʻtayotgan darsini shu talabga muvofiqmi degan savol bilan qiziqib koʻrishi shart. Oʻquvchilar oʻz robotlarini yaratib, kompyuter dasturlari tizimi tomonidan boshqarib, robototexnika musobaqalari, koʻrik-tanlovlarda ishtirok etayotgan hamda internetda chet davlatlar bilan hamkorlik ishlarini yuritayotgan bir paytda oʻqituvchilarning masʼuliyatini oshirmaslikning iloji yoʻq.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvining asosiy xususiyati shundaki, bunda oʻquvchilar koʻpchilik fanlarni samarali oʻrganishda aqli va qoʻl mehnatidan foydalanishadi, amaliy bilimlarni mustaqil egallashadi. Oʻquvchilar oʻquv mashgʻulotlarida tajribalar oʻtkazishadi, modellarni konstruksiyalaydi, robotlarni yasashadi, oʻz gʻoyalarni amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi, bundan koʻzlangan natija shuki, “texnika asri”da kasb mutaxassisliklari zaruratini hozirdan bashoratlash, jahon hamjamiyati talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, tabiiy va aniq fanlarni chuqurlashtirib oʻqitish orqali iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishga erishishdan iborat. STEAM taʼlimining afzalligi shundaki, fanlarni oʻqitish farqli oʻlaroq bilimlarni alohida emas, oʻzaro mutanosib holda beradi. Bola oʻzida nostandart muammolarni yechish, imkoniyatlar yaratish va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi va bu kelgusida uning hayotida juda qoʻl keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmon.T. 2016 yil 7 fevral



2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. T. 2019 yil 29 aprel
3. A.A.Ismailov va b. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnomalar (Matematika fani, tabiiy yo‘nalishidagi fanlar, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlari va mazkur sohalar mutaxassislari uchun mo‘ljallangan axborotnoma). Ta‘lim inspeksiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. –Toshkent, 2020-yil
4. A.B.Radjiyev va boshq. O‘quvchilarning savodxonligining baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi. Qo‘llanma . Toshkent, Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi -20195
5. I.V. Grosheva, G.E.Djanpeisova, U.T. Mikailova, M.A. Ismailova, D.A. Kenjabayeva, N.B. Gulyamova, N.A. Miftayeva “O‘yin orqali ta’lim olish”. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligi. T.:2020 y.
6. “STEAM ta’lim tizimi nima?” <https://www.integer.uz/steam>
7. “STEAM education for English learners” <http://exclusive.multibriefs.com/content/steam-education-for-english-learners/education>
8. “English Teachers: How You Can Use STEAM in Your Classroom By Jennifer Gunn” <https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lessons-english-classroom/>



O‘ZBEKISTONDA AHOLINING FARMASEVTIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR

Nargiza Yoqubova

Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot institutining 1-bosqich magistranti



Ilmiy rahbar: Bagdasarova M.S.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda savdosi avj olgan kontrafakt dori vositalarining inson salomatligiga xavf solishi hamda bu kabi jarayonlarni to‘xtatishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: kontrafakt dori vositalari, farmasevtik savodxonlik, preparatlarni qalbakilashtirish, patentlash.

МЕРЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Абстрактный. В данной статье представлена информация об опасности для здоровья человека контрафактных лекарств, реализуемых в Узбекистане, и мерах, направленных на прекращение таких процессов.

Ключевые слова: фальсифицированные лекарственные средства, фармацевтическая грамотность, фальсификация лекарственных средств, патентование.

MEASURES TO INCREASE THE PHARMACEUTICAL LITERACY OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN

Abstract. This article provides information about the threat to human health of counterfeit drugs, which are being sold in Uzbekistan, and measures aimed at stopping such processes.

Key words: counterfeit drugs, pharmaceutical literacy, drug counterfeiting, patenting.

Mashhur psixoanalitik Zigmund Freyd insonning tana a'zolaridagi xastalikni she'r orqali ham davolash mumkin ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. She'rning ruhiy parvozi ham inson irodasining qanchalik matonatli va chidamliligi bilan ham belgilanadi. Ruhiiy chidam har qanday og'riqlarni, iztiroblarni yengib o'tishga qodir. Tafakkurning bepoyon parvozlari fazoviy bo'shliqlarni zabt etadi, unga maqsad nazari bilan erishiladi. Shoira Zulfiya o'ziga madad so'ragan kuch-dan ilhomlanadi. Har lahzada Yaratganning istagiga qarshi chiqmaydi. Faqat "she'riy asarlarida" ayriliqning, hijronning diliga jo qilgan manzarasini, taqdir hukmi, deya musavvirova chizishga erishadi. Obrazli tafakkur negizida qalb kechinmalari yanada reallasha boradi. San'atning bosh maqsadi insoniyatga ezgulikdan saboq berish, yovuzlik ustidan tantana qilishdir. Umuman, lirikada o'quvchi ko'nglini poklaydigan "najotbaxsh ma'no" o'z ifodasini topadi.

Ham tabiat, ham do'st, ham raqib,

Barchasini qoldirib dog'da,

Ko'rishsag-u, yana tirilsa

O'sha olgan bo'sa dudog'da.

Yuragimning shohi deb seni,

Mayli, bu gal o'zim tiz cho'ksam.

Huzuringda baxtdan tebranib,



Ishq va sog‘inch yoshini to‘ksam.

Zulfiyaning hayotga tashnaligi, qalbining yashash, ijod etish zavqi bilan to‘laligi hamisha uning ona tabiatga, borliqqa bo‘lgan munosabatini belgilab keldi. Shoira shogirdi ham aytib o‘tganidek, Zulfiyaxonimning “vafo va sadoqat timsoli”, “mehribon ustoz”, “talabchan rahbar” kabi biri-biridan chiroyli sifatlarining hammasi o‘ziga yarashadi. Lekin “pokiza”ning o‘rni baribir bo‘lakcha...Chindan ham, shoira shoiraning suvrati-yu siyratidagi pokizalik havas qilarli, ibrat qilib ko‘rsatishiga arziqli edi. Undan hozirda ham barcha biz, ayol-qizlarimiz o‘rnak olishlariga arziqli. Halollik pokizalikning asosi hisoblanadi. Shoira umr yo‘lida yo‘ldoshi suyanchidan ayrildi...u halol inson, pokiza qalb egasi bo‘ldi. Suyangan tog‘idan ayrildi.. Ammo Ayriliq Zulfiyani bukib tashlay olmadi. Unda qodir bir ong, burch hissiyoti bosh ko‘tardi. U suyukligi Hamid Olimjon uchun ham yashash, yaratish, xizmat qilish tilagini yuragiga singirdi. Bu katta ahd edi. Qarori qattiq ayolning, san‘atkorning, onaning ahdi. Zo‘r kelajak bilan yashab, harakat qilib turgan zotning o‘tolmagan burchini yelkaga olish oson emasdi. Buning uchun katta, munavvar iqtidor, shijoat, mardlik va iroda bo‘lishi kerak”. Zulfiyaning suyukli shoirga sadoqatiga tahsin aytmay iloj yo‘q. “Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g‘ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg‘ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug‘yonlarini o‘tkir bilimdoni bo‘lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she‘rlar, hikoyalari, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlarini. Uning ko‘p she‘rlari SSSR xalqlari tinchligi va do‘stligi sari kurashga bag‘ishlangan edi. Urush yillari u vatanparvarlik she‘rlarini yozgan. U tomonidan, shuningdek, o‘zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, Zaynab va Omon operasiga libretto. Shu bilan birga, turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjon qalamiga mansub “Semurg” dostoni mavzusi asosida, ertak-sahna asarini ham yozgan. Shoira adabiy-ijtimoiy faoliyati uchun ko‘pgina davlat mukofotlari bilan taqdirlangan”. [1]

Shoira Zulfiyaning muhabbat haqidagi manzumalarida hijron vahmi “qizil ip”dek o‘tadi. Uni bir ko‘zgu deb olib qarajak, teran najotbaxsh ma‘nolarni ilg‘ab olamiz. Visol tushunchasi shunchaki maishiy mazmun ya‘ni faqat bir kishiga kasb etmay, ilohiy tuyg‘ular bilan ham yaxlitlashadi. Bu mutanosiblik san‘atdan olingan haqiqiy estetik zavq hisoblanadi. Zulfiya Isroilova nafaqat betakror ijodi, she‘rlari balki oliyanobligi, samimiyati, mehri bilan ham ajralib turib, xotiralarda saqlanib qolgan. Buni Erkin Vohidov ham shunday xotirlaydi: Erkin Vohidov ham Zulfiya g‘amxo‘rligidan bahramand bo‘lgan ijodkorlardan. U o‘zining “Sovet O‘zbekistoni san‘ati” jurnaliga bergan intervyusida ustozga bo‘lgan o‘z hurmatini shunday e‘tirof etadi: “Bir payt meni Zulfiya opa chaqirtirib (allakimdan Yeseninni tarjima qilayotganimni eshitib), tarjimalarni o‘qib berishni so‘radi. Ma‘qul keldi. Nashriyotga aytirib, kitob holda chiqarishga bosh bo‘ldi. Bu mening ikkinchi kitobim edi! Meni, oddiy bir studentni taniqli shoiramiz chaqirtirib, yordam qo‘lini uzatganligi bilan judayam faxrlanib ketdim. Buning uchuk men Zulfiya opadan bir umrga minnatdorman”.

“Zulfiya ijodi, u yaratgan poetik asarlar hozirgi o‘zbek she‘riyatida muayyan ahamiyatga molikdir. Shoira Zulfiya ijodida xotin-qizlar mavzusining ko‘p jihatlari teran yoritilishi, sevgi va hijron motivlarining haqqoniy badiiy tadqiq etilishi, tinchlik, xalqlar do‘stligi g‘oyalarining ancha tasirchan tarannum etilishi tahsinga sazovor. Ma‘lumki, Zulfiya tomonidan yaratilgan asarlarida realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami kengayganligini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri san‘atkorning o‘ziga xos, betakror badiiy olamini o‘rganish bo‘lib, bu masalaning teran atroflicha tadqiq qilinishi yozuvchining individual mahoratini ko‘rsatishga, uning adabiyotimiz



taraqqiyotidagi o‘rnini belgilashga xizmat qiladi. Zulfiyaning poetik fikrlash tarzini jiddiy o‘rganish, uning asarlaridagi obraz va obrazlilikning tabiati, xarakterini yana ham to‘laroq ochish o‘zbek she‘riyatidagi katta bir turkum asarlar mohiyatini tushunishga imkon beradi”. [2] Zulfiyaxonim ijodi haqida aytadigan bo‘lsak, she‘riyat olamiga har bir ijodkor o‘z qo‘shig‘i bilan kirib keladi. Zulfiya she‘riyatga vafo qo‘shig‘i bilan kirdi. Va bu qo‘shiq ayol sadoqatining yuksak tarannumiga aylandi. Zulfiyaxonim o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos beqiyos o‘ringa ega shoira bo‘lib hisoblanadi va o‘zbek xalqining barcha oliyjanob xislatlariga ega mushfiq ayol bo‘lgan edi. Shoirsiz yurt - bulbulsiz chaman, yulduzsiz osmon, mayoqsiz bandargoh kabidir. Bizning o‘zbek she‘riyatimizda ham bu shoiramizning o‘rni beqiyos, hissasi ulkan bo‘lib hisoblanadi. Zulfiyaxonim hayot yo‘li, boshiga tushgan tashvishlaru sinovlarni sabr bilan yengib o‘tishi, umuman olganda hayotiga, ijodiga chuqurroq nazar solish natijasida shunga yana bir bor iqror bo‘ldimki, o‘zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab, ma‘lum bir topshiriq, buyruqlar, tazyiqlar ijodkorlar, ilm-fan talabidagilar qiyinchilik bilan yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lmasin, bu davrda har birining ijodi o‘ziga xos ijodkorlar yetishib chiqqan va bu ijodkorlar ichidagi porloq yulduzlardan biri, ijodi bilan insonlar mehrini qozongan va bu albatta Zulfiyaxonim bo‘lgan. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg‘a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o‘zini yo‘qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida albatta havas uyg‘otadi. Zulfiya Isroilova hayot yo‘li men uchun ham hamisha ibrat bo‘lib saqlanib qoladi.

Zulfiyaxonim ijodini o‘z asarlariga singdirish, asarlarining badiiy qimmatini bugungi davr avlodlariga yetkazib berish katta bir mas‘uliyatni talab etadi. Zulfiyaxonim ijodida ustoz, rahbarlik va vafo, siyukli ona va shu kabi tuyg‘ular birmuncha aks etish bilan birgalikda kitobxonlarning e‘tiborini tortadi. Zulfiya she‘rlari kishilarga poetik zavq berish bilan birgalikda o‘quvchining kayfiyatini ko‘tarish, kitobxonga ko‘tarinki kayfiyat ulashadi. Bu esa Zulfiya ijodida o‘ziga xos vosita sanalishi bilan ham ajralib turadi. Shunga ko‘ra, Zulfiya ijodining keng tarzda o‘rganilishi o‘zbek adabiyotida zulfiyaxonimning tutgan orni katta ekanligidan sezish mumkin. Zulfiyaxonim yashagan davrda poetik asarlar yaratish, o‘zbek she‘riyatida muayyan bir katta ahamiyat kasb etadigan voqea ekanligini unutmazlik lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Musurmonova Feruza. Zulfiyaning hayoti va ijodidagi o‘ziga xoslik. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* – 2022

Akbarova Munojaat. Zulfiya she‘riyatida badiiy olam talqini. “Scientific progress” *Scientific journal*



Men **Raxmonova Feruza Sadriiddinovna** 1989- yil 20- sentyabrda Buxoro viloyatida tug'ulganman. Oliy malumotliman. Hozirgi kunda Buxoro viloyati Kogon tumanidagi 6-umumta'lim maktabida Rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi lavozimida o'z ish faoliyatimni davom ettiroptman. Ijodiy ishlarim ko'plab gazeta, jurnal va to'plamlarda yoritilgan.

“ Президент Шавкат Мирзиёев – менинг нигоҳимда”

Бухоро вилояти когон тумани 6 - умумий ўрта таълим мактабининг

рус тили ва адабиёти фани ўқитувчиси

Рахмонова Феруза Садриддиновна.

Аннотация: Ушбу мақолада мухтарам Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг босиб ўтган ҳаёт йули, давлатимиз ривожланиши учун қилаётган ҳаракатлари , пандемия шароитида ҳам халққа қилган ёрдамлари, устоз ва мураббийларга қаратган эътиборлари ҳақида сўз юритилган.

Калит сузлар: Президент, Республика, давлат, ўзбек.

Шавкат Миромонович Мирзиёев 1957 йил 24 июлда Жиззах вилоятининг Зомин туманида шифокор оиласида туғулган. Миллати ўзбек . Олий Маълумотли 1981-йили Тошкент Ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтини тугатган. Муҳандис механик мутахассислигига эга. Техника фанлари номзоди , доцент.

Меҳнат фаолиятини 1981- йилда Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтида бошлаб, кичик илмий ходим , катта ўқитувчи доцент, ўқув ишлари бўйича проректор лавозимларида ишлаган.

1990- йили Республика Олий Совети депутатлигига сайланиб .айни вақтда мандат комиссиясининг раиси сифатида ҳам фаолият кўрсатган.

1992- йилда Тошкент шаҳрининг Мирзо Улуғбек тумани ҳокими лавозимига тайинланган. 1992-2001- йилларда Жиззах вилояти ҳокими, 2001-2003- йиллар мобайнида Самарканд вилояти ҳокими



лавозимларида ишлаб ,мазкур туман ва вилоятларни ижтимоий- иқтисодий жихатдан ривожлантиришга катта хисса қўшган .

Ижро ҳокимиятидаги фаолиятлари билан бир пайтда 1995-2003-йилларда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг депутати сифатида ҳам мамлакатни сиёсий , ижтимоий иқтисодий ривожлантириш ҳақида демократик ислохотларни амалга ошириш борасидаги муҳим қонун ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва қабул қилиш жараёнида фаол иштирок этиб , самарали фаолият олиб борган.

Шавкат Миромонович Мирзиёев мамлакатимиз мустақилликка эришган илк кунлардан бошлаб Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислам Каримовнинг юксак ишончини қозониб, унинг яқин сафдош ва маслакдоши сифатида самарали фаолият олиб борган.

Шавкат Миромонович Мирзиёев 2003- йилда Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири этиб тасдиқланди ва ушбу лавозимга яна уч марта 2005,2010,2015- йилларда Олий мажлис палаталари томонидан қайта тасдиқланган.

2016- йил 8- декабрдан Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида иш олиб борапти . Ҳукумат бошлиғи сифатида кенг қўламли ижтимоий-иқтисодий ислохотларни амалга ошириши, мамлакатимизни модернизиация қилиш ва янгилаш, йирик ва ноёб лойиҳаларни ҳаётга жорий этиш,хусусий мулкни устивор даражада ривожлантириш, иқтисодиётда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг улушини кескин ошириш ҳамда уларнинг ҳуқуқий ҳимоясини янада мустаҳкамлашда ўзининг юксак салоҳияти ва моҳир ташкилотчилик қобилиятини намоён этган.

Юртимизнинг барча ҳудудларида улкан бунёдкорлик ва ободончилик ишларини олиб бориш, аҳолига сифатли қўшма хизмат кўрсатиш, республиканинг шаҳар ва туманлари комплекс ривожлантириш орқали аҳолининг турмуш ва меҳнат шароитини тубдан яхшилашга қаратилган кенг қўламли ва самарали тадбирларни амалга оширган.

Шавкат Миромонович Мирзиёев оилали, икки қиз бир ўғли ва беш нафар набираси бор . Рафикаси Зироатхон Хошимова мутахассислиги бўйича муҳандис иқтисодчи, айни пайтда уй бекаси.

Шавкат Миромонович Мирзиёев давлат ва бошқарув органларидаги куп йиллик самарали меҳнати,юртимиз равнақи,халқимиз фаровонлигини юксалтириш ишига улкан хисса қўшгани учун “ Меҳнат шўҳрати” ва “ Фидокорона хизматлари учун” орденлари билан тақдирланган.

Пандемия шароитини инобатга олиб Президентимизнинг фаолиятида социал иқтисодий масалалар билан бир қаторда таълим, фан, соғлиқни сақлаш тизимларини замонавий талаблар асосида ривожлантириш, ёшларни соғлом ва баркамол бўлиб вояга етишлари учун муносиб шарт шароитлар яратиш, оналик ва болалиқни кучли муҳофаза қилиш устувор вазифа сифатида муҳим ўрин эгаллади.

Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг “ Бугунги кун қаҳрамони ким деб сўрашса? Мен тиббиёт ходимлари билан бир қаторда Мухтарама муаллимларимиз деб жавоб берган бўлар эдим” деган сўзлари



хар бир ўқитувчининг қалбидан чуқур жой олди ва янада кучлироқ ижод қилишга ундади деган умиддаман

Пандимия шароитида Президентимизнинг халқимизга, тиббиёт ходимларига ва шу билан бир қаторда ҳурматли ўқитувчиларимизга кўрсатган ёрдамларининг ўзи бир жасоратдир десам муболаға бўлмайди.

Мен учун эса бугунги кун қаҳрамони бу – Мухтарам Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев бўладилар. Чунки у киши давлат бошлиғи, ҳар тарафлама идеал инсондир!

Биз ёшларга, айниқса ўқитувчиларга қаратган улкан эътиборларини тарифлашга тил, ёзишга эса сўзлар ожиздир!

Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг 5 ташаббус доирасида олиб бораётган ишлари таҳсинга лойиқдир. Ёш китобхонлар, талантили рақомлар, ижодкор шоир ва шоираларни кўриб лол қолсан киши.

Юртимизда сўнги 6 йил ичида ижтимоий – иқтисодий, маънавий ва маданий ҳайотимизда улкан ўзгаришлар рўй берди. Буларнинг исботи сифатида – ёшларимизга бир қаранг! Дунё тан олган олийгоҳларда таҳсил олмоқдалар!

Бизнинг юртимизда не не олимлар ва фузалолар яшаб ўтган. Биз уларга муносиб авлод бўлайлик! Сиз нима дейси азиз юртдошим?

Келинлар қадрли ватандошлар юрт тинчлиги, халқ фаровонлиги, юртимиз юксалиши учун биз ҳам ўз ҳиссамизни кўшайлик! Боболаримизга муносиб авлод бўлайлик!

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Шавкат Миромонович Мирзиёев “ Эркин ва фаровон демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз “ Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ. Тошкент –“ Ўзбекистон”- 2017

2. Шавкат Миромонович Мирзиёев “ Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – Юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. Тошкент – Ўзбекистон”-2017

3. Шавкат Миромонович Мирзиёев “ Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. Тошкент – “ Ўзбекистон”- 2017.



UMAROVA MOHIDIL RAVSHANBEK QIZI.

1994-yil 14- noyabrda tug'ilgan. Hozirda Qo'qon shahar 22-maktab texnologiya fani o'qituvchisi. Shuningdek, "Nihol", "Kelajak ovozi", "Eng she'rxon talaba", "Zulfiya", "Eng iqtidorli xunarmand", "Nutqga boy suhandon" kabi bir qator ko'rik tanlovlarning faxrli o'rinlar ishtirokchisi. Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti bakalavriati va shu davrlarda institutdagi ko'pgina tadbirlar faol a'zosi, turk tilidan B1 daraja sohibasi, qo'shimcha qilib aytganda, o'z ilmiy maqola va ko'rgazma namoyishlari, malaka oshirishda o'qituvchilar uchun innovatsion va metodologik videolavhalar muallifi, internet tarmoqlarida turli xil g'oyalar muallifi, yoshlar ichida online va offline tanlovlar rasmiy a'zosi, loyihalar muallifi.

Yosh avlodni tarbiyalashda harakatli o'yinlarning ahamiyati va o'quvchilarni texnologik yondoshuv asosida o'qitish.

Umarova Mohidil Ravshanbek qizi

Qo'qon shahar 22-maktab

Annotatsiya: Ushbu tezisdan umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning fan asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlar, malaka va ko'nikmalarning puxta, chuqur o'zlashtirishda texnologik yondashuvlardan foydalanish ochib berilgan.


Kalit so'zlar: Texnologiya, innovatsiya, zamonaviy yondashuv, kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka.

O'zbekiston Respublikasi « Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan biri ham ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, tayyorgarlikning zamonaviy tizimlardan foydalangan holda ta'lim oluvchilarni o'qitishni jadallashtirish sanaladi.

O'qituvchilarning fan asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlar, malaka va ko'nikmalarning puxta, chuqur o'zlashtirilishining kafolati bo'la oladi.

Zamonaviy darslarga qo'yilayotgan yuksak talablar o'qituvchini har bir darsga juda puxta o'ylab tayyorlanishga majbur qiladi. Har bir darsga puxta tayyorlanishning sababi, DTS doirasida bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi ortayotganligi o'qitish shart-sharoitlarining ham o'zgarayotganligi, o'quv adabiyotlarining yangi avlodi yaratilayotganligi, o'quv rejalari, dasturlariga tuzatishlar kiritilayotganligi, o'qitishning shakl va metodlarining takomillashtirishning talab qiladigan yangi vazifalar qo'yayotganligidadir. Ammo o'qituvchining har bir alohida darsga tayyorlanishi uning o'z o'quv ishiga tayyorlanish tizimining bir qismi xolos. Bu tizim:

- 1) o'qituvchining o'z fani bo'yicha tayyorlanish;

- 
- 2) o'quv dasturining har bir mavzusiga tayyorlanish;
 - 3) har bir darsga tayyorlanishni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligini saqlash, jismonan baquvvat, chaqqon, ishbilarmon qilib tarbiyalash hamda ularni hayotga, mehnatga, Vatanni himoya qilishga tayyorlash masalalariga tegishli direktiv hujjatlarni amalga oshirish uchun yangicha yondashish, izlanishda bo'lish tizimining amaliy asoslarini ilmiy –nazariy va qayta ishlab chiqishni taqozo etadi.

Inson organizmining rivojlanishida harakat, muskul faoliyati, jismoniy ish muhim o'rin tutadi, chunki uning hayot kechirishi, turmush tarzi bevosita faol harakatni taqozo qiladi. Bunday bog'lanish inson paydo bo'lganidan beri hayot kechirishning ajralmas qismi bo'lib, evolyutsion yo'l bilan mustahkamlangan.

Shu sababli harakat faqat yashash uchun kerak bo'lib qolmasdan, barcha tashqi va ichki a'zolarining me'yoriy ishlashi uchun zaruratga aylangan. Hozirgi sharoitda esa texnikaning tezlik bilan rivojlanishi, turmushda avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishning tobora keng ko'lamda qo'llanilishi insonning bevosita harakat qilishini ancha-muncha cheklab qo'ydi.

Faol harakatning cheklanishi bilan organizmdagi barcha a'zolarining me'yoriy ishlashi buziladi, chunki ular asosan serharakat sharoitda o'z funksiyalarini to'liq bajaradilar. Shuning uchun ham sport bilan shug'ullanish kundalik turmushning ajralmas qismiga aylanishni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, bunday turmush tarzi jarayonida inson tanasidagi barcha a'zolar va tizimlarning harakatiga nisbatan bo'lgan tabiiy talabi qo'shimcha ravishda yuzaga keltiradigan serharakatlik bilan yoki jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish orqali qoplanishi kerak.

O'quvchilar uchun qoidali harakatli o'yinlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan yalpi ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Bu jarayonning asosini tashkil etuvchi bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishga, harakat ko'nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg'ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir etadi. Harakatli o'yinlar asosiy vositalari va metodlaridan biri sifatida yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni samarali hal etishga yordam beradi.

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda erishiladigan sog'lomlashtirish samarasi bolalarning o'yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola ruhiyatiga yaxshi ta'sir etadigan ijobiy emotsional holat bilan uzviy bog'liqdir. Emotsional ko'tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo'lgan maqsadga erishishiga intilish uyg'otadi va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o'zaro mosligiga, fazoda va o'yin sharoitlarida aniq mo'ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur'atda bajarilishida ifodalanadi. Bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asnosida turli to'siqlarni yengib o'tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi. Harakatli o'yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo'lib xizmat qiladi. O'yin jarayonida bola o'z e'tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. Bu o'yin shartlariga muvofiq harakat qiladi. Bunda chaqqonlik ko'rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi. Shuning uchun, masalan, "Bo'ri jarlikda" o'yini bolalar yugurib kelib uzunlikka sakrashni bilib olganlaridan keyin beriladi.

Harakatli o'yinlarning kelib chiqishi qadim xalq pedagogikasiga borib taqaladi. O'yinlarning kelib chiqishi va tarixi haqidagi ma'lumotlar bizgacha XI asrning buyuk lingvisti, tarixchisi, etnografi Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu



lug'otit turk» kitobi orqali yetib kelgandir. Asarda o'zbek harakatli o'yinlarini boshlashdan oldin amalga oshiriladigan chaqirish, to'planish, o'yin boshi, chek tashlash kabi o'yin shakllaridan namunalar keltirilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida ham sport o'yinlaridan qilichbozlik, kurash, ko'pkari... ga alohida e'tibor berilib, ularni yoshlarni jismonan baqquvat bo'lishlariga katta ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan.

Ilk yoshli bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakati bilan bog'liq ovunmashoqlar, ermak o'yinlar yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega bo'lgan (o'z ichiga bolalarni rom qiluvchi o'yin boshlanmalari, xirgoyilari, sanashmashoqlarni oluvchi) xalq o'yinlari katta o'rin olgan. Bolalarni ilk yoshidan boshlab, o'z xalqining urf-odatlarini, an'analarini, tarixini bilishga bo'lgan qiziqishni tarbiyalashda tayanch dasturlarda ham har bir yosh guruhi uchun o'rgatiladigan milliy va harakatli o'yinlar belgilab ko'rsatib berilgan.

Atoqli rus pedagogi P.F.Lesgaft «o'yinni bolani hayotga tayyorlashga yordam beruvchi mashq deb hisoblaydi». Bu mashq mustaqil faoliyat bo'lib, unda bolaning shaxsiy tashabbusi rivojlanadi va ahloqiy sifatleri tarbiyalanadi. U har bir o'yin maqsadga ega bo'lishi kerak deydi.

Buning uchun o'yindagi harakatlar bolaning o'zini boshqara olish malakasiga mos bo'lishiga; bu harakatlar tizimli mashqlarda oldindan o'zlashtirilgan bo'lishi lozim.

Harakatli o'yinlarni muntazam o'tkazish bolalarda o'z harakatlarini boshqarishni rivojlantirishga yordam beradi, ular gavdasini tartibga soladi, ya'ni turli zo'riqlikda harakat qilishga o'rgatadi. O'yinlar bolani juda chaqqonlik, muayyan maqsad va tezkorlik bilan harakat qilishga; qoidalarni bajarish, o'zini tutish, o'rtoqlikni qadrlay olishga o'rgatadi.

Ma'lumki, aniq manzilga qaratilgan har qanday faoliyat o'z samarasini beradi, shuning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarga to'g'ri tarbiya berishda jismoniy mashqlarni to'g'ri tanlash maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Shuning uchun, kelajak yosh avlodni sabr bilan xunarli qilishga o'rgatish, ularni jismonan va manan sog'lom qilish, tadbirkorlik orqali o'z iste'dodlarini namoyish qilish, xunar orqali xattoki daromad topishga qiziqtirish hozirda aniq yo'naltirmoqchi bo'lgan maqsadlarimdan...

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kamoldinov M, Vaxobjanov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent. Talqin. 2010y.128 bet.
2. Jumayeva N. O'quvchilarning faolligini oshirishda ta'limning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xalq Ta'limi. 2008 yil. 6-son.43-bet.
3. [http: www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).
4. [http: www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)



Sağdullayeva Durdona Bahodir qizi

2022-yil Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 35-umumiy o'rta ta'lim maktabi Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

2023-yil "Yozuvchilar to'plami" yozgan she'rlarim qabul qilindi. Eng yaxshi ijodiy ish va laurent statuetkasi bilan taqdirlandim.

2023-yil Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkil etilgan "Ilmiy-amaliy tadqiqot tanlovida ilmiy maqolam bilan qatnashib "Eng yaxshi ilmiy ish", "Oz kasbini fidoyisi unvoni" bilan taqdirlandim. 2023-yil "Inson kongli o'zgaruvchan" mavzusida yozilgan ilmiy maqolam Britaniyaning "Just-fiction Education" jurnalida nashr etildi.

Tassavvur qil.....

Uzatsang berarman bir senga qo'lim,
Sevganim sen bo'lsang chidaydi dilim.
Sen yur desang borarman bil sevgilim,
Bizni hech Kim topa olmas tomonlarga,
Biz kutgan va kutayotgan zamonlarga.

Azoblarda qoldingmi a mensiz jonim,
Chidamoqqa majburmidi essiz dilim,
Ketgim kelar ketamizmi ayt sevgilim,
Bizni hech kim topa olmas tomonlarga,
Biz kutgan va kutayotgan zamonlarga.

Hayollar axtarsa hayoling bu dam,
Yollar olis bo'lsada tashlayin qadam.
Mayli bo'laversin u yerda Alam,
Uchay senla qolim siltab armonlarga,
Biz kutgan va kutayotgan zamonlarga.

Tassavur qil...kongil aro yoq alamlar,
Satrlar bor qogoz qora....oq qalamlar,
U olamda yolgonchimas..rost odamlar,
Ketamizmi daraxt yaproq tokmas joyga,
Sevgimizga....toshlar otib sokmas joyga.



Men senga oshiqman, osmoncha o'zim,
Javlon urib turar tilimda so'zim.
Sensizlik o'limdir bilgin yolg'izim.
Sen! Yur desang borarman har tomonlarga,
Biz kutgan va kutayotgan zamonlarga.

Bu olamga siĝmas ikki dunyolarmiz,
Orzulari sarob bòlgan ròyolarmiz.
Muhabbatning tarixida tanholarmiz,
Yur ketamiz, fasli bahor tomonlarga,
Biz kutgan va kutayotgan zamonlarga.

Bizga butun dunyo qarshi chiqsin mayli,
Mayli majnun kabi sevma _bòlmay layli,
Ichimizda yig'layotgan dil tufayli.
Ketamizmi azobi yòq tomonlarga,
Biz kutgan va kutayotgan zamonlarga.

Ketdik, yorim _bu dunyodan kòngil qoldi,
Chin sevgandik gunohkor deb, aybga soldi,
Ayriliq ham alamini bizdan oldi,
Ketamizmi - soyalar oq tomonlarga
Biz kutgan va kutayotgan zamonlarga!!!



Komiljonova Bonu Quvondi qizi. 2003-yil 6-oktabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanida tavallud topgan. Bugungi kunda Berdaq Nomidagi Nukus davlat universitetining sirtqi bo‘lim matematika fakultetining 3-kurs talabasi hamda To‘rtko‘l tuman 29-maktabda matematika fani o‘qituvchisi lavozimida ishlaydi.

Pushaymonlik

Sashaning onasi uch yildan buyon og‘ir kasal bo‘lib to‘shakka mixlanib yotib qolgan. Sasha ayoli Veneraning gapiga kirib onasiga qaraydigan ayol izlashga majbur bo‘ldi. Ayoli xizmatkor qiz topdi. Uning ismi Natasha edi. Dussanba kunidan boshlab tushlikdan so‘ng ishga kelishi mumkun edi. U ishga kelgan kuni Venera unga shunday dedi: "Bugundan boshlab bu kampirga o‘zing qaraysan meni qaragani vaqtim ham, xoxishim ham yo‘q" dedi.

Sashaning fikricha ayoli ishdan charchab keladi, onasiga qarolmaydi. Uyida kunda xarxasha-"Charchab kelaman axir, hech narsaga ulgur olmayman, onangizga xizmatkor toping"-degan gaplar kuniga uch, to‘rt martalab aytiladigan bo‘ldi. Oradan ikki oy o‘tdi Sasha ishi yuzasidan chet elga ketadigan va u bilan birga Venera ham ketadigan bo‘ldi. 1 haftadan so‘ng ular ketishadi. Bir hafta o‘tdi. Bugun seshanba. Samolyot soat 14.00 da uchadi hozir soat 13.00 bo‘ldi. Sashaning onasi Tatyana xola edi. O‘g‘li onasi bilan hayirlashdi. Tatyana xola-"Iltimos o‘g‘lim, ketmay qolaqol. Negadir ko‘nglim g‘ash, meni yolg‘iz tashab ketma! Sen kelguningcha men bormanmi, yo‘qmanmi"-deb yig‘lab yubordi.

Sasha ketdi. Hokisor ona to‘shakka mixlangani holicha yig‘lab qolaverdi. Oradan bir oy o‘tdi. Sashaning Vedyasiz 15 yashar ukasi bor edi. Bir oydan so‘ng Vedyasiz Sashaga yig‘lab qo‘ng‘iroq qilib-"Aka, tezroq keling! Oyim bizni tashab ketdila. Endi oyim yo‘qlar, men yolg‘iz qoldim. Oyimni shu ahvolga tushishiga siz sababchisiz, ularni ozgina o‘ylaganingizda edi, tashlab ketmasdiz, tez keling aka, hech bo‘lmasa ularni birga so‘ngi bekatiga kuzataylik aka"-deb go‘shakni qo‘ydi. Sasha biroz vaqt joyidan jilmadi, na gapirardi, na yig‘lardi. Bechora ona so‘ngi nafasigacha o‘g‘lini ismini aytib chaqirdi. Sasha bilet oldi va tezlik bilan uyiga qaytishga harakat qildi. U uyiga kelganida kech bo‘lgandi. Hatto onasining tobutini ham ko‘tarolmadi, hatto so‘ngi bekatiga ham kuzatolmadi.

Sasha juda qattiq pushaymon bo‘ldi. Endi pushaymon bo‘lishning nima foydasi bor? Endi qo‘lidan nima keladi? O‘g‘lim o‘qisin, do‘stlaridan yaxshi kiyinsin deb uni uyli-joyli qilib so‘ngi nafasida hatto o‘g‘li bilan diydorlasholmasa. Mayli farzand bo‘lib, ona tobutini ko‘tarmasang, farzand degan nomga noloyiqsan. Pushaymonlikning endi hech keragi yo‘q. Sasha endi o‘zini umuman kechirolmasa kerak. Onalarni borida qadirlash kerak. Ular bizni tashlab ketganidan keyin ularni eslab, ular bo‘lgan joylarni eslaganni foydasi yo‘q. Nahot unda unda kech bo‘lganini tushunmasangiz. Ular borida ularga ko‘proq e‘tibor va mehr berishimiz kerak. Onalar keyin topilmaydi ular bizning dunyoyimiz...



Bozorboyeva Muhlisa Amonjon qizi. Namangan viloyati Chust tumanida tavallud topgan. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, Kamoliddin Begzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 2-bosqich talabasi. Hozirda institutning "Qizlarjon" klubi raxbari. Bozorboyeva Muhlisa 2015-yil Namangan viloyati Chust tumani 15-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabida tasviriy san'at yo'nalishida 5-yil, Namangan ixtisoslashtirilgan Madaniyat maktabida 2-yil, 2022-yildan Kamoliddin Begzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida tahsil olmoqda.

Ko'plab halqaro tanlovlar va forumlar g'olibasi: 2023-yilda bo'lib o'tgan "Russian Talents" nomli xalqaro tanlovning 1-chi o'rin g'olibasi, 2022-yil Xalqaro tasviriy san'at festivalida fahrli 2-chi o'rin, 2020-yil "Yosh ijodkor" nomli xalqaro tanlovining Gran-pri sohibasi. 2023 yil 5-6-7 sentabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Afsonaviy yoshlar" forumining g'olibasi. "Oriental diamonds" nomli yosh ijodkorlar to'plamida sherlari nashr qilingan. "MT.Kenya Times" xalqaro jurnalda ijodiy ishlari chop etilgan. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi tomonidan hamkorlikda o'tkazilgan "Yuksalishga qadamlar" nomli to'plamda ijodiy ishlari nashr qilingan. Har yili Toshkentda shahrida bo'lib o'tadigan "Tasviriy va amaliy san'at" festivalida doimiy qatnashib faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Ota

Har dam qo'llab quvvatlab,
Hech qulamas tog'imsiz - Ota
Aytolmadim, zabonim ojiz
Satlarda so'zimsiz - Ota.

Kichik bir yutug'imni,
Olamga jar solgan siz
Betob bo'lsam, mendan ko'p
Dard-u azob yutgan siz,
Ayting! Bormi dunyoda,
Mendayin baxtiyor qiz?
Davlatimsiz, borimsiz - Ota
Dardga darmon dorimsiz - Ota.

Siz bor yaqin kelmas muammo,
Qo'lim yetmas kamim yo'q - Ota



Siz-la qaddim tikdir doimo
G‘ururimsiz, orimsiz - Ota.

Xazil-xuzul kuldirganimsiz,
Baxt-la qalbim tōldirganim siz,
Siz suyanchim , mehribonimsiz,
Panohimsiz, qalqonim - Ota
Davringizda g‘amim yo‘q - Ota.

Kuni kelib vaqtlar o‘tgan dam,
Qalbingizda qoldirmayin g‘am,
Men ham sizga tirkak bo‘laman
Tog‘ bōlishga ojizaman, ammo...
Qirollardan bōlmagaysiz kam
Jannat tomon yōlizman - Ota,
Jannatlarda tojizman - Ota.



Men Bekniyazov Albert 2000 jil 7 noyabrde Qaraqalpaqstan Respublikasi Nokis qalasinda tuwildim hazirde Samarqand mamleketlik veterinarya ham sharvashiliq ham biotexnologiya universitetinde veterinarya ham zoinjeneriya fakulteti veterinarya diagnostikasi ham laborotorya isleri qanigelinde 3 basqish talabasiman

HAYVONLARNI KLINIK TEKSHIRISH TARTIBI. HAYVONLARNI UMUMIY TEKSHIRISH

Samarqand mamleketlik veterinarya meditsinasi sharwashilik ham biotexnologiyalar universiteti

Nokis filiali veterinarya ham zoinjeneriya fakulteti

veterinarya diagnostikasi ham laborotorya isleri qaniygeligi

3 kurs talabasi

Bekniyazov Albert Jalgasbayevish

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada hayvonlarni tekshirish tartibi hamda hayvonlarni umumiy tekshirish to'g'risida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: gabitus, shilliq parda, limfa tugunlari, tanosil a'zolari, asab tizimi.

Аннотация: В данной научной статье описана процедура осмотра животных и общего осмотра животных.

Ключевые слова: габитус, слизистая оболочка, лимфатические узлы, репродуктивные органы, нервная система.

Abstract: This scientific article describes the procedure of animal examination and the general examination of animals.

Key words: habitus, mucous membrane, lymph nodes, reproductive organs, nervous system.

Veterinariya amaliyotida hayvonlarni qo'yidagi bo'yicha tekshirish tavsiya qilinadi:

I. Hayvon bilan dastlabki tanishish: a) hayvonni qayd qilish - registrasiya; b) anamnez ma'lumotlarini to'plash.

II. Vrachning hayvonni shaxsan tekshirishi - Status rraesens. A. Hayvonni umumiy tekshirish: 1) hayvonning gabitusini aniqlash; 2) teri qoplamasini



tekshirish; 3)terini tekshirish; 4) ko'zga ko'rinadigan shilliq pardalarni tekshirish; 5) limfa tugunlarini tekshirish.

III. Hayvonni maxsus tekshirish yoki tizimlar bo'yicha tekshirish: 1) nafas olish tizimini; 2) yurak qon tomir tizimini; 3) ovqat hazm qilish tizimini; 4) tanosil a'zolarini; 5) asab tizimini; 6) qon tizimini tekshirish.

Yuqoridagi tekshirishlar o'tkazilgandan keyin, kerak bo'lsa qo'shimcha, maxsus va laborator tekshirishlar o'tkaziladi. Ayrim paytlarda vrach anamnez ma'lumotlarini to'plagandan diagnozni aniqlasa, boshqa holatlarda hayvonni to'liq, tekshirishdan o'tkazib, kasallikka diagnoz qo'yadi. Boshqa paytlarda esa umumiy tekshirish usullari bilan tekshirish natijalari asosida kasallikka diagnoz qo'yib bo'lmaydi, bunda albatta maxsus va laborator tekshirishlar o'tkazish zarur, kasal hayvonni qayta - qayta bir necha kun davomida tekshiradi va kuzatadi. Agarda hayvonning ahvoli og'ir bo'lsa, avval kasallikka chalingan a'zo tekshirilib, shoshilinch choralar ko'rilib, hayvonning ahvoli ancha yaxshilangandan keyin yuqoridagi tartib asosida tekshirishga kirishiladi. Demak alohida olingan sharoitda - hayvonning holatiga qarab, tekshirish qanday va qayerdan boshlanishini vrachning o'zi hal qiladi. Hayvonni qayd qilish - registrasiya. Har bir kasal hayvon davolash muassasiga keltirilgach, birinchi navbatda qayd qilinishi kerak. Kasal hayvonni boshqa hayvonlar orasidan tez va aniq, topib olish uchun uning o'ziga xos individual xususiyatlarini aniqlab, yozib olishga hayvonni qayd qilish yoki registrasiya deyiladi. Hayvonni qayd qilganda kerakli ma'lumotlarni hayvon egasidan yoki unga qarovchi kishidan so'rab, taqdim etilgan hujjatlarga qarab, hayvonni umumiy ko'zdan kechirib olinadi. Bu hayvonlarni qayd qilish jurnaliga kasallik tarixiga, dispanserlash kartasiga o'tkaziladi. Bunda hayvonning kasalxonaga kelgan vaqti, hayvon egasining ismi, sharifi va turar joyi, hayvonning turi, jinsi, yoshi, zoti, tusi va ayrim belgilari, laqabi yoki halqa nomeri, semizligi, xulqi, tana tuzilishi yoki konstitusiyasi, kasal bo'lgan vaqti, diagnozi, davolash natijasi va davolash muassasidan chiqqan vaqti yoziladi. Hayvonning turini aniqlash bilan qaysi kasalliklar shu turdagi hayvonlarda ko'proq uchrashini nazarda tutamiz. Masalan, ko'pincha bir tuyoqli hayvonlarda manqa va soqov (sap, мыт); qoramollarda travmatik perikardit, retikulit, xavfli kataral isitma, qorason; cho'chqalarda saramas (roja) va atrofik rinit kasalliklari uchraydi. Davolaganda dorilarni tanlashda ham ayrim turdagi hayvonlarning ayrim dorilarga o'ta sezuvchanligini e'tiborga olish kerak. Masalan, kavshovchi hayvonlar simob preparatlariga, mushuklar - fenolga juda sezuvchan bo'ladi. Zotdor hayvonlar zotsiz hayvonlarga nisbatan kasalga tez chalinuvchan bo'lib, kasallik og'ir kechadi. Masalan, zotsiz itlarda zotli itlarga nisbatan o'lat kasalligi yengil kechadi. Ayrim kasalliklar faqat erkak hayvonlarda uchrasa, boshqalari faqat urg'ochilarida uchraydi. Bo'g'ozlik erkak hayvonlarni bichish ham hayvon ko'rsatkichlariga ma'lum ta'sir qiladi. Hayvonning yoshi bilan organizm rezistentligi va ayrim kasalliklarga chalinishi bog'liq. Hayvonning gavdasi, semizligi dorilarning dozasini aniqlaganda kerak bo'ladi. Bulardan tashqari registrasiya ma'lumotlari yuridik hujjat hisoblanadi, oylik, kvartal va yillik hisobotlar tayyorlaganda, diagnoz qo'yishda ishlatiladi.

Shuning uchun kasal hayvonlarni qayd qilish ma'lumotlari aniq, tushunarli va to'liq yozilishi kerak. Anamnez (yunoncha anamnesis - eslash degan ma'noni bildiradi) - hayvonning kasalxonaga kelguncha bo'lgan hayoti va kasalligi to'g'risida uning egasidan yoki unga qarovchi kishidan so'rashdir. Shunday qilib, anamnez ma'lumotlarini to'plaganda, vrach hayvonning egasidan yoki unga qarovchi kishidan uning hayoti va kasalligi to'g'risida so'raydi, ular esa esiga keltirib savollarga javob beradi. Ya'ni anamnez vrach bilan hayvon egasi o'rtasidagi suxbatdir. Anamnez ma'lumotlarini to'plash, vrachning kasallikka diagnoz qo'yishida katta ahamiyatga ega bo'lib, ayrim kasalliklarni aniqlashda muhim hisoblanadi. Shuning uchun anamnez ma'lumotlarini to'plaganda vrach



hayvonning egasi bilan do'stona, yaxshi suhbat qurib, hayvon egasi biladigan hamma ma'lumotlarni aniqlab olishi kerak. Vrachning savollari hayvon egasi yoki unga qarovchi kishi uchun tushunarli bo'lishi kerak. Ayrim paytlarda hayvonga qarovchi kishi - molboqarning yoki buzoqboqarning aybi bilan hayvon kasallikka chalingan bo'lsa, u noto'g'ri javob berishi mumkin. Shuning uchun anamnezni to'plashda olingan ma'lumotlar tekshirish natijalari bilan takqoslanib, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi aniqlanadi. Bulardan tashqari, anamnez ma'lumotlari olinganda boshqa veterinariya xodimlari ham so'raladi, taqdim etilgan hujjatlarga qaraladi.

Hayvonni umumiy tekshirish. Hayvonni umumiy tekshirishga quyidagilar kiradi: 1. Hayvonning tashqi ko'rinishini aniqlash - Gabitus 2. Teri qoplamasini tekshirish 3. Terini tekshirish 4. Ko'zga ko'rinadigan shilliq pardalarni tekshirish 5. Limfa tugunlarini tekshirish Hayvonning tashqi ko'rinishini (Gabitus) aniqlash. Gabitus (habitus) lotincha so'zdan olingan bo'lib, tashqi ko'rinish degan ma'noni bildiradi. Demak hayvonning gabitusi deganda hayvonning tekshirilayotgan paytdagi tashqi ko'rinishi yoki holati tushuniladi.

Hayvonning tashqi ko'rinishiga qo'yidagilar kiradi: 1. Hayvonning jussasi (Teloslojeniye) 2. Tananing tashqi muhitdagi holati (Poza) 3. Semizligi (Upitannost) 4. Tana tuzilishi (Konstitutsiya) 5. Hayvonning mijozi (Temperament) Hayvonning jussasini aniqlash. Buning uchun hayvonning suyak va muskullarining rivojlanganligiga e'tibor beriladi va ko'rish usuli bilan tekshiriladi. Suyak va muskullarning rivojlanganligiga qarab, hayvonning jussasi qo'yidagicha bo'ladi. Kuchli jussali hayvonlar suyaklar va muskullarning yaxshi rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Bunday hayvonlarning boshi katta va og'ir, bo'yni kalta va yo'g'on, ko'krak qafasi keng va rivojlangan, oyoqlari kalta va yo'g'on, bo'g'inlari keng va beli tor, sag'rini keng bo'ladi. Ularning o'pkasi, yuragi va ichaklari yaxshi rivojlangan bo'lib, tashqi muhitning yomon ta'sirotlariga ancha chidamli bo'ladi. Bunday hayvonlar kasalliklarga ancha chidamli bo'lsa ham ayrim kasalliklarga (ketoz, mioglobinuriya, tug'ishdan keyingi parez va boshqa kasalliklar) tez chalinuvchan bo'ladi. O'rtacha jussali hayvonlar tana suyaklari va muskullari o'rtacha rivojlangan bo'lib, bunday hayvonlar sermahsul va kasalliklarga chidamli bo'ladi. Kuchsiz jussali hayvonlar tana suyaklari va muskullarning yomon rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Bunday hayvonlarning boshi kichkina va yengil, bo'yni ingichka va uzun, ko'krak qafasi tor, oyoqlari, beli, sag'rini uzun va ingichka bo'ladi.

Hayvonlarning orqa miyasi jarohatlansa, raxit, osteodistrofiya, revmatizm bilan kasallansa ham kuchsiz jussaga ega bo'ladi. Bunday hayvonlar kasalliklarga tez chalinib, kasallik og'ir va surunkali kechadi. Kuchsiz jussaga ega bo'lgan qoramollar ko'pincha sil kasalligiga; buzoqlar va cho'chqa bolalari raxit, pnevmoniya, salmonellyoz, paratif, diktiokaulyozi kasalliklariga; otlar surunkali o'pka emfizemasi va yurak kasalliklariga chalinadi. Kuchsiz jussali itlarda o'lat kasalligi og'ir kechib, ko'pincha hayvon o'ladi. Hayvonning semizligini aniqlash. Hayvonning semizligi teri osti yog'larining to'planishi va muskullarning rivojlanishiga qarab aniqlanadi. Hayvonning semizligiga qarab oziqlantirishning turi va sifatli ekanligi, modda almashinish darajasi aniqlanadi. Xo'jalikdagi hayvonlar to'g'ri va sifatli oziqlantirilsa, ularning semizligi yaxshi, kam va sifatsiz oziqlantirilsa semizligi yomon bo'ladi, hayvon oriq bo'ladi. Hayvonlarning semizligi qo'yidagi usullar bilan aniqlanadi: Tarozida tortib ko'rish. Hayvonlarning semizligini aniqlash uchun GOSTlar ishlab chiqilgan. Hayvon og'irligi tarozida tortilgandan keyin, GOST bo'yicha uning semizligi aniqlanadi. Zootexnik parametrlariga (o'lchamlariga) qarab - bunda hayvonning ko'krak aylanasi va tananing qiyshiq uzunligi (maklokdan yelka bo'g'ini to'pig'igacha) aniqlanib, maxsus shkala bo'yicha hayvonning tirik vazni topiladi va GOST bo'yicha semizligi aniqlanadi. Organoleptik usulda - ko'z va qo'l yordamida aniqlanadi. Bunda suyaklarning bo'rtib turishi yoki bilinmasligi (maklok do'ngligi,



kurak suyagi, qovurg'alar), qovurg'alar orasida chuqurcha borligiga e'tibor beriladi. Juni uzun va qalin hayvonlarda (qo'y, echki, it, quyon) va parrandalarda paypaslash usuli bilan semizligi aniqlanadi. Bunda teri osti yog'i va muskullarining rivojlanganligiga e'tibor beriladi. Maxsus asboblarda yordamida - cho'chqalar semizligini aniqlashda ultratovush moslamasi TUK - 2 va DON - 1 lardan foydalaniladi. Hayvonlarda semizlikning qo'yidagi turlari bo'lishi mumkin: Yaxshi yoki yuqori semizlik - bunday hayvonlar dumaloq shaklni oladi, suyak do'ngliklari bilinmaydi, qovurg'alar orasidagi, chakkadagi chuqurchalar yog' bilan to'lgan bo'ladi. Qaysi xo'jaliklarda yuqori semizlikdagi hayvonlar bo'lsa, u yerda hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlari yaxshi ekanligidan dalolat beradi. Bunday hayvonlarda assimilyasiya va dissimilyasiya jarayonlari yuqori bo'ladi.

O'rtacha semizlik - bunday hayvonlarda muskullar o'rtacha rivojlangan bo'ladi, umurtqa o'simtalari, o'tirgich to'pig'i va maklok sal bilinib turadi, teri ostida yog' o'rtacha to'plangan, terisi egiluvchan, yumshoq va harakatchan bo'ladi. Bunday semizlik mahsuldor hayvonlarga xos (sog'iladigan sigir, ishchi ot, emizdiradigan ona cho'chqalar, xizmatdagi itlar va boshqalar) bo'ladi. O'rtadan past semizlikda qovurg'alar, umurtqa pog'onasi qanotlari, bosh suyagi bo'rtiklari, maklok do'ngligi yaxshi bilinib turadi, qovurg'alar orasida chuqurchalar paydo bo'ladi. Bunday semizlik hayvonlarning saqlash va oziqlantirish sharoitlari yomon bo'lganda, kasalliklar paytida kuzatiladi. Oriqlik bunday hayvonlarning hamma suyaklari juda yaxshi bilinib turadi, chuqur joylar aniq ko'rinadi, teri ostida yog' mutlaqo bo'lmaydi. Bu yetarli oziqlantirish bo'lmasa va og'ir kasalliklar paytida kuzatiladi. Koxeksiya oriqlik kamqonlik va muskullarning atrofiyasi bilan kechsa koxeksiya deyiladi. O'rtadan past semizlik, oriqlik va koxeksiya hayvonlarni yetarli oziqlantirmaslik va surunkali kasalliklarning asosiy belgisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.B.Bakirov, P.B.Boboyev «Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari» Samarqand, 1993 yil.
2. Norboyev Q.N., Bakirov B.B., B.M.Eshbo'riyev B.M. «Hayvonlarda modda almashinuvining buzilishlari» Samarqand 1997 yil.
3. Safarov M.B. «Kirish, umumiy tekshirish usullari, hayvonlar bilan dastlabki tanishish, hayvonlarni umumiy tekshirish». Klinik diagnostika fanidan o'quv qo'llanma, Samarqand, 1992 yil.
4. Safarov M.B., Nafas olish va yurak – qon tomir sistemalarini tekshirish. Samarqand, 1993 yil.
5. Safarov M.B., Raxmonov A.O. Umumiy diagnostika klinik diagnostika fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanma. Samarqand, 2002 yil.



Eshmurodov Abbosbek 2003- yil 3 iyunda Samarqand viloyati Narpay tumanda Tug'ilgan. A Qodiriy nomidagi JDPU Tarix Fakulteti Tarix yunalishida 3 - kursda o'qiydi.

2022- yili Sciencebox.uz da bo'lib o'tgan kanferinsiyada maqola orqali ishtirok Etgan va Diplomni qo'lga kiritgan. Germaniyaning Spectrum Jurnal of Inavation jurnalida maqolani chiqqan. Kanadaning xalqaro Uzbek writers Biografiyasida Maqolasi chiqqan. O'zbekistan Respublikasidagi Yosh Olimlar kanferinsiyasida ishtirok Etgan. "O'zbekistonning o'rta asrlar tarixida Islom dinining paydo bo'lish va Arablashtirish jarayonlari" mavzusida Uslubiy qullanma chiqargan.

Allohim ne uchun yarating meni ?

Bandang shaytoniy hislar deb yondi

Dunyoni sevdimu unitdim seni

Ruyodan charchadim olib ket meni

Odamlar qirmoqda bir birin tinmay

Qabirga to'ldirdi ustini yerni

Ortiq adovatlar ichida yurmay

Bunday dunyolardan olib ket meni

Robisin tanimas zobonsiz ongsiz

Faxshga to'ldirib hisobsiz elni

Kuchada yuradi vijdotsiz orsiz

Bunday yomonlardan olib ket meni

Bandasi quymasa nomoz o'qishga



Kalima aytishga quymasa tilni
Nega majburlaydi kofir bo‘lishga
Bunday zamonlardan olib ket meni

Soqolga ruxsat yuq soqol bo‘lsa ayb
Ayollar tor shimda yulda terildi
Alloxdan gapirma demagin bir so‘z
Shunday zabonlardan olib ket meni

RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKIL ETISH

Iskandarova Dilnoza Rozimbay qizi

Qoraqolpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 68-maktab Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada aqliy rivojlanishi sust bolalar uchun tasviriy san'at darslarini tashkil etish xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ong osti, siniq chiziq, tasvirlar, sensor organlar, ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar...

KIRISH: Hozirgi kunda sanoati va intellektual salohiyati rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy musobaqa fan, texnika va texnologiyalar sohasiga, natijada ta'lim sohasidagi musobaqaga aylanib bormoqda. O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilishning dasturiy hujjatlarida - respublikada ta'lim raqobatbardosh kadrlarni ilgarilab tayyorlashni ta'minlash darajasiga etishi kerak - degan maqsad qo'yilgan. Yoshlarning yangi avlodi istiqbol masalalarni qo'yish va echish, fikr yuritishning yuksak madaniyati, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotda mustaqil yo'l topa olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, ta'lim tizimining yangilanishi va rivojlanishi jahon hamjamiyatiga integratsiya kuchayotgan sharoitda jamiyat va mamlakatning rivojlanishi o'zaro bog'langan va o'zaro asoslangan yagona jarayonning elementlaridir. Ish nuqtai nazardan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining islohoti ta'limda qotib qolgan ko'p qoidalarning o'zgartirilishini, respublikadagi ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan, ilmiy asoslangan yangi, yaxlit tizimining shakllanishini taqozo etadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar - sensor organlarning ortirilgan yoki tug'ma organik jarohatlanishi natijasida markaziy nerv sistemasi yoki harakattayanch apparati psixik funksiyalarning normal rivojlanishida kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar kiradi.

Ba'zi hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bog'liq bo'lmagan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqqan bo'ladi. Bularga oiladagi tarbiya, ijtimoiy, emotsional muhitning yomonligini kiritishimiz mumkin. Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bir qancha kategoriyalarga ajratilgan:

eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bolib qolgan bolalar);

ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);

aqli zaif-oligofren bolalar;

ogir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;

harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari boigan bolalar;

ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;

rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;

autizm sindromli bolalar.

Ushbu nuqsonlarni bartaraf etishda korreksiya va kompensatsiya ishlari olib boriladi. Korreksiya - to'g'rilash degan ma'noni bildiradi. O'squvchilarda mavjud bolgan kamchiliklar ta'lim - tarbiya asosida olib boriladi.

Har bir bolaga tasviriy faoliyat yengil, tushunarlidir, bu esa uning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Rasm chizishga doir jihozlar turlicha: qalam, bo'yoq qalam, bo'yoq, bo'r, qog'oz, hatto tayoqcha bilan ham qum ustiga rasm chizish mumkin. Yana tasvirni soxtalashtirgan hajmdan tayyorlash usullari bilan, odamlar qadimda loydan idishlar, taqinchoqlar, odam va hayvon shakllarini yasashgan.



Tasviriy faoliyatning yana bir e'tiborga molik xususiyati shundaki, u insonni mehnatga yo'naltiradi. Rasm chizish jarayonida yoki boshqa tasviriy faoliyatlarda esa nafaqat inson a'zolari balki yordamchi vositalardan - rasm uchun materiallar yoki o'lcham buyumlari, ish qurollari hamda asboblardan foydalaniladi. Masalan, loy yoki plastilinga tayoqcha yordamida kerakli shaklni berish, bo'yoqli cho'tkada bo'uash, qaychi yordamida qog'ozni qirqish. Bu material va qurollar turli murakkab ishlarga vositachilik vazifasini o'taydi, shuning uchun bolalarni tasviriy faoliyat darsida texnik malakalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zarur harakat va amallarni o'zlashtirilishi (ayniqsa umumiy va mayda harakatlar) - eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishidagi muhim vosita bo'lib, u hayotda kerak bo'ladigan onglik, ziyraklik hamda yaratuvchanlik kabi sifatlarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilarning kuzatishlaricha bola qanchalik qol bilan nozik harakat qilsa, ayniqsa barmoqlar bilan, uning nutqi va tafakkuri shuncha tez va yaxshi rivojlanar ekan. Ma'lumki tasviriy faoliyat kinestetik sezish va barmoqlarning nozik harakati ko'ruv harakat koordinatsiyasi mexanizmi bilan uzviy bog'liq. Tasviriy faoliyat mashg'uloti bolada chizish, bo'yash, kesilgan qog'oz parchalari, gazlamalardan applikatsiyalar, tayoqchalar va sim bo'laklari hamda boshqa materiallar yordamida keng va turli obrazlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bunda qo'lning mayda muskullarining aniq harakati muntazam mashq asosida rivojlanib boradi. Shu bilan birga tasviriy faoliyat mashg'uloti bolalardan intizomlilik va tashkilotchilikni, jarayonni va uni bajarish ketma-ketligini mahorat bilan rejalashtirishni talab etadi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarda kuzatish ko'nikmasi shakllanadi, ta'svirlanadigan obyektning tekshirish usullari takomillashtiriladi.

Maktabgacha yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus idrok ko'nikmalarini predmetlarni yaxlit ko'ra olish, predmetning umumiy shakli, proporsiyalari, qismlarini taqqoslay olish, fazodagi joylashuvini aniqlash, yorug'lik munosabatlarini topish va boshqa belgilarini aniqlash uchun zarur bo'lganlari xususiyatlari birligini ko'ra olish malakalarini egallaydilar.

MAVZUNING DOLZARBLIGI: Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda atrof-olamdagi predmet va hodisalar haqida aniq va yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi, predmetlarni tasvirlash ongda predmetlarning mavjud belgi, shakli, hajmi, fazodagi holati va boshqa belgilarini aniq ajratishni talab etadi.

Bolalar nafaqat ko'rganlarini aks ettiradilar, balki haqiqiy hayot hodisalari va predmetlar asosida olgan taassurotlarini rasmlarda, yasash kompozitsiyalarida, yangi aplikatsiyalarida yangi asarlarda aks ettiradilar. Bular tasavvur faoliyati yordamida amalga oshiriladi, uning asosini tasavvuri qayta ishlash va o'zgartirish malakasi tashkil etadi. Tasviriy faoliyat badiiy mashg'ulotning bir turi bo'lib, bunda bola reproduktiv faoliyat bilan shug'ullanmasdan, balki o'zi ijod qiladi.

A.A.Venger ta'kidlashicha rasm chizish - bu ijodiy mehnat bo'lib, bolani fikrlash va tahlil qilishga, o'lchab ko'rish va solishtirishga, yaratish va tasavvur qilishga o'rgatadi. Tasviriy faoliyat kichik maktab yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lganlarni aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sensor rivojlanish - bu aqliy faoliyatning poydevori bo'lib, butun maktab yillari davomida ko'rgazma-obrazli va ko'rgazma-harakatli tafakkur nafaqat bilishning tushuncha va kategorial shakli sifatida ishtirok etishi kerak, balki ular o'zaro uzviy aloqada bo'lishi lozim. Ma'lumki, buyuk olimlarning ijodida texnika va ishlab chiqarish ongning aqliy va badiiy shakllari bilan muvaffaqiyatli moslashtirilgan.

V.A.Favorskiy ta'kidlaganidek tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda ko'rgazmali-amaliy faoliyatda barcha fikrlash operatsiyalari takomillashadi. Tasvirlanadigan obyektning tekshirib, ko'rib chiqishda chizuvchi ularning detallarini ajratib, tahlil qiladi, tasviriy tekislikda ushbu detallarni qabul qilib, ma'lum fazoviy qismlarni yaxlit bo'lgan munosabatlariga qarab bir butunlikda birlashtiradi,



sintez qiladi, obyektning alohida detallarini o'zaro munosabatini yaxlitligiga nisbatan ko'rib chiqadi, u predmetning umumiy shakli va rangini ajratib fikran taqoslaydi, o'zining e'tiborini faqat shu ko'rilayotgan obyektga qaratadi, boshqa belgilarini mavxumlashtiriladi, turli predmetlarning o'xshash xususiyatlari birlashtiriladi, bola ularni tasvirlashda umumlashgan usullarni ishlab chiqadi.

Tasviriy faoliyatda ko'rish va harakat xotirasi ham yaxshi rivojlanadi, ularning o'zaro aloqasi takomillashadi, shun in g uchun tasvirlash jarayonida nafaqat qabul qilishni, balki turli chiziqchalar va har xil yo'nalishdagi chiziqchalarni o'tkazishni bilish, mo'yqalam bilan ishlash va boshqa harakatlarni egallashadi, ko'z bilan ko'rganlarini qo'l orqali aks ettirishga o'rgatiladi. Shuningdek, nimani ko'rgani qanday tasvirlaganini eslab qolishi muhim, chunki bu predmet va uni tasvirlash haqidagi tasavvurlarni xotirada saqlab qoladi, T.F.Gulbe aytib o'tganidek tasviriy faoliyat mashg'ulotlari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutq va uni eshituv - ko'ruv idrokini shakllantirish va takomillashtirish imkoniyatini beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar bo'yoqlar bilan ishlash, applikatsiyalar yasashda badiiy materiallar va jihozlarning nomlari bilan tanishadilar (Masalan: Qalam, bo'yoqlar, mo'yqalam, qog'oz, loy va mssomlarning bo'yoq taxtachasi-palitra), bolalar tasvirlangan predmetlarning nomlarini hamda bu predmetlarning ba'zi qismlarini eslab qoladi (Masalan: hayvonlarning boshi, tanasi, dumi, tishlari, barg, ildiz va boshqalar) tasviriy faoliyatga bog'liq amaliy harakatlarning nomlarini o'zlashtirib oladilar (masalan, rasm chizmoq, tasvirlamoq, yopishtirmoq, bo'yoq bilan ishlash va boshqalar) hamda fikrlash operatsiyalarini ifodalovchi so'zlar, predmet belgilari, ularga taalluqli ranglar, materiallar, holatlarni (Masalan: ko'rmoq, kuzatmoq, taqqoslamoq, umumlashtirmoq, farq lash) o'zlashtiradilar. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida u yoki bu so'zlar, tushunchalar ustida ishlash bilan birga ularda nutqning talaffiiz tomonini takomillashtirishga katta ahamiyat beriladi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshitish qobiliyatini, go'zallikni ko'rish va his qilishni, ajoyib, g'aroyib narsalarni saqlab qolish va ko'paytirish istaklarini rivojlantiradi.

Bolalar uchun tasviriy faoliyat qandaydir hayotiy, noyob, yangi va ko'pgina imkoniyatlarni o'zida qamrab olgan jarayondir. Bu faoliyatda bolalar qayta aloqaga kirishish, shakllarning tashqi ko'rinishini tasvirlash va tartibga solish, ranglarni ajrata olish, xis qilish, voqeani kuzatish hamda kompozitsiyalarni birlashtirish kabi vaziyatlarga duch keladilar. Bolalar ish faoliyatida hayotiy tajribalariga aloqador ko'pgina turli elementlar va kechinmalar aks ettiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bolalikda orttirgan tajribasi qandaydir ma'noda universal xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu vaqtning o'zida ko'pchilik biologik va ijtimoiy omillarga e'tibor berish kerak. Bolaning rivojlanishi irsiy, biologik nuqsonlarga qarab (kar yoki zaif eshituvchi), atrof-muhit, tarbiya jarayoni, madaniyat (din), ota-onalarining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga bog'liqdir. Bolalarda tasviriy faoliyat jarayoniga yana quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

Bular, bola ijod qilayotgan sharoit, bolaning shaxsiy xususiyatlari, iste'dodi, motivatsiyasi, badiiy ijodiyotga qiziqishi, ish materiallari, bola bilan o'zaro munosabat jarayonida kattalarga bo'lgan ishonchi, xavfsizlik munosabatlarida ishonch tuyg'usi va boshqalar. Kattalar bolalarni tushunishi esa ulardagi ijod mahsulotlarini ijobiy tomonga o'zgartiradi, bolalar qiyinchilikka duch kelganlarida kattalar yordam beradilar, bolalarning nozikligini his etgan holda bola ijodining boshlanishini qo'lab-quvatlashga tayyor turadilar. Tasviriy faoliyati bolalarning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan bola uchun korreksion rivojlanishning ahamiyati katta.

Bu esa kichik maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining hamma imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini aniqlaydi.

Tasviriy faoliyatning asosiy vazifalaridan biri eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini rivojlantirishdir. Surdopedagog bolalarga atrof olamni,



predmetni uning mohiyatini idrok qilishga o'rgatadi. Tasviriy faoliyatda idrok qilingan materialni oldin og'zaki nutq orqali bayon etishlarini so'raladi, so'ngra chizish orqali qanchalik to'g'ri idrok qilganliklari bo'lishi mumkin.

Bolalarning rivojlanishida tafakkuring faol ishtirokisiz, idroki, tasawuri va boshqa bilish jarayonlari rivojlanmaydi. Bolalar tasviriy faoliyatda bir qator intellektual operatsiyalami bajarishga majbur.

Idrok etilgan obyektни fikrlash, chizmani ketma-ketlik bilan bajarish, obyekt bilan chizmani (rasmni) taqqoslash, rasm qismlarini solishtirish. Vazifani to'g'ri bajarish uchun bir qator aqliy harakatlar bajariladi analiz, sintez, rejalashtirish, solishtirish va boshqalar. Bolalar taqqoslash jarayonida tayyor bo'lgan obyektning umumiy hajmiga va rangiga ahamiyat berishadi.

XULOSA: Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini to'plash, tarbiyalashda turli tuman ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy natijalami beradi. Predmet va hodisalarni idrok etishda bolalar predmetni boshqasiga

ko'ra kattaligini yoki kichikligini bilishlari kerak. Atrofdagi predmet va hodisalarni idrok etishda bolalar qog'ozning o'ng, chap, yuqori va pastki tomonlarini bilishlari kerak. Bolalar qog'ozda real muhitni aks ettirishni tasavvur eta olishlari kerak. Eshitishida nuqsoni boigan bolalar qog'ozdan to'g'ri foydalanish malakasi shakllangan bo'lsa, bolalar predmetlar joylashuvini to'g'ri aks ettiradilar. Bolalar predmetni kuzatish jarayonida tasavvurga ega boiadilar, eslab qolishga, formasini katta-kichikligini, rangini, fazodagi joylashuvini, tasavvurga asta-sekin mashg'ulot davomida ega bo'ladilar.

Bolalar kattalarning qo'llari bilan bajarilgan predmetlarni idrok qilib va chizish orqali tasvirlab ko'rsatib bera olishga o'rgatish juda zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan birgalikda predmetni qo'l sezgisi orqali kuzatiladi, bunda bolalar predmet haqida alohida tasavvurga ega boiadilar. Qo'l bilan ushlab ko'rib kuzatish bolalarda qiziqish va yengillik tug'diradi. Bolalar kontumi qo'l bilan kuzatayotganlarida qoi harakati bilan birgalikda ko'ruv analizatori ham ishtirok etadi. Bunday kuzatish o'quvchilarning idrokini rivojlantirish bilan birga ko'ruv harakat, sezish protsesslari rivojlanadi va grafik obrazlarga ega boiadilar. Tasviriy faoliyatda boladan o'z qobiliyatini har taraflama ko'rsatishga harakat qilishini talab etiladi. Biror bir predmetni chizishdan oldin, uni yaxshilab kuzatib, ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari formasini, tuzilishini, rangini fazoviy joylashuvini aniqlanadi. Chizishdan oldin obyektни diqqat bilan kuzatib o'xshash tomonlarini ko'rsatib berishlarini so'raladi. Bolalarni maqsadli rasm chizishga yo'naltirganda o'xshash katta-kichik, har xil, predmetni bolaklarini, oldingi chizgan rasmlariga solishtirganda nisbatan yaxshiroq chiza boshlaydilar. Rasm chizishda bolalarda analiz, sintez, fikrlash funksiyalarining rivojlanishiga imkoniyat tug'diriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Yu.Yusupova, M.U.Hamidova, N.Q.Abidova, M.Yu.Pardayeva: Tasviriy san'at va qo'l mehnatiga o'qitish maxsus metodikasi: Toshkent - «Fan va texnologiya» - 2018 y. 2. Qo'ziev T., Egamov A., Qanoatov T., Nurqobilov A., «Rangtasvir». «San'at». T., 2003 y.

Nabiev M. «Rangshunoslik». T.: O'qituvchi, 1996 y.

Nabiev M., Azimova B. «Rasm chizishga o'rgatish metodikasi». T.: O'qituvchi, 1976 y.

I.Gadoyev. «Talabanning fazoviy tasavvurini va mantiqiy fikrlashni takomillashtirish» Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali Hindiston. Infofaktor jurnal 2020 yil 12 dekabr, 10 jildi

I.Gadoyev. «Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tasviriy san'at to'garaklarida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish bilan qo'llash usullari» Ko'p o'lchovli osiyo tadqiqot jurnali AJMR Eron 2021 yil 5 May,



7 .S. Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarini ibajarish. T ., 1996 y.

S. Abdirasilov. Tasviriy san'at atamalari. T ., 2003 y.

S. Abdirasilov, N. Tolipov. Rangtasvir. T ., «Bilim », 2005 y.

B. Boymetov, S. Abdirasilov. Chizmatasvir. T ., G ' . G'ulom nomidagi nashriyot, 2004 y.



Ozoda Shamanova Sherzodovna 2002-vilda tug'ilgan. Samargand viloyati Paxtachi tumanida tug'ilgan. Berdaq nomidagi Qoragalpog davlat Universiteti talabasi.

KECHIKISH (hikoya)

Tong otdi....Ko'zimni ochganimdan har doim birinchi bo'lib ko'rinadigan kitob javonim, stol ustida turgan "uyg'otgich"soat,devorga osig'lig turgan suratlar....hammasi joyida.Ammo...ammo birgina ertalabdan boshimni silab,bolajonim,turaqol ishga kech qolma tag'in, deb mehr-la uyg'otadigan mushtipar onajonim kamlik qiladi.Qo'msayman:onamning issiq nonlarini,men eng yoqtiradigan taomim shirguruch-u palovlarini, tunlari aytgan allalarini....barchasini orziqib qo'msayman!.. Tez tez ko'zlarimga yosh olib,onam haqida she'rlar bitib,unga xatlar yozaman. Lekin shunda ham bu yurak taskin topmaydi.Xatjildlar ortiga "Saida Nurullaevnaga"deb yozaman,lekin manzillar noma'lum....Bilmadim,pochta xizmatchilari qanday yetkazishar ekan?...Axir mandolin yozmaganmanku... Afsus qilaman.....Hammasiga o'zim aybdorman. Rossiyaga ketishimdan oldin,bolam,tobim yo'q,nuqul seni ko'rgim kelsa,sen bo'lsang uzoqlarga ketyabsan, degandi. Shunga qaramay, bu sovuq o'lkalarga bu sovuq qalbim ketguchi bo'ldi.U yerda ishlab, pul yig'a boshladim.Uyga ketish fikri meni butunlay tark etgan edi. Yaxshiyamki,hozir internet rivojlangan,turgan yeringizdan xohlagan joydagi insoningiz bilan telefon orqali ko'rib ham gaplashish mumkin.Shuni o'ylab onamga telefon olib bergandim. Yaxshi tushunmagani uchun qo'shnimiz, jo'ram Sardor gaplashtirar edi. Endi nuqul ish vaqti ham qo'ng'iroq qilaverganidan telefonimni o'chirib go'yadigan bo'ldim.Shunda ham bu ko'ngil onani emas,pulni o'ylagan ekan. Sardor bir kuni telefon qilib, xol ahvol so'rashimni aytdi.Men esa,bir ikki so'm topay,jo'ra so'ng borarman, dedim. Uqizishdi.Mana,men yashab yuribman-ku,o'zbekistonda,dedi.Onang seni juda sog'ingan,pul doim topiladigan oddiy qog'ozku,deb go'shakni jahl bilan qo'yib qo'ydi. Ko'p o'ylab,yurtga qaytasi bo'ldim.Kelganimda o'zgarishlar katta,har xil baland-baland binolar va.....oilalar qurilgan edi. Maktab ham kollejda birga o'qib,qattiq ko'ngil go'yganim Zarina ko'rinmasdi, negadir..? Uni juda sevardim!Uylanishimni takror-takror aytardim,o'ziga..Bilsam,Zarina boshqasiga turmushga chiqibdi. Nima ham derdim,mayli, baxtlibo'lsin!..

Lekin hammasini unutish uchun ketishim kerak

edi.Onam men bilan birga bo'lsin deb, Rossiyaga ikkita bilet oldim.Kerakli huijatlarni to'g'rilab bo'lsam onam ketishimga ko'nmay goldi. Shunga

qaramay,alamlarim,dardlarim bilan bu yerda yashay olmasligimni o'ylab onamsiz,o'zim jo'nadim. Onam esa ortimdan yig'lab qoldi.



"Bolam, meni yolg'iz qo'ymagin, nechi kunligim qoldi yana...", deb, bot-bot takrorlardir. Lekin bu safar ham yonlarida qolmadim. Uch oycha vaqt o'tib, Sardor onamni o'z uyiga olib kelganini, ayoli onamga e'tiborli bo'layotganini aytib, ko'nglimni ko'targan edi. Jo'ramning ayoli farosatli, mehribon ayol edi. Onamga oxirgi damlarigacha hatto yonida bo'lgan. Bularni men onam menga yozgan, ammo

yuborishga ulgurmagan maktubida, mana, o'qib o'tiribman endi.. Bir kuni odatdagidek onam qo'ng'iroq qilayapdi. o'tardimu birinchi bo'lib aytgan gapim, ona, dam olsangiz bo'maydimi, hadeb telefon qilgancha, degandimdan so'ng sukutdagi inson onam emas, Sardorligini bildim. Jo'ram biroz garangsiragach, avval mendan uzr so'radi hammasi uchun va keyin dadillashib urisha ketdi: Hamma ayb senda, qanday o'gilsan o'zi, mehr bormi o'zi senda, deb o'shqira ketdi. Yaxshigina so'kishdan ham oldim. Shu alfoz gapirib bo'lib, yig'lab yubordi va Saida onamiz endi yo'qlar, jo'ra, degani esimda... Keyin nima bo'lganini bilmayman. Dunyo ko'zimga nursiz ko'rinardi ..Nima deyarimni ham, nima qilarimni ham bilmasdim. Osmonlarga qarab baqirdim: ".....ona-a-a-a!" Bu so'z bo'g'zimda otilaverdi otilaverdi. Ammo, ha, bolam, nima bo'ldi, biror joying og'riyabdimi, deb meni

bag'riga bosmadi endi hech kim... Onam aytgan "besh kunlik umri" da yonida bo'la olmadim. Onamdan menga yetib kelmagan maktubni o'qish uchun o'zim yetib keldim. O'qidim-u, ichim yig'i bilan to'ldi. Xatomni angladim. Hamma narsa topilar ekan, ammo ona.. Men ham hozir onam uchun maktub yozdim. Onamga yetib bormasligini yaxshi bilaman. Shuning uchun doim onam uchun duo qilaman. Gunohlarimni shu bilan yuvaman go'yo. Maktubim yetib bormasada duolarim albatta yetib borishiga ishongim keladi.

BOLALARDA NUTQ NUQSONLARINI BARTARAF ETISH

Ahmadjonova Sevara Sodiqjon qizi

Farg'ona shahar 9-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya: Bolalarning kichik maktab yoshi - 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan boshlang'ich sinflarda o'qish. Bolalar bog'chasi yoshidagi bolalik davri tugadi. Maktabga kelgunga qadar bola jismoniy va ruhiy jihatdan ta'lim olishga, boshqacha aytganda, hayotining eng muhim davri, ya'ni maktab davri tomoniga qo'yiladigan turli talablarni bajarishga quyidagi qoidalarga muvofiq tayyor bo'ladi. 7 yosh bolaning lug'at xonasi ham yetarlicha boy va mavhum tushunchalarining miqdori ancha yuqori. Bola eshitganini tushunadi, etarlicha keng. Mutaxassislarining tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, to'g'ri tashkil etilgan ta'lim 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning tafakkurini rivojlantiradi. Ular oddiy mashqlar va masalalarni tuzib, ovqatlana oladilar.

Kalit so'zlar: talaffuz, aloqa, tuzatish, o'qitish, nutq terapevti, rivojlanish, nutq, nuqson, psixologiya.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim sohasida katta islohotlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim muassasasining alohida vazirlik sifatida tashkil etilgani yosh avlod tarbiyasining eng quyi saviyasiga qanchalik e'tibor qaratilayotganining yorqin misolidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 10-maydagi PQ-2707-sonli PQ-4312/3106-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-maydagi "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-2707-son Qarori PF-5198-son qarori 30-sentabr "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF4947-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya "Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bolalar jamg'armasi vakolatxonasi texnik ko'magida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining "Birinchi qadam" UNICEF O'zbekistondagi, bu mavzu bilan bevosita bog'liq. o'quv dasturi yuqoridagi so'zlarga misol bo'la oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismonan va aqlan kamol toptirish, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, istiqlol g'oyalari sodiq voyaga yetishini ta'minlash, ularni har tomonlama tarbiyalashdan iborat.

Bola 2 yoshga to'lganda, u tovushlarni farqlay olishi kerak. Ko'p hollarda bolalar so'z va tovushlarni talaffuz qila olmaydi. U hali yosh, hali erta, hali vaqt bor, talaffuz qiladi, deb o'ylaymiz. Natijada, bolaning 8 yoshida ham tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmasligini ko'ramiz. Ma'lumki, nutq aloqa vositasidir. Bu odamlarga xos bo'lgan eng mukammal muloqot shaklidir. Nutq muloqoti jarayonida kishilar fikr almashadilar. Nutq odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi muhim aloqa vositasidir. Nutqimiz orqali biz o'z fikrlarimizni notanishlarga bildira olamiz. Jamiyatda odamlar nutq orqali o'zlarini ifoda etadilar. Bolalar tengdoshlariga qo'shiladi, o'ynaydi, gapiradi va tushuntiradi. Natijada ular ajoyib kayfiyatda o'ynashadi. Odamlarning nutqi qanchalik go'zal, ravon va ta'sirchan bo'lsa, unga shunchalik e'tibor qaratiladi. Bu baland cho'qqilarning ko'tarilishi va zabt etilishi bilan ham bog'liq. Nutqning buzilishi bolalarning so'zlardagi



tovushlarni talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch kelishidir. Bu ularning nutqini tushunishda muammo bo'ladi. Lekin ular yaxshi rivojlangan nutq qobiliyatlariga ega. Ya'ni ular so'zlarni to'g'ri eshitadilar va to'g'ri yozadilar. U shunchaki to'g'ri talaffuz qila olmaydi. Agar bolada nutqning rivojlanishidagi kechikish o'tmasa, bu nutqning buzilishiga olib keladi. Bolada nutqning kech rivojlanishi turli sabablar natijasida yuzaga keladi. Homiladorlik davrida turli kasalliklarni boshdan kechirish, turli infeksiyalar, ba'zi dori-darmonlar va radiatsiya ta'siri. Tug'ruq paytida akusherlik patologiyalari, tug'ruq vaqtida miya shikastlanishi, asfiksiya natijasida bolaning ko'k tug'ilishi, 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan tug'ruqdan keyingi davr turli jarohatlar, infeksiyalar, yuqumli kasalliklar tufayli yuzaga keladi.

Shuni ta'kidlashimiz mumkinki, 1 yoshda bola tovushlar, imo-ishoralar va so'zlar yordamida muloqot qilishga harakat qilishi kerak. Xususan, u o'ziga kerakli narsalarda faol bo'lishi kerak va u 2 yoshga to'lgunga qadar 50 dan ortiq so'zlarni bilishi kerak. Agar u 2 yoki 3 ta oddiy so'zni bog'lay olsa va uning ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan so'zlarni qo'llashni boshlasa, bu uning yoshiga mos rivojlanish bo'ladi, masalan: e'tibor bering, to'p qo'ying, uka o'ynang va hokazo.. Nutqni rivojlantirish bevosita. eshitish bilan bog'liq. Agar bolaning eshitish qobiliyati yaxshi bo'lmasa, u tovushlarni ajrata olmaydi. Bola kattalar nutqini tinglaydi, unga taqlid qiladi va mustaqil gapira boshlaydi. Eshitish yordamida bola o'z nutqini boshqaradi va nutqini boshqalarning nutqi bilan solishtirish imkoniyatiga ega. Bu oiladagi muhitga ham bog'liq. Beshikdagi bolaga Alloh deyish kerak; 5-6 oydan keyin turli xil o'yinlarni o'ynash kerak; 6-8 oydan keyin bolaga she'rlar, ertaklar o'qish, kitoblardagi rasmlarni ko'rsatish, og'zaki nutqda uning ismini aytish kerak. Bugungi kunda ko'plab oilalar o'z ona tilini yaxshi bilmay, farzandlarini boshqa chet tiliga ixtisoslashgan joyga olib ketishadi. Bola hali ham ona tilida to'liq gapira olmaydi, uzun jumlar tuza olmaydi, so'z boyligi kamligiga qaramay, ikkinchi tilni o'rgana boshlaydi. Natijada, bola azoblanadi. Qaysi tilda gapirishni bilmaydi, lug'atdan o'ziga kerakli so'zni topa olmaydi, gaplar tuzish qiyin, bola stressga tushadi. Keyin u hech kim bilan muloqot qila olmaydi. Artikulyatsiya apparati harakat qilmasligi tufayli nutq qiyinlashadi.

Hozirgi kunda eng ko'p uchraydigan holatlardan biri bu bolaning ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanishi. Bola zerikmasligi uchun uning qo'lga telefon, oldiga esa kompyuter qo'yiladi. Asta-sekin qiziqish natijasida unga bog'lanib qoladi. U atrofida sodir bo'layotgan jarayonlarga befarq bo'lib qoladi. Ichki nutq, ichki fikr rivojlanadi. Odamlar faqat ijtimoiy tarmoqlarda nutqni eshitadi va ko'radi, lekin amalda emas. Bola nutqini rivojlantirish uchun ko'proq gapirish va nutq terapiyasi mashqlarini o'tkazish kerak. Genetik moyillik natijasida nutq kech rivojlanadi. Ya'ni, uning avlodida nutqi tengdoshlariga nisbatan kech rivojlanadi. Ko'pgina otionalarning bandligi va e'tiborsizligi tufayli ular bolani o'yinchoqlar orasida qoldiradilar. U o'zi o'yinchoqlar bilan o'ynaydi. Natijada bolaning nutqi rivojlanmaydi. Shuningdek, bolalar nutqi zaruratsizlik, pedagogik beparvolik, stress va salbiy psixologik holat, zararli odatlar, bolada negativizm, aqliy rivojlanish muammolari mavjud bo'lganda kech rivojlanadi. Nutq etishmovchiligi o'z-o'zidan yo'qolmaydi, lekin vaqt o'tishi bilan kuchayadi. Nutqda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun nutq terapevti juda zarur. Og'ir nutq nuqsonlari nafaqat nutq va muloqotga, balki umumiy rivojlanishga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etish maqsadida to'g'ri nafas olish va to'g'ri nafas chiqarish kabi mashqlar, artikulyar apparatni rivojlantiruvchi mashqlar, turli logomassajlar: bo'shashtiruvchi va tetiklantiruvchi massajlar o'tkaziladi.. Agar ma'lum bir tovushni talaffuz qilishda qiynalayotgan bo'lsangiz, buni qilish foydalidir. unga taqlid qilib o'rgating. Bolalar uchun didaktik o'yinlar, tez so'zlar, maqollar, she'rlar, topishmoqlar ham nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Biz bolalarga juda e'tiborlimiz. Agar nutqda kechikish, tovushlarni talaffuz qilishda qiyinchilik yoki qoqinish jarayonlarini sezsak, darhol mutaxassislariga murojaat qilishimiz kerak.



Qanchalik erta amalga oshirilsa, qanchalik erta tashxis qo'yilsa va davolash boshlanadi, natija shunchalik yaxshi bo'ladi.

Har bir nutq terapevti yoki mutaxassisi, o'z farzandlarining tabiatiga shunday sayohat uyushtirish orqali bolaning tabiatga qiziqishini, ijodkorligini oshiradi, kayfiyatini ko'taradi, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni tuzatadi. Bunday qiziqarli mashg'ulotlar orqali bola psixologiyasiga ta'sir o'tkazish va nutq terapevti tomonidan berilgan mashqlarni takrorlash orqali ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Ularni nafaqat tabiat bag'riga olib chiqish, balki bolalarni o'ziga jalb qiluvchi, ular o'rtasida raqobatni kuchaytiruvchi har qanday o'yinlar bolalar mashg'ulotlarni to'liq o'zlashtirib, mutaxassis kutgan natijaga tezroq erisha oladi. Maqsadimiz bolalarning ma'naviy dam olishi, nutqi ravon bo'lishi, matematikani yaxshi o'zlashtirishi. Ushbu usuldan foydalanishning afzalligi shundaki, maktabgacha yoshdagi bolalar qiziquvchan va faol. Quyoshda dam oladi, tabiatning mayin havosidan nafas oladi. Kislorod bolaning miyasiga to'liq etib borishi sababli, qabul qilish darajasi yuqori bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini maktab yoshiga qadar tuzatish, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini to'g'rilash, bolalar nutqi va nozik motorikasini rivojlantirish, diqqatini yaxshilash, nafas olish tizimidagi nuqsonlarni bartaraf etish orqali nutqini to'g'rilash, jismoniy faollikni oshirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining ravon rivojlanishiga faqat maxsus tashkil etilgan o'quv tizimi asosida erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Abdurahmanova, M. (2021). LEGAL FUNDAMENTALS OF LAND RESOURCES OF USANCE TO ACHIEVE ECONOMIC EFFICIENCY. Экономика и финансы (Узбекистан), (Спецвыпуск 4), 187-189.
- Atadjanova, M. A. (2016). Animatic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. Молодий вчений, (1), 290-294.
- Ergashevna, S. N. (2021, November). Traditions of khorezm caliphate and their peculiarities. In Archive of Conferences (pp. 120-123).
- Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mulahtmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.
- Israilova, S. (2022). Ranglarning etnolingvistik va milliy-madaniy xususiyatlari. Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent Davlat o'zbek Tili Va Adabiyoti Universiteti.
- Israilova, S. (2023). TARIXIY MANBALARDA RANGLAR TALQINI. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI.
- Otajanova, M. (2021). A UNIQUE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE ETHNOCULTURAL VALUES OF THE TURKIC PEOPLES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(06), 108-115.
- Tursunaliyevna, A. M. (2021, August). OCCASIONALISM AND THEIR ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 19-23).



ОТАЖОНОВА, М. (2017). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЭВОЛЮЦИЯ МИФОЛОГИЧЕСКИХ СЮЖЕТОВ В УЗБЕКСКИХ ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. Научное обозрение Саяно-Алтая, (2), 85-88.

Сабирова, Н. Э. (2022). ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВА БАХШИ ХОРЕЗМА. Universum: филология и искусствоведение, (4 (94)), 36-40.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLAR VA OTA ONALAR HAMKORLIGI

Farg'ona viloyati Rishton tumani 37- DMTT direktori Hamdamova Nargiza Muhammadjon qizi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida oila va maktabgacha tashkilotining tutgan o'ri, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning ahamiyatli jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh davri, ijtimoiylashuv, oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu inson hayotidagi o'ziga xos davr bo'lib, unda sog'lik shakllanadi, bola shaxsiyatining rivojlanishi amalga oshiriladi. Bu yoshda bolaning har tomonlama yetuk va sog'lom bo'lib rivojlanishi atrofda kattalarga - ota-onalarga va tarbiyachi-pedagoglarga bog'liqdir. Atrofdagi jamiyatda bolaning rivojlanishi uchun yaratiladigan shart-sharoitlar, ya'ni bola ijtimoiylashuvini muvaffaqiyatli amalga oshirish uning kelgusida o'zi yashayotgan jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy rol bajarishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolani ijtimoiylashtirish - bu bolaning o'ziga va uning atrofida dunyoga munosabatini shakllantirish, ya'ni bolaning jamiyat an'anasiga ma'naviy-axloqiy moslashuvi, bolaning o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish va amalga oshirishning maqsadli jarayonidir.

Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati shuki, bola jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. U bularni faqat o'zlashtirib boradi. Shuning uchun bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarining ta'siri katta bo'lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir.

Bizga yaxshi ma'lumki, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti bola ijtimoiylashuvining boshlang'ich ijtimoiy ta'lim muassasasi sifatida ijtimoiy-pedagogik, madaniy-ma'rifiy muhitning to'liqligi va yaxlitligini ta'minlashga qodir. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oilada bola mehr-muhabbatni his qiladi, o'zaro hurmat, milliy an'analar, ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyani o'zlashtiradi. Oila bola uchun ijtimoiy normalar, xulq-atvor qoidalari va qadriyatlar haqida birlamchi g'oyalarni qabul qiladigan joydir. Muayyan yoshga qadar u bu ko'nikma va bilimlarni olishning yagona manbai bo'lib, bola shaxsining asosiy ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Bolalarning axloqiy tarbiyasi rostgo'ylik, halollik, hamdardlik, sezgirlik, o'zaro yordamga tayyorlik, intizom, xushmuomalalik, o'zini tuta bilish va kamtarlik kabi hayotiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolani ijtimoiylashtirishning muhim maskani - bu maktabgacha ta'lim tashkiloti. Bu yerda bola boshqa odamlar, kattalar bilan muloqot qilishning birinchi tajribasini oladi, tengdoshlar guruhi bilan muloqot qilishni o'rganadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida har bir tarbiyalanuvchi uchun ijtimoiy farovon muhit yaratish asosiy vazifalardan biridir. Asosiy maqsadlardan biri bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga hissa qo'shishdir. Maktabgacha ta'lim muassasasining bola ijtimoiylashuviga bog'liq vazifalaridan biri bu - ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda ijtimoiylashuv asoslarini rivojlantirish, kattalar va tengdoshlar bilan bo'ladigan munosabatlarning umumiy qabul qilingan normalari



va qoidalarini o‘zlashtirishga ko‘maklashish, fuqarolik, vatanparvarlik hislarini shakllantirishdir.

Bundan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim muassasasida bolada ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish, quyidagi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan:

- maktabgacha yoshdagi bolalarga xulq-atvor normalari haqida o'rgatish;
- bolani jamiyat, odamlar dunyosi bilan tanishtirish;
- bola shaxsini ijtimoiylashtirishga ko‘maklashish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning ijtimoiy rivojlanishi bo'yicha pedagogik ko'rsatmalar quyidagilar:

-birinchidan, tarbiyachi bolada o'zini o'zi his qilishni, qadr-qimmat, o'ziga ishonch tuyg'ularini rivojlantiradi;

-ikkinchidan, bolaning atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan ijobiy munosabatini rag'batlantiradi;

-uchinchidan, bolaning ijtimoiy qobiliyatlari va shakllarini tarbiyalaydi, natijada bolada ijtimoiy kompetentsiya hosil bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanadigan asosiy ijtimoiy ko'nikmalar:

- odob-axloq qoidalariga amal qilish qobiliyati;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qila olish;
- boshqalar bilan hamkorlik qilish va o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati;
- umumiy qoidalar, kelishuvlarga rioya qilish qobiliyati;
- nizolarni hal qilishning ijobiy usullarini qo'llash qobiliyati.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarni ijtimoiylashtirishning ikkita muhim institutidir. Ularning ta'lim funktsiyalari har xil, ammo bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun ularning o'zaro ta'siri talab qilinadi. Tarbiyachi-pedagoglar va ota-onalarning vazifasi bolaning zamonaviy dunyoga kirishiga yordam berishdir. Bu ikki institut o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarning yangi shakllariga faqat maktabgacha ta'lim tashkilotining ochiqligi doirasida o'tish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolaningto'liq ijtimoiylashuvining muhim sharti ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilishdir.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligining bosqichlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

-1-bosqich. "Ota-onalarga bolaning ijobiy qiyofasini ko'rsatish". Tarbiyachi faqatgina bolaning kamchiliklari ustidan shikoyat qilavermasdan, balki uning ijobiy fazilatlarini haqida ota-onalarni ko'proq xabardor qilishi (hattoki, bu bolaning kichik yutuqlari bo'lsa ham);

-2-bosqich. "Oilada bola haqida ololmagan bilimlarni ota-onalarga yetkazish". Tarbiyachi maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning muvaffaqiyati va rivojlanishining xususiyatlari, uning boshqa bolalar bilan muloqot qilish xususiyatlari, ta'lim faoliyati natijalari va boshqalar haqida xabar beradi;

-3-bosqich. "Tarbiyachini oilaning bola tarbiyasidagi muammolari bilan tanishtirish". Ushbu bosqichda faol rol ota-onalarga tegishli bo'lib, tarbiyachi



bunda bolaning oilaviy sharoitini, bolaning oiladagi xatti-harakatlaridan xabardor qilinadi;

-4-bosqich. "Birgalikdagi faoliyat va bola shaxsiyatini shakllantirish". Faqat bu bosqichda oldingi bosqichlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ota-onalar ishonchli munosabatlarni o'rnatgan olgan tarbiyachi ota-onalarga ehtiyotkorlik bilan maslahat bera boshlaydi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari tomonidan ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ishida oilada va bolalar jamoasida shaxsni rivojlantirishga umumiy yondashuvlarni ta'minlaydigan yagona faol rivojlanish muhitini yaratish yo'nalishiga rioya qilish kerak.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning ijtimoiylashuvining ikkita muhim instituti ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Ularning ta'lim funksiyalari har xil, ammo maktabgacha yoshdagi bolaning to'liq va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga erishish uchun ularning o'zaro ta'siri zarur. Agar maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning jamiyatga integratsiyalashuviga hissa qo'shsa, u holda oila bola rivojlanishini individuallashtirishni ta'minlashga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1998. - 23-bet.

2. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mullahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. *Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности*, (3), 187-195.

3. Xolmanova, Z. (2020). *Kompyuter lingvistikasi*. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.

4. Turdievna, K. Z., & Tursunalievna, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 2(5), 63-67.

5. Zulkhumor, K. (2021). Semantics and lingu-culturological features of old uzbek lexemans. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 488-497.

6. Turdiyevna, K. Z., & Ruzimovna, K. G. (2021). The role of zoonyms in the expression of axiological content. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1430-1434.

7. Ergashevna, S. N. (2021, November). Traditions of khorezm caliphate and their peculiarities. In *Archive of Conferences* (pp. 120-123).

8. Otajanova, M. (2022). Mythologism in modern Uzbek prose. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 6, 56-65.

9. Tursunaliyevna, A. M. (2021, August). OCCASIONALISM AND THEIR ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 19-23).

10. Otajanova, M. O. (2016). NEW APPROACH TO THE TRADITIONS. *Theoretical & Applied Science*, (11), 8-12.



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA RANG-TASVIR BILAN ISHLASH TEXNIKASI

Jumashev Talg'at Tursinbayevich
Qoraqolpog'iston Respublikasi Beruniy tumani
17-maktab Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

***Annotasiya.** Ushbu ilmiy maqolada grizyal bilan ishlash texnikasi, ya'ni rangtasvir mashg'ulotlaridagi birinchi bosqich - bu kartinadagi tuslar nisbatini aniqlash va ishlov berish, ya'ni berilgan vazifani "grizayl" texnikasida bajarish tog'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, rangtasvir, perspektiva, grizayl, portret, natyurmort, manzara.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida, "...talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan, kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish" -masalalari dolzarb masala sifatida qo'yilgan.

Qadim zamonlardan odamlar davlatchilik paydo bo'lgandan boshlab moddiy va ma'naviy boylikka ega bo'lishga harakat qilib kelishadi. Buning uchun bir-birlari bilan urushadilar davlatlariga bosqin uyushtiradilar va shu asnoda begonalar mol-mulkiga ega chiqadilar. Mana shunday mulklar orasida tasviriy san'at asarlari ham mavjud bo'lib ular tarixga va go'zallikka guvohdirlar. Dunyoni go'zallik qutqaradi degan jumla bor, bu go'zallik meni o'ylashimcha rangtasvir asarlari ortida yashiringandek va unga yo'l esa qalamtasvirdan keyingi bosqichda turuvchi "Grizayl" orqali boriladi. Grizayl rangtasvirga kiradigan eshik hisoblanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tusni aniqlashda yo'l qo'yilgan xato noto'g'ri rang berishga olib keladi, shuning uchun tusni to'g'ri idrok qilish rassom uchun juda muhim. Shundan ham ko'rinib turibdiki rang va tus o'zaro bir-biriga bog'liq tushunchalardir. Bo'lg'usi rassomlar uchun yana shuni bilib qo'yish foydaliki, yorug' kunda mashq qilgan ko'z, rangning 180 tusini, to'qligining 10 pog'onasini farqlay oladi.

Tafakkuri kamol topgan inson ko'zi rang tuslardan taxminan 360 tasini farqlay oladi.

Ranglar axromatik va xromatik ranglarga bo'linadi. Axromatik (oq va qora) ranglar faqat o'zaro tus nisbatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Xromatik ranglar deganda barcha rangli bo'yoqlar tushuniladi. Bu ranglarning yorqinligi axromatik rang bo'lgan kulrangdan boshqachaligi bilan farqlanadi. Agar bir xromatik rangga kulrang qo'shilsa, u xira tortib, och-to'qligi o'zgaradi. Ranglar iliq yoki sovuq ranglar bo'lishi mumkin. Shuningdek natyurmort ishlash jarayonida yana qarama-qarshi ranglarga ham duch kelamiz.

Har qanday axromatik rang to'q ranglar orasida ocharib ko'rinsa, och ranglar orasida esa to'qlashib ko'rinadi. Bu tus kontrastlari deyiladi. Yonidagi rang ta'sirida rang tusi o'zgarishi, rang kontrasti deyiladi. Xromatik rangning yorqinligi



axromatik rang bo'lgan kulrangdan boshqachaligi bilan farqlanadi. Yorqinlik xromatik va axromatik ranglarga tegishli sifatdir. Uni oqishlik bilan adashtirmaslik kerak (narsalar, buyumlarning rang sifatleri).

Odatda musavvirlar yorqin bo'yoqlar nisbatini tuslar nisbati deb atashadi. Asarda aks etgan yorqinlik bilan rang tuslarini, yorug - soya bilan ranglar tizimini adashtirmaslik kerak. Tasvir yorqin tuslarda chizilgan deganda avvalo yorqin bo'yoqlar nisbati ko'zda tutiladi.

Axromatik ranglar: ya'ni oq, kulrang va qora ranglar faqat yorqinlik bilan tavsiflanadi. Yorqinlik bo'yicha farqlar ba'zi ranglarning ochroq, ba'zilarining esa to'qroqligidir. Buyum shakli sirtidagi ranglarning har xil nozik turlanishi, tus o'zgarishlari natijasida ularning hajmini kuzatamiz, bizdan qanday darajadagi uzoqlikda joylashganligini his qilamiz va masofa perspektiva haqidagi tushunchaga ega bo'lamiz. Buyumlardagi tuslarni ko'rish va ajratish ranglarni aniqlashga qaraganda ancha qiyinroq, tuslarni yaxshi ajratishga o'rgangan rassom xilma - xil ranglar, ularning och-to'qlik darajada turlanishini ko'ra olish, his qilishda qiynalmaydi.

TADQIQOT NATIJALARI

Shubxasiz, realistik rangtasvirda tus hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega. Tuslarni o'rganish uchun boshlovchi rassom, avvalo bir xil ranglar (grizayl)da ranglavhalar bajarishni mashq qilishi kerak. Ranglavha (fransuzcha etude - o'rganish; mehnat, naturadan bajarilgan ma'nosida) - bu rassom o'zining kasbiy ko'nikmalarini takomillashtiradigan, tasvirni jozibali, haqqoniy tasvirlash mashqi hisoblanadi. Bu mashqlar yosh rassomlarning rangda ishlashdan oldingi tayyorgarlik bosqichi bo'lib, rangtasvir texnikasini egallashda juda katta foyda beradi. O'quv jarayonini bochqichlarga ajratish bilan tus nisbatlarini o'rganish muammolarning yechimini topish mumkin: rangtasvir mashg'ulotlaridagi birinchi bosqich - bu kartinadagi tuslar nisbatini aniqlash va ishlov berish, ya'ni berilgan vazifani "grizayl" texnikasida bajarish hisoblanadi. Shuning uchun o'quv jarayonida talabalarga grizayl texnikasida ishlashni o'rgatish maqsadida bu mashg'ulotlar o'quv dasturlariga kiritilib, bu vazifalarni bajarish talabalar uchun shart qilib belgilab qo'yilgan.

Grizayl (Grisaille) - lotincha "griz" ya'ni kulrang deb tarjima qilinish, oq-qora ranglar oralig'idagi kulrang tuslarning keng tizimidan foydalaniladi. Grizayl barelef va goreleflarni eslatadigan, moybo'yoq, akvarel, tushni oq ranglar bilan qo'shib yoki umuman qo'shmasdan bir xil rangda mo'yqalamda bajarilgan kartinalarga aytiladi. Bu xildagi ishlar oppoq haykallar ko'rinishini eslatadi, lekin shu bilan birgalikda tushayotgan yorug'lik, atrofidagi buyumlar ta'sirida har xil ranglar tovlanishlarini hisobga olgan holda, rassom palitrasida oq, qora ranglardan tashqari ko'k, jigarrang, qizil, sariq ranglar gammasi ham bo'lishi kerakligi tavsiya etiladi.

Grizayl – Bu texnika bitta bo'yoq bilan qalamtasvir ishlash demakdir. Aynan mana shu uslub qalamtasvir bilan rangtasvirni birlashtiradi. Odam boshi tasvirini ishlashda umumiy qoidalar bilan birgalikda o'tkir, ingichka qalam va keng yapaloq mo'yqalam shaklni turlicha ifodalashi mumkinligini kuzatamiz.

Portret qalamda ishlanganda shaklni chiziqlar yordamida qurib, maqsadga erishiladi.

Mo'yqalamda esa yirik shakl ifodasidan mayda detal ishlanmasiga o'tiladi. Bo'rtliqlik ifodasini yaxshi sezmaydigan tajribasiz rassom uchun mo'yqalamda tasvir ishlash odatiy, yuzaki shtrix berishdan foydalidir.

Mo'yqalamda ishlashning afzallik tomonlaridan biri – lessirovka usulidir. Moybo'yoqda ishlangan qalamtasvir odatda shu usul bilan o'z yakuniga yetkaziladi. Lessirovkada qurigan bo'yoq ustidan shaffof yoki yarim shaffof qatlam berib keskin ishlangan detallar yumshatilib, aniq olinmagan yorug'-soya munosabatini to'g'rilash mumkin. Grizayl uchun to'q va iliqroq rang tanlangani ma'qul (masalan: umbra, mars, vandik). Boshqa bo'yoqlar, aytaylik qora, ko'k, oq bo'yoq aralashmasida sovuq, o'lik tusni beradi. Bu esa inson chehrasining iliqligiga mos



kelmaydi. Moybo'yoqda portret rangtasvirini ishlashdan oldin tus yechimini hal etadigan bir nechta mashqlar bajarish foydalidir.

Bu mashg'ulotni maqsadi – odam boshining shakl ifodasini yorug'-soya munosabatlarda o'rganishdir. Shaklni mo'yqalam bilan surtmalarda topilishi qalamdagidan farq qiladi. Qalamtasvirda shakl konstruksiya asosida o'rganilib, rang xarakteristikasi shartli ravishda olinadi. Shakl ba'zan bir chiziqda, fonsiz ham ifodalanaveradi. Mo'yqalamda shakl fon bilan birgalikda, muhitdan ajralmagan holda tasvirlanadi. Grizaylda ishlash uchun odatda 2 ta Bo'yoq olinadi: tabiiy umbra va oq «Tabiiy umbra» o'rniga umbraning boshqa turlari yoki «mars jigarrang» bo'yog'ini ham ishlatish mumkin.

Grizayl haqida yuqoridagi fikrlarni o'qib o'rganib chiqib, o'z fikrlarimni bildirish istagi paydo bo'ldi.

Grizaylda ishlashning maqsadi;

Hammamizga ma'lumki yosh rassomlar rasm ishlashni o'rganishni eng avvalo grafitli oddiy qora qalamda ishlashni boshlaydilar, qora qalamning yumshoq, qattiq va o'rtacha yumshoq turlari mavjud; Qalamlar griffelning qattiqligi bilan odatda ko'rsatilgan qalam va harflar bilan belgilanadi **M.** (yoki **B.**- ingliz tilidan. Qorong'ulik) - yumshoq va **T** (yoki **H** - ingliz tilidan. Qattiqlik) - qattiq. Standart (stimli yumshoq) qalam kombinasiyalardan tashqari **Tm** va **Hb** xatni bildiradi **F** (ingliz tilidan. To'g'ri nuqta). Yumshoqlik darajasi qalamlar xatni belgilaydi **M.** (yumshoq) yoki **2m**, **Zm** oldin katta harf **M** katta yumshoqlikni bildiradi qalam.

Qattiq qalamlar xatni belgilaydi T (qattiq) 2 T ko'proq, Zt ko'proq 2T, va hokazo.

Yevropa AQSH va Rossiyadan farqli o'laroq, qattiqlikni ko'rsatish uchun raqamli miqyosda ishlatiladi. 1-jadval

Qattiqlik jadvali

1-jadval

Risola	AQSH	Boshqa	Rossiya
	#1	B.	M.
	#2	Hb.	Tm
	#2 1/2	F.	-
	#3	H.	T.
	#4	2s.	2t.

Eng qattiq, o'rta, yumshoq

2-jadval

*																			
9H.	8s	7s	6s	5s	4s	3h	2s.	H.	Hb	B2b	3b	4b	5b	6b	7b	8b	9b		

Qalam odatda o'rta yumshoqlikdan boshlanadi -**Tm** yoki **M** - va keyin yumshoq sonlarga o'tiladi, **B** dan **12b** gacha. Qalamlar qattiq-yumshoq turlarga



qarab bari-bir bir xil och va to'q kulrang iz qoldiradi. (2- jadval). So'zimiz isboti sifatida quyida qalamtasvirda ishlangan ijodiy ishlarimdan namunalar keltirdim (1-2-3 rasmlar). Ko'rib turganingizdek bir xil tusdagi och va to'q kulrangdan iborat. Bu fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz lozimki, qalamtasvirda natyurmort, portret yoki manzara ishlash jarayonida ko'zimiz faqat kulrang, qoramtir tuslarni ko'radi va shu ranglarga ko'nikma hosil qiladi xolos.

MUHOKAMA

Qalamtasvirda ishlash bilan bir qatorda rang tasvirda ishlashni ham o'rganish talab etiladi, buning uchun biz rangtasvirda ishlashdan avval, Grizaylda boshlaymiz.

Grizayl (Grisaille) - lotincha "griz" ya'ni kulrang deb tarjima qilinsa nega yuqoridagi o'quv qo'llanmalarda kulrangdan boshqa ranglarda ham ishlashni grizayl deb atashganligi biroz noqulay. Agar kengroq o'ylab ko'rilsa aynan kulrangni tanlanishi bu bejizga emas, chunki qalamtasvirda ishlash jarayonida talaba yoki o'quvchi faqat grafit qalamda ish olib boradi va ular qog'oz sathida kulrang va qoramtir tusni ko'radi xolos. Grizayl qalamtasvir bilan rangtasvir o'rtasidagi ko'prik hisoblanib, qalamtasvirning tugashi va rangtasvirning boshlanishi hisoblanadi (4-5-6-rasmlar) bunga aniq misol bo'la oladi.

1-rasm.



2-rasm.



3-rasm.



4-rasm. Qalamtasvir

XULOSA

Xulosa shuki amaliy mashg'ulotlarda mavzu berilib grizaylda ishlash ko'rsatib o'tilgan bo'lsa natyurmort, manzara yoki portret bo'lishidan qat'iy nazar faqat axromatik rangda ishlash tavsiya etiladi. Guvohi bo'lganimizdek, xromatik ranglarda ishlashga ham ruxsat berilganligiga, ko'k, jigarrang, qizil va boshqa ranglar, grizayl so'zining ma'nosi kulrang bo'lsa xromatik ranglarda ishlash mutloqo noto'g'ri deb hisoblayman. Hammamizga ma'lumki axromatik rang deganda oq bilan qora rang orasidagi barcha tuslanishlar tushuniladi. Grizaylda ishlash o'quvchi yoki talabaga akvarel bo'yog'ida ishlashning ilk ko'nikmalarini shakillanishiga yordam beradi va mo'yqalam va akvarel bo'yog'i bilan tanishtiradi.

5-rasm. Grizayl



6-rasm. Rangtasvir





Kelajakda ranlar orqali asrlarga tatigulik tasviriy san'at asarlarining paydo bo'lishiga tamal toshini qo'yadi.

REFERENCES

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. Rangtasvir (grizaylda rangtasvir ishlash) Muallif: Sultanov X. Toshkent-2014. Internet manbasi. <https://gigafox.ru/uz/rody/grafit-vidy-grafitovyh-karandashei-kakiebyvayut-karandashi-dlya-risovaniya/>.
- T.Qo'ziyev; A.Egamov "Rangtasvir" (5-9 sinflar uchun) Toshkent-2008.
- R.Rajabov, X.Sultanov. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. (o'quv qo'llanma) Toshkent- 2008.
- S.F. Abdirasilov, B. Azimova Rangtasvir. T. "Musiqqa" nashriyoti -2011.
- Raskin, Dj. Leksii ob iskusstve / Dj. Raskin; per. s angl. P. Kogana; pod red. Ye. Kononenko. — M., 2006.
- Internet manbasi. [https://gigafox.ru/uz/rody/grafit-vidy-grafitovyh-karandashei-kakiebyvayut-karandashi-dlya-risovaniya/.\(1-2-betlar\)](https://gigafox.ru/uz/rody/grafit-vidy-grafitovyh-karandashei-kakiebyvayut-karandashi-dlya-risovaniya/.(1-2-betlar).).



Sevinch NAZIR --- Samarqand viloyati Payariq tumanida tugʻilgan. Yoshligidan ijodga oshno qalb egasi tuman va viloyat bosqichidagi koʻplab tanlovlar gʻolibi. Birinchi kitobi "PARVOZ" nomi bilan 2021-yil chop etilgan. Oradan 1 yil oʻtib 2022-yil tengdoshlarining ijodini yuzaga chiqarish maqsadida "Orzular qanotida" nomli yoshlar toʻplamini chop ettirdi. Hozirda Payariq tuman ixtisoslashtirilgan maktabi 10-sinf oʻquvchisi. Koʻplab antalogiya toʻplamlarga ijodiy ishlari kiritilgan.

Yurak chanqogʻini qondirmoq uchun,
Mehr sharobidan bir qultum yutay.
Qalblarda qolmasin gʻam degan tugun,
Baxtning qoʻllaridan mahkamroq tutay.

Orzularim tomon qadam tashlayman,
Sabrim kabi bardam, shahdam qadamim.
Bir maqsadli buyuk ishni boshlayman,
“YURTIM” deb yashayin har on, har damim.

Ota-onam baxti, jon tumoriman,
Zero ishonchlarin oqlay umrbod.
Ular yorugʻ yuzi umidvoriman,
Doimo yashnasin yurtimiz obod.

Koʻzdan oqsin mayli, quvonch yoshlari,
Har bandangni baxtga yetishtir, Alloh.
Halolidan boʻlsin non-u-oshlari,
Doim oʻzing erur bizlarga panoh.



Ikki chaqnoq ko'zim mo'ltillab turar,
Sening karamingga muhtojman egam.
Yuragim qinidan chiqqudek urar,
Ming shukur duoda otam va onam.

Gunohimdan o'tgin Parvardigorim,
Imon nuri sochgin barcha dillarga.
Doim saqlagayman nomusim, orim,
Shirin zabon bergin, "zahar" tillarga.

Musulmonman, boshim sajdaga egik,
Ruhim sen bilandur Allohim, Robbim.
Yaqinlarim qo'llar, ruhim ham tetik,
Qudrating oldida ojizdir tilim.

Sevinch NAZIR

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Yunusaliyeva Xumora

Annotatsiya: Muloqot inson hayotining eng muhim kategoriyalaridan bo'lib, ijtimoiy hayotning ifodasi va shartidir. Jamiyatda har qanday shaxsning ishtiroki ortib borishi bilan interaktiv samaradorlik shakllanadi va rivojlanadi. Bu insonga ijtimoiy guruhda mavjud bo'lish, ijtimoiy hayot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tushunish va o'z maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkonini beradi. Maqolada ijtimoiy hayotning ifodasi va sharti bo'lgan inson faoliyatining eng muhim kategoriyalaridan biri sifatida kommunikativ kompetensiyaning bog'cha yoshidagi bolalarda rivojlantirish nechog'li muhim ekanligi masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, til, adabiyot, muloqot, Dell Xaymus, Chomskiy, muloqotning tashqi rivojlanishi

Аннотация: Общение – одна из важнейших категорий жизни человека, оно является выражением и условием общественной жизни. По мере увеличения участия любого человека в жизни общества формируется и развивается интерактивная эффективность. Это позволяет человеку существовать в социальной группе, понимать взаимоотношения между участниками социальной жизни, успешно достигать поставленных целей. В статье рассматривается, насколько важно развивать коммуникативную компетентность у детей дошкольного возраста как одну из важнейших категорий человеческой деятельности, которая является выражением и условием социальной жизни.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, язык, литература, общение, Делл Хаймус, Хомский, внешнее развитие общения.

Abstract: Communication is one of the most important categories of human life, it is an expression and condition of social life. As the participation of any person in society increases, interactive efficiency is formed and developed. This allows a person to exist in a social group, understand the relationships between participants in social life, and successfully achieve their goals. The article examines how important it is to develop communicative competence in children of kindergarten age as one of the most important categories of human activity, which is an expression and condition of social life.

Key words: communicative competence, language, literature, communication, Dell Hymus, Chomsky, external development of communication

Kommunikativ kompetensiya juda muhim, chunki u turli darajadagi lingvistik darajadagi odamlarga bir-birlari bilan gaplashish imkonini beradi. Xuddi shunday, u bir-biri bilan yanada ijobiy o'zaro munosabatlarga imkon beradi. Misol uchun, o'smirlar do'stlari bilan buvisi yoki o'qituvchisiga qaraganda boshqacha gapirishadi.

Kommunikativ kompetensiyaning to'rtta asosiy komponenti mavjud. Komponentlar quyidagilardan iborat: lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya va strategik kompetensiya.

Kommunikativ kompetensiya atamasi dastlab 1966 yilda Dell Xayms ismli kishi tomonidan ta'riflangan. U amerikalik tilshunosning tanqisligiga qarshi munosabat bildirgan. Uning kashfiyoti va odamlarning turli vaziyatlarda qanday gapirishlari haqidagi tushuntirishlari bugungi kunda kommunikativ kompetensiya deb ataladigan narsani shakllantirdi. Kommunikativ kompetensiya ta'rifi turli xil



va mos ijtimoiy sharoitlarda tildan grammatik jihatdan to'g'ri foydalanish qobiliyatidir. Kommunikativ kompetensiya modeli muloqotning funksional qismlari bilan shug'ullanadi. U xuddi shunday til tizimidan to'g'ri foydalanish bilan bog'liq. Ikkala tomon muvozanatlashganda, tilning ravonligi o'ynaydi. Oddiy qilib aytganda, kommunikativ kompetensiya odamning boshqa birov bilan qanchalik samarali muloqot qila olishini anglatadi.

Dell Hymes bu atamani dastlab 1966 yilda Noam Xomskiyning ishlash va malaka o'rtasidagi qarama-qarshiligining tanqisligiga qarshi munosabat bildirganida ishlab chiqdi. Chomskiy ingliz tilini tahlil qilish bilan mashhur amerikalik tilshunos edi. Xayms kompetensiyaning mavhum tushunchasiga murojaat qilish uchun kommunikativ kompetensiyaning etnografik tadqiqotiga sho'ng'idi. U odamlarning noyob vaziyatlarda turlicha gapirishini aniqladi, bu ko'pchilik ijobiy deb qabul qilishi kerak bo'lgan haqiqatdir. Hymesning ushbu atamani qo'llashi bugungi kunga aylandi.

Kommunikativ kompetensiya faqat insonning yoshiga, ko'nikmalar doirasiga va umumiy intellektga bog'liq. Bu yoshdan yoshga va odamdan odamga farq qilishi mumkin. Quyida kommunikativ kompetensiyaning ikki xil misoli keltirilgan.

Maykl Kanale va Merrill Swain kommunikativ kompetensiya modelini ishlab chiqdilar, u to'rtta alohida komponentdan iborat: lingvistik, sotsiolingvistik, nutq va strategik. Shaxsga qarab, biri ushbu komponentlarning ikkitasi yoki uchasi yoki to'rttasida kommunikativ jihatdan malakali bo'lishi mumkin. Canale va Swain modeli uchun ko'rib chiqilishi uchun shaxs ushbu komponentlardan kamida bittasida malakali bo'lishi kerak.

Erta yoshdagi bolalar ta'limida til va muloqotni rivojlantirish bolalarga boy til muhitini boshdan kechirish imkoniyatini beradi, bu ularga so'z boyligini kengaytirish, o'z fikrini ifoda etishda ishonch va ko'nikmalarni rivojlantirish, turli vaziyatlarda gapirish va tinglash imkonini beradi.

Muloqot qobiliyatlari bolalarga bilim olishga, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga, his-tuyg'ularini ifoda etishga va kundalik faoliyatda ishtirok etishga yordam beradi. Ba'zi bolalar kognitiv va/yoki jismoniy nuqsonlari tufayli o'z fikrlarini aniq ifoda etishda yoki ularga aytilayotgan gaplarni tushunishda qiynalishi mumkin.

Bolalar, ota-onalar / tarbiyachilar, hamkasblar va boshqa mutaxassislar bilan samarali ishlash uchun bola tarbiyachisi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak. Yaxshi muloqot qobiliyatlari samarali muloqotga yordam beradi. Samarali muloqot odamlarni tinglash, tushunish va ularga javob berishni o'z ichiga oladi.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq shaxslar bir-biriga bog'langan va fikrlar, g'oyalar va his-tuyg'ular atrofida ma'no baham ko'radigan hamkorlik jarayonidir.[i] Boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganish bolalar rivojlantiradigan eng muhim, ammo murakkab ijtimoiy vositalardan biri bo'lib, asosiy poydevor hisoblanadi. barcha insonlar uchun o'rganish, rivojlanish va farovonlik uchun. Bolalarda muloqotning rivojlanishi tug'ilishdan boshlanadi - haqiqatan ham, u bachadonda boshlanishi mumkinligi haqida dalillar mavjud. Bu ularning hayotidagi muhim odamlar tomonidan shakllantiriladi va ular boshdan kechirgan madaniyatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Muloqot, shuningdek, ma'lumot almashishni o'z ichiga oladi. Bolalar o'zlarini gapirish, imo-ishoralar, imo-ishoralar tili, rasm belgilari, chizish yoki yozish kabi turli yo'llar bilan ifoda etishlari mumkin. Ba'zi madaniyatlarda qosh ko'tarish kabi mimika yoki "ko'z bilan gaplashish" dan foydalanish ham aytilmagan xabarlarini etkazishi mumkin. Chaqaloqlar va chaqaloqlar so'z va jumalarni



ishlatishdan oldin turli xil ifoda shakllaridan, jumladan imo-ishoralar, tovushlar, shovqinlar va teginishlar yordamida muloqot qilishadi.

Muloqot, shuningdek, bolalarning ma'lum bir vaziyatda ma'noni tushunish yoki tushunish usullarini o'z ichiga oladi. Bolalar buni qarash, tinglash va tilni tushunish orqali boshqalar bilan muloqot qilish orqali o'rganishadi. Ular, shuningdek, muloqotning og'zaki va so'zsiz shakllaridan foydalangan holda odamlarning kontekstda qanday munosabatda bo'lishlari haqida ijtimoiy tushunchani rivojlantiradilar.

Muloqot va uning rivojlanishini joylashuv, madaniy kontekstlarda ko'rib chiqish zarur bo'lsa-da, barcha jamoalar uchun umumiy bo'lgan muloqotning asosiy jihatlari mavjud, jumladan nutq, til, savodxonlik va kommunikativ kompetensiya. Bu atamalar ba'zan bir-birining o'rnida ishlatiladi, lekin aslida aloqaning turli, ammo o'zaro bog'liq tomonlarini anglatadi. Bu qirralarning o'ziga xos jarayonlari bor, ular bolalar boshqalar bilan ijtimoiy o'zaro munosabatlarni boshdan kechirganlarida bilib oladilar. Muloqotning ushbu turli jihatlarini tushunish o'qituvchilarga har bir bolaning ta'lim muassasalaridagi o'zaro munosabatlariga qo'shadigan potentsial hissasini tan olishda yordam berishi mumkin.

Kommunikativ kompetensiya bolalarning lingvistik bilim va ko'nikmalarini tan oladi va ijtimoiy vaziyatlarda boshqalar bilan ma'no almashish va tushunish uchun ushbu resurslardan samarali foydalanish qobiliyatini ta'kidlaydi. [vi] Kommunikativ kompetensiya tushunchasi tilning pragmatik tarkibiy qismiga mos keladi, bunda bolaning kommunikativ harakatlari ularning niyati, maqsadi yoki ijtimoiy kontekstdagi vazifasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.[vii] Bolalar ijtimoiy o'zaro aloqada bo'lganda, ularda o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati rivojlanadi. muayyan maqsadlarda nima, qaerda va kim bilan muloqot qilishni tushunish, shuningdek, turli auditoriyalar yoki kontekstlarga moslashish uchun ularning muloqot uslubini qanday moslashtirish. Kommunikativ kompetensiya bolaning lingvistik shakli va mazmunini va ular ushbu resurslardan, shuningdek, imo-ishora, yuz ifodasi, o'qish, yozish yoki chizish kabi samarali muloqot qilish uchun foydalanish usullarini tan oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning til va muloqotdagi qobiliyatlari ularning har tomonlama rivojlanishi va farovonligiga asoslanadi. Muloqot ko'nikmalari nafaqat bolalarning kognitiv va kontseptual rivojlanishi uchun, balki ularning ijtimoiy, hissiy va madaniy xabardorligi va tushunishi uchun juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allen, V.F. (1993), *TECHNIQUES IN VOCABULARY TEACHING*, Oxford University Press, New York.
2. Carter, R. (1987), *VOCABULARY*, Rutledge, London.
3. French, F.G. (1972), *TEACHING OF ENGLISH AS AN INTERNATIONAL LANGUAGE*, Oxford University Press, London.
4. Gokak, V.K. (1964), *ENGLISH IN INDIA-ITS PRESENT AND FUTURE*, Asia Publishing House, New York.
5. Harmer, J (1991), *THE PRACTICE OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING*, Longman, New York.
6. Lewis, M. (1993), *THE LEXICAL APPROACH*, Language Teaching Publication, England.
7. McCarthy, M. (1988), *VOCABULARY*, Oxford University Press, Oxford.



8. Morgan, J. and Mario, R. (1987), VOCABULARY, Oxford University Press, Oxford.
9. Nation, I.S.P. (1978), 'Translation and the Teaching of Meaning: Some Techniques' ELT JOURNAL, Vol.32
10. Partridge, Susan Eunice (2012). Unravelling reading : evaluating the effectiveness of strategies used to support adults' reading skills. EdD thesis The Open University
11. Fetsi Esma (2018)New Trends in Reading-Writing Integration to Enhance Students' Performance in Writing.
12. Ramesh Prasad Adhikary(2020) Effectiveness of Content-based Instruction in Teaching Reading
13. Naemeh Nahavandi (2011)The Effect of Task-based Activities on EFL Learners' Reading Comprehension
14. Bi Qiumin, A New Model of Mobile Reading: Interest-based and Social-based Social Reading. Research on Publishing and Distribution. Vol. 32(2013) No.4, p. 49-52
15. <https://huntsd.org/wp-content/uploads/2016/08/SSR-Expectations-2016-17-Anders.pdf>
16. Parodi, G. (2007). Reading-writing connections: Discourse-oriented research. Reading and Writing, 20: 225-250.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY O'QITISH METODIKASINI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH

Saymamatova Nozima Baxtiyorovna

Farg'ona shahar 9-DMTT tarbiyachi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalari, pedagog faoliyatida innovatsion jarayon bosqichlari, tarbiyachilarga qo'yilayotgan zamon talablari haqida, maktabgacha ta'lim tizimida o'yin texnologiyalariga innovatsion yondashuv to'g'risida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy tarbiyachi, innovatsiya, innovatsion yondashuv, pedagogik mahorat, kasbiy mahorat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida xorijiy tajribalar asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. So'nggi yillarda tarbiyachilar uchun metodik qo'llanmalar, innovatsion mashg'ulotlar ishlanmalari yaratila boshlandi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotgan davrda "Zamonaviy tarbiyachi qanday bo'lishi kerak?" degan savol ko'plab olimlarning, shuningdek, ziyoli qatlamning, hatto ota-onalarning diqqat e'tiborida bo'lib turibdi. Zero, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonunni amaliyotga tatbiq etish, mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq. Yosh avlodni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida xorijiy tajribalar asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. So'nggi yillarda tarbiyachilar uchun metodik qo'llanmalar, innovatsion mashg'ulotlar ishlanmalari yaratila boshlandi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotgan davrda "Zamonaviy tarbiyachi qanday bo'lishi kerak?" degan savol ko'plab olimlarning, shuningdek, ziyoli qatlamning, hatto ota-onalarning diqqat e'tiborida bo'lib turibdi. Zero, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonunni amaliyotga tatbiq etish, mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida xorijiy tajribalar asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib



borilmoqda. So'nggi yillarda tarbiyachilar uchun metodik qo'llanmalar, innovatsion mashg'ulotlar ishlanmalari yaratila boshlandi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotgan davrda "Zamonaviy tarbiyachi qanday bo'lishi kerak?" degan savol ko'plab olimlarning, shuningdek, ziyoli qatlamning, hatto ota-onalarning diqqat e'tiborida bo'lib turibdi. Zero, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni amaliyotga tatbiq etish, mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim. Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.

Ta'lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini ta'vsiylaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. Pedagogning innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir pedagog innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Maktabgacha ta'limda innovatsiyalarni joriy etishning eng samarali usullardan biri-bu o'yin texnologiyalari hisoblanadi. O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Bizga ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bola birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun bola avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga maktabgacha yoshdagi bola yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishiladi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, mustaqil fikrini bayon eta oladigan, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirishda pedagog tarbiyachilarning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019- y., 03/19/595/4160-son.

Ergashevna, S. N. (2021, November). Traditions of khorezm caliphate and their peculiarities. In Archive of Conferences (pp. 120-123).

Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mulaahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the



Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.

Otajanova, M. O. (2016). NEW APPROACH TO THE TRADITIONS. Theoretical & Applied Science, (11), 8-12.

Ruzimovna, K. G., & Xolmanova, Z. Formation and Development of Axiolinguistics. International Journal on Integrated Education, 3(9), 128-131.

Turdiyevna, K. Z., & Ruzimovna, K. G. (2021). The role of zoonyms in the expression of axiological content. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1430-1434.

Zulkhumor, K. (2021). Semantics and lingu-culturological features of old uzbek lexemans. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 488-497.

Сабирова, Н. Э. (2017). Поэтические символы: становление и эволюция. Молодой ученый, (3), 684-686.



МТТДА МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ЕТИШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Ahmadjonova Nilufar Qobilovna

Калит сўзлар: Келажак боғчадан бошланади, интерфаол усуллар, МТТда инновация, олий маълумот афзалликлари, кадрлар салоҳияти – келажак кафолати.

Аннотация: Маколада асосан ҳозирги даврда мактабгача таълим соҳаси учун олий маълумотли кадрларнинг жудаям зарурлиги. уларнинг сифатли таълим-тарбия беришдаги юксак ўринлари ҳақидаги фикрларимиз берилган. Ҳа, эндиликда мамлакатимизда ҳам худди энг риводланган давлатлардагидек соҳамиз – мактабгача таълимга катта диққат-эътибор қаратилаётганлиги боис ушбу йўналиш биринчи режага чиққан. Узи аслида ҳам, том маъноси билан айтганда бугунги малакали кадрлар етиштиришнинг истиқболлари бевосита тарбиячи-педагоглар, умуман болалар боғчаларида ишлаётган ходимларнинг барчасини олий маълумот эгалари бўлишлари билан бевосита боғлиқ. Бу муҳим масала борасидаги барча қўйилаётган талаблар, ушбу йўналишдаги устивор мезонлару оилада ва мактабгача таълим ташкилотларида ҳам малакали кадрлар етиштириш ҳақида сўз бораётганлиги, айнан улардан тарбияланувчилар рисоладагидек таълим олишлари аниқ эканлиги, методик ишлаш бўйича уларнинг ҳаракат-салоҳияти талаб этилаётганлиги зарурияти, бундан келадиган жуда катта истиқболга эга жараён ҳам куйидаги илмий-таҳлилий мақоламизда ҳамма қирралари билан бирга очиб берилган.

Кириш: Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев томонидан мактабгача таълимга қилинган ва қилинаётган жуда катта ғамхўрликлар ушбу ҳикматли мазмунга эга сўзларида намоён. Яъни, мамлакатимиз раҳбари “Келажак боғчадан бошланади”, “Менга дўст бўлишни истасангиз мактабгача таълим ривожига-таракқиётига ғамхўрлик кўрсатинг” деганлар. У киши давлатимизни бошқараётгандан бери ўтган қисқа муддат 7 йил ичида биз ишлаётган мактабгача таълим соҳасига кўрсатилаётган эътибор, кўмаклар ҳақида ҳар қанча гапирсак ҳам оз. Ахир давлат инвестицияси маблағлари йўналтирилган ҳолда юзлаб Давлат мактабгача таълим ташкилотлари реконструкция қилиниб, қайта таъмирланиб, замонавий болажон масканларига айлантирилгани-ю айлантирилаётгани инкор этиб бўлмайдиган ҳақиқат. Яна қишлоқларимиздаги филиал боғчаларнинг аксарияти мустақил фаолият юритувчи ДМТТларга айлантирилди. Натижада кўп сансалорликлар, хужжат ишларидаги тушунмовчиликлар, асосий боғчаларга диққатни қаратиб, филиал боғчаларга “ўғай нигоҳ билан қараш”дек айрим иллатларга барҳам берилди. ДМТТ филиалликдан чиқиб мустақил бўлгач қайта жиҳозлашдан тортиб сифатли таълим бериш бўйича ҳам масъулият чандон ортганлигини ҳам барчамиз кўриб-билиб турибмиз. Нодавлат йўналишга тўхталадиган бўлсак, бунда Оилавий нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари ва давлат хусусий ширкат шерикчилиги йўналишларидаги мактабгача таълим ташкилотлари бор. Мустақилликка эришишимиздан аввал, қолаверса истиқлолга етишганимиздан сўнг ҳам то 2017 йилга қалдар халқ тилида “хусусий боғчалар” деб аталувчи бундай мактабгача таълим ташкилотлари санокли бўлган, кўп эмас эди. Ўтган қисқа муддат 6 йилдан буён эса юртимизда мингалб НМТТлар очилганлиги ҳамда жўшқин фаолият юритаётганлигининг гувоҳи бўляпмиз. НМТТлар сони кундан-кунга ортяпти. Бу эса мактабгача таълим ёшидаги 3-7 ёшли болажонларнинг ҳаммаси ёки мутлоқ кўпчилигини мактабгача таълимга тортишга имкон-шароит яратилаётгани билан боғлиқ жараён.

Кейинги ўзгаришлар мактабгача таълим вазирлиги мактаб таълими билан бирлаштирилиб, Мактабгача таълим ва мактаб таълими вазирлиги,



Мактабгача таълим ва мактаб таълими вилоят бошқвармаси, Маактабгача таълим ва мактаб таълими туман бўлимларининг иш бошлаганлиги аслида бизнинг мактабгача таълим тизимига бўлган эътиборни аввалгидан ҳам кўп кучлироқ тарзда оширади. Эндиликда икки аслида туб негизи халқ, ёшлар таълими тараққиёти, фаолиятига хизмат қилувчи соҳанинг қайтадан бирлаштирилиши давомийлик бир меъёрда кечиши, таълим сифатишга боғчадан бошлаб диққат билан қараш лозимлиги, ҳар икки соҳанинг бир хил умумий режа асосида ишлашани яқинлаштиради. Шу ўринда бир мантикий савол туғилади? Узи мактаб таълими соҳасида энг кўп эътибор қаратилаётган жиҳат, талаб қайси эди. Бу сифатли таълимга эришиш билан бирга юқори салоҳиятга эга кадрларни кўпайтириш эди. Ахир мактаб таълимида олий маълумотли мутахассисларни кўпайтиришга интилиш, ўрта махсус маълумотлиларнинг олий таълим олишга интилишларининг кучайиши жараёни мактабгача таълимга қараганда бир неча йиллар аввал бошланган. Шу кунларга келиб эса мактабгача таълим соҳаси учун ҳам шу талаб, яъни малакали мутахассисларни кўпайтириш талаби қўйилмоқда. Бунинг учун эса барча шаклдаги мактабгача таълим ташкилотларида ишловчи педагог ходимлар олий маълумотли бўлишлари керак. Чунки олий маълумотга эга кадргина ҳозирги замон талабларига мос ва хос равишда ишлай олади. У нафақат методика, балки педагогика, психология, керак бўлса логопедия ҳамда дефектология бўйича зарур, тегишли билимларга эга бўлади. Ҳа, тизимда олий маълумотлиларнинг кўп бўлиши давр талаби бўлиб қолди. Бизлар мактабгача таълимда энг ривожланган давлатлар (АҚШ, Жанубий Корея, Хитой, Германия, Финляндия ва бошқа мамлакатлар) ортидан эзгу ният ила эргашаётганлигимиз, тажрибаларини ўрганаётганлигимиз учун ҳам шундай. Уша тараққий этган, таълимнинг барча соҳалари қатори мактабгача таълимга, унинг истоиқболли тараққиётига ҳам катта эътибор берилаётган ўлкаларда эса мактабгача таълим тизимида ишловчиларнинг аксарият қисми (ҳаммаси десак ҳам бўлаверади) олий маълумотга эгадирлар. Биз ҳам шу йўлдан боряпмиз, бир қанча муваффақиятларга эришдик ва эришажакмиз. Олий маълумотли кадрларнинг салоҳияти, уларни кўпайтириш мактабгача таълим тизими учун улар ниҳоятда зарур эканликлари ҳақида фикр юритсак талай мулоҳазаларни келтириш мумкин. Энг асосийлари эса:

Тизимимизга катта диққат-эътибор қаратилаётган 2017 йилдан буён ўтган давр мобайнида ёш авлодни соғлом ва ҳар жиҳатдан етук вояга етказиш, таълим-тарбия жараёнига самарали усулларни жорий этиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Янгиликлар, соҳамиздаги истиқболли режаларни таҳлил этарканмиз, семинарларда қатнашарканмиз шундай фикр дилга келди. Яъни, ҳозирги вазият болаларнинг боғчаларга қамровини ошириш, мактабгача таълим ташкилотларини замонавий ўқув-методик материал, бадиий адабиётлар билан яхши таъминлаш, боғчада ишлаш учун олий таълим даргоҳларида таҳсил олган малакали педагог, қолаверса бошқарув учун уста кадрларни жалб этиш, ўзаро тажриба алмашиш масалаларини ҳал этиш зарурлигини кўрсатаётир. Бу малакли кадрларни талаб этганлиги, изланувчанлик ва ижодкорликка ундаши учун осонгина кечадиган жараён эмас.

Бу жараёнда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, болаларнинг сифатли мактабгача таълимдан тенг фойдаланишини таъминлаш, нодавлат секторни ривожлантириш мақсадида, шунингдек Президентнинг 2018 йил 30 сентябрда қабул қилинган “Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3955-сонли қарори ҳозирги кунларда ҳам долзарбдир. Унда ўлкамизда мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси ҳақида ёзилган. Концепциянинг асосий йўналишлари қаторида:



а) –мактабгача таълим тизимига ходимларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш, малакасини ошириш, олий таълим даргоҳларида таҳсил олишлари учун йўллаш;

б)-мактабгача ёшдаги болаларнинг ҳар томонлама интеллектуал , ахлоқий, эстетик, ва жисмоний ривожланишлари учун шарт-шароитлар яратиш;

в)-мактабгача таълимга инновациялар, илғор-педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш, машғулотда қўлланилишига эришиш,

г)-ҳар бир мактабгача таълим ташкилотида компьютер бўйича илк сабоқларни тарбияланувчиларга ўргатиш, шу билан бирга барча боғчаларда компьютерни ўргатиш хоналари ташкил этиб, шу хоналарни компьютер техникаси ва бошқа мультимедиа воситалри билан таъминлаган ҳолда тарбиячиларга ҳам компьютерни яхшироқ ўргатиш кабилар ҳам бор.

Айнан шу йўналишларга боғчаларимизда таълим-тарбия ишини юритишнинг асосий масъуллари--муסיқа ва спорт раҳбари, психолог, дефектолог, тўғарак етакчиси, тарбиячилар ўз фаолиятларида амал қилишлари керак. Уларнинг ҳаммаси олий маълумот олишлари зарурлиги эса давр талаби. Ахир юксак ривожланган давлатларда мактабгача ва мактаб таълимида ишловчилар олий маълумотга эга. Ҳозир ўзим ҳам Қўқон Давлат университетининг мактабгача таълим факультети сиртки бўлими 3-курсда ўйётганим учун шу заруриятни теран ҳис этиб, яхши мутахассис номини олишга интиляпман.

Хуллас, ишимизда доим қўл келаётган ва келадиган ушбу Концепциянинг мақсади бола ҳаёти ва фаолиятининг барча соҳаларини ривожлантиришни таъминловчи муҳим манба бўлган сифатли мактабгача таълимдан фойдаланиш механизмларини ишлаб чиқишдир. Тизим тараққиётига асос шу хужжатда белгиланган режаларни ҳаётга кенг тадбиқ этиш учун соҳамизда малакали кадрлар кўп бўлиши жудаям кераклиги ойнадек равшан.

Шунингдек, тизимимизда олий маълумотлиларнинг кўпайиши туфайли таълим сифати, ишда самара, бола саводхонлиги ва мактабга ҳозирлиги ҳам ортар. Яна шундай дейиш мумкинки, мактабгача таълимга яхши диққат-эътибор берилётганига ҳозир роса 6 йил тўлган. Утган вақтда жажжиларни соғлом ҳамда баркамол улғайтириш, таълим-тарбияда янги педтехнологияларни қўллаш бўйича катта ишлар амалга ошди, ошаётир. Бизлар ҳам бир неча йилдан буён масъулиятли соҳада ишлаётганимиз учун юқоридагиларга кўшимча равишда баъзи фикрларни ҳам айтиб ўтмасак бўлмас..

Ислохотлар, соҳамизга янги қўйилган талабларни таҳлил этиб, кўрғазмали Кенгашлар ўтказиш чоғи пайдо бўлган қуйидаги режаларни ҳам келтирсак.. Яъни, бугунги кун а) 3-7 (нодавлат боғчаларга эса 2) ёшдан бошлаб барчани болажон масканларига тортишни талаб этаётир, б) барча МТТларни даврга мос ўқув-методик кўрғазма, китоб, жиҳозлар билан етарли таъминлаш, в) меҳнат жараёнида олий ўқув юртида ўқиган малакали педагогларни кўпайтириш зарурияти бугунги кунда юқори даражада бор. Ҳа, аввал МТТ директори, услубчисидан талаб этилган олий маълумот энди тарбиячидан ҳам сўралмоқда. Бундай бўлиши табиий, чунки тарбияланувчиларга фақат олий маълумотли кадрларгина яхши таълим-тарбия, саводхонлик сабоғи-ю мактабга тайёрловни бера, ўргата олишар.

Зеро айнаи вақтда барча педагогика университет-институтларида сиртки таълим шакли очилганлиги бежиз эмас. Сиртки таълимнинг тарбиячи-педагогикдан ташқари, муסיқа ва спорт раҳбари, психолог, дефектолог,



тўғарак етакчиси, маънавий ишлар ташкилотчиси йўналишларида бемалол таҳсил олиб, ҳамма ходимлар олий маълумот олиши мумкин. Бунинг сабаби Республикамиз таълим соҳасида юксак даражадаги тараққиётга интилаётганилиги ҳамдир. Аслида ривожланган давлатларда мактабгача ва мактаб таълимида ишловчиларнинг барчаси олий маълумотга эга. Ҳозир ўзимиз ҳам мактабгача таълим ташкилоти педагог-тарбиячи сифатида ишлаш билан бирга Кўкон университетидея Мактабгача таълим бўлимида таҳсил олаётганлигимиз учун болалар масканимизда олий маълумотли кадрлар кўп бўлишини ташвиқот этишни асосий вазифаларимиздан деб билияпмиз. Ахир университетда кўп керакли педагогик-психологик билимларни ўрганиб малакамиз ошмоқда. Ҳа, олий маълумот эгасигина давр руҳи, талабини ҳис этган ҳолда соҳага муносиб педагог-тарбиячи бўлиб ишлай олажак. Ахир Янги Ўзбекистонда янгича дунёқараш эгалари яшашмоқда, улғайишмоқда.

Кўшимча фикр сифатида қуйидагиларни ҳам ёзсак. Иш фаолиятимизда олий маълумотли кадрлар кўпайиб боргани сари улар ўрта махсусларга қараганда ижодий фаолият машғулотларини самарали ўтишаётгани, кичкинтойларга зарур билимни талаб даражасида беришаётгани, янгиликларни иш жараёнига тўла тадбиқ этишаётгани, тадбирларни ёдда қоларли ўтказишаётганига гувоҳ бўляпмиз. Шунингдек, бир ходим олий маълумот олиб зўр ишлаётгани, ойлик маоши ортганига ҳавасланиб ўзгалар ҳам унга эргашишаётганига мисоллар кўп. Демак имкониятлардан ҳамма фойдаланиб қолиши, малакали кадр номини олишга барчанинг интилаётганлиги замон талабидир.

Шу ўринда бир-икки мунозаравий саволлар туғилоиши табиий. Хўш, илгаричи? Авваллари боғчалардаги тарбиячиларнинг асосий қисми ўрта-махсус, баъзилари ҳаттоки ўрта мактаб маълумотига эга бўлсаларда ишлашганку, деган. Бунинг сабаби яна ҳозирги давр тараққиётига бориб тақалади. Утган совет замонида бир хил эскича таълим тизими бўлиб, ҳаммаси марказдан бошқарилар, барча соҳада ҳам ҳорижий давлатлар тажрибаси деярли ўрганилмасди. Шу боис чет эл саёҳатларига борган айрим юртдошларимиз (ўша замонда фақат баъзи кишиларгагина ҳорижий мамлакатларга сафар қилишларига рухсат берилган, айрим борган кишиларга ҳам турли соҳаларни кенг ўрганишларига асло рухсат берилмаган) у жойлардаги техника ривожланганлиги, таълим соҳасида биздан фаркли равишда жуда катта тараққиётга эришилганлигидан хайрону дол бўлиб келганлар. Ниҳоят собиқ иттифоқ 1991 йили парчаланиб, Ўзбекистон мустақилликка эришгач мамлакатимиз дунёга юзданди. Биз ривожланиш, тараққиёт йўлига кирдик. Ҳорижий давлатлар тажрибалари кенг равишда ўрганила бошланди. Чет эллардаги энг тараққий этган давлатларда эса мактабгача таълимга зўр эътибор қаратилиб, уни таълимнинг негизи, пойдевори сифатида қараларкан. Болалар масканларида ишловчи педагог-тарбиячилар, ходимларнинг ҳаммаси олий маълумотли бўлишаркан. Шунинг учун ҳам мактабгача таълим ҳам юксак даражада ривожланган. Малакали кадрлар иш жараёнида ҳамма нарсани ҳал қилганлар, Малакали кадр эса биринчи галда олий маълумот эгаси бўлиши керак-да. Ўзимизда ҳам ижодий фаолият машғулотлари, кўрғазмали Кенгаш ва семинарлар чоғи олий маълумотга эга ёки олий маълумот олиш учун ўқиётган кадрлар ўрта махсус маълумотлилардан кўра сифатли таълим-тарбия бера олишлари, ижодий ҳамда таълимий фаолият машғулотлари пайтида янги педагогик технологиялар, интерфаол усулларни қўллаган ҳолда инновацион жараёнин ярата олишлари намоён бўлди. Шу боис кўпчилик олий маълумот олишга интила бошлаганлиги ҳам бор гап. Демак муаммонинг асл ечими малакали кадрларни кўпайтириш заруриятини давр, замоннинг ўзи тақозо этаётганлигига барча жиҳатдан бориб тақалар.



Шу ўринда яна бир муаммоли ҳолат борки унинг ечими ҳам ўзимизга ва малакали кадрларимизнинг жон куйдиришларига боғлиқ. Бу эса яқинда қабул қилинган “Ўзбекистон -2030” стратегиясининг мактабгача таълим олдига қўйган долзарб вазифалари билан боғлиқ. Яъни, боғчаларимизда компьютерни кенг миқёс, мукамал даражада тарбиячиларга, илк бошланғич компьютер сабоқларини эса тарбияланувчиларга ўргатиш масаласи. Бизнинг фикримизча бунинг учун қуйидаги ишларни амалга ошириш керак.

“Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тўлиқ амалга ошираман десак, унда кўрсатилган мактабгача таълимга алоқавдор йўналишлардан бирига кўра болажон компьютерни билиши керак. Албатта, мактабгача таълимдан бошлаб тарбияланувчиларга илк компьютер сабоқларини бериш – бугунги куннинг долзарб ишларидан. Шу боис яқинда қабул қилинган “Ўзбекистон-2030” стратегиясида шу масалага эътибор қаратилди. Хўш, бунинг учун нималар қилиш даркор?

Аввало компьютер зарарлари ҳақида фикр юритсак: а) кўриш қобилиятини ёмонлаштиради, б) семизлик ва уйқусизликка сабаб бўлиши мумкин, в) ёшга тўғри келмайдиган ўйин ўйнаш, ваҳший тасвирларни кўриш руҳий касаллик ва тажовузкорлик келтириб чиқаради, г) эмоционал ривожланиш бузилиб, бола тез толиқиши эҳтимоли бор.

Компьютернинг бола ривожланишига ижобий таъсири бундан кўп: а). кичкинтойларнинг аклий-ҳиссий камолотида ёрдамчидир, б) мантиқ, тафаккур, хотирани ўстиради, в) расм чизиш, қизиқарли ўйинлар ўйнаш, математик билимларни ошириш, чет тилларни ўрганишида катта аҳамиятга эга, г) ойлайн сабоқлар олишда қулай, д) болалар адабиётига оид аудиокитобларни тинглаш, болаларбоп қўшиқ, эртақ ва хоказолар видеоларини кўриш мумкин, е) ўтган тадбир, ўз чиқишлари видеосини кўриб, хулосавий баҳо чиқарилади.

Лекин масалани муаммоли томонлари - бола компьютер билан вақтли шуғулланиши, унга ортиқча берилиб кетмаслиги, болага у бўйича пухта сабоқ бера оладиган мутахассисни топиш, нафақат боғча, балки уйда ҳам бола учун компьютер бўлишига бориб тақалар. Бу муаммоларни эса болани бир кунда бир соатдан ортиқ шуғуллантирмаслик (уйга боргач яна ярим соат машғул бўлиши мумкин), боғчага олий маълумотли информатика фани мутахассисини тарбиячи ва тарбияланувчиларга компьютерни ўргатиши учун ишга олиш ва ҳар бир МТТда компьютерни ўргатиш хонаси очиш, ҳомийлар ёрдами ё тарбиячиларнинг маблағи ҳисобига ҳар бир гуруҳга компьютер олиш, ота-оналарга фарзандлари учун ноутбук ёки нетбуклар олиб беришларини тарғиб этиш орқали ҳал этса бўлади.

Ҳорижий ўлкалардан энг тараққий этганлари АҚШ, Жанубий Корея, Хитой, Германия кабиларда шу йўл, яъни МТТларнинг ҳар бирида тарбиячилар ва болаларга компьютерни яхши ўргатадиган олий маълумотли информатика мутахассиси бўлиши, ота-оналар 3-7 ёш фарзандларига болалар нетбуклари олиб бериши қўлланаркан. Шу сабаб ушбу юртларда боғчадан бошлаб сабоқ олгани учун мактаб ўқувчисининг компьютерни билишида, шуғулланиш вақти қатъий назорат этилгани учун бола сиҳатида муаммолар йўқ.

Юқоридагилардан чиқариладиган хулоса – болага компьютерни ўргатиш керак ва зарур. Бу оддий ҳақиқат, давр талаби доимо ёдимизда турсин.

Юқорида катта бир мавзу бўйича ёзганларимиз битирув малакавий ишини тадқиқот этиш ва ўрганиш ва ёзиш жараёнида олинган натижалардан келиб чиққан ҳолда ушбу тавсияларни беришни ҳам лозим топдик:



1. Мактабгача таълим ташкилотларида малакали кадрлар етиштириш истиқболлари бола таълим-тарбияси учун катта аҳамиятга эга жараён. Шундан келиб чиққан ҳолда аввал мактаб, сўнгра педагогика коллежларининг мактабгача таълим йўналишлари ва охириги босқичда олий таълим даргоҳларининг шу мактабгача таълим бўлим(факультет)ларида таҳсил олган кишиларгина рисоладагидек, замон талабига мос мутахассислар бўлиб етишадилар. Чунки ҳозирги даврда ҳар бир соҳа билим даражалари етарли бўлган ўз касбюини пухта биладиган олий маълумотли кадрларни талаб этаётир. Боғчаларимизда олий маълумотли педагоглар кўпайиб бораётганлиги фикримизнинг ёрқин исботидир.

2. Болаларнинг ўзлари ҳам ҳозирги кунда эскича тизимда ишлайдиган педагог-тарбиячилар ўзларига ижодий ё таълимий фаолият машғулоти ўтишларини истамай қолишмоқда. Авваллари мактабгача таълим тизимида ишловчи тарбиячиларнинг деярли ҳаммаси ўрта махсус маълумотга эга эдилар. Савия ва сифат ҳам шунга яраша бўлган. Демак таълимнинг ҳозирги даврдаги тараққиёти ўзига хосликни талаб этаётир. Масалан, ижодий фаолият машғулоти чоғида фаоллик марказларини жиҳозлашда, болажонлар билан ҳаракатли ҳамда дидактик ўйинларни ўтказиш пайтида олий маълумот олган тарбиячи-педагоглар замон талабига тўлиқ жавоб берган тарзда ишлай олишаётганлиги ойнадек равшан бўлиб қолди.

3. 3-7 ёшли фарзандларини мактабгача таълим ташкилотига таълим-тарбия олишлари учун йўллаган ота-оналарда ҳам ҳозирги кунда танлов имконияти юқори. Улар аввалгидек фарзандининг илк мактабгача таълим ёшидаги илм олишлари-ю, тарбия сабоқларидан қандай даражада, қайси усулда баҳраманд бўлишаётганликларига бефарқ эмаслар. “Мени қизим ё ўғлим шу тарбиячининг гуруҳига борсин, у олий маълумотли, ёки ҳозир университетда таҳсил олмоқда, мен фарзандим келажagini малакаси юқори бўлмаган тарбиячи кўлига ишониб топширолмаман”, дегувчилар кўпайди. “Очиқ эшиклар кунлари”, “Машғулот кузатиш куни”, “Ички семинар” тадбирларига ота-оналарнинг ҳам таклиф этилишаётганлиги ота-она-таълим муассасаси-тарбиячи ҳамкорлигини ошириши билан бирга ота-онларга машғулоти кузатишлари, хулоса чиқаришлари, тарбиячи салоҳиятини баҳолай билишлари учун имкон яратган. Ота-оналар кузатув Кенгашларининг ҳар бир мактабгача таълим ташкилотига фаолият юритаётганлиги эса керак бўлса ота-онларга ўзаро келишган ҳолда шу айниқса ДМТТлар раҳбарлигига муносиб номзодни кўрсатиш, тарбиячилардан фарзандига яхшироқ таълим-тарбия берилишини шу Кенгаш орқали талаб қилиш учун имкон яратган. Шунда ота-оналар билан суҳбатлашганимизда улар олий маълумотли кадрларгина мактабгача таълим ташкилотлари педагог-тарбиячилигига муносиб эканликларини айтишаётир. Демак малака муҳим ўринда.

4. Тизимда малакали кадрларни кўпайтириш масаласи мактабгача таълим ташкилотларининг раҳбариятига ҳам боғлиқ. Бунда директор олий таълим даргоҳларида сиртдан таълим олаётган ходимларининг ишлашлари билан бирга ўқишлари учун зарур шарт-шароитларни яратиш бериши, керак бўлса моддий жиҳатдан ҳам ёрдам кўрсатиши даркор. Шунингдек, ўзи етакчи бўлган ташкилотда айтилик мусиқа раҳбари, спорт етакчиси, логопед-дефектолог, психолог вазифаларига олий маълумотли кадрларни топа билиши ҳамда торта билиши лозим. Кейин малакали кадрларни бошқаларга ибрат қилиб кўрсата билиш ҳам олий маълумотли кадрларни кўпайишига олиб келувчи, тажрибаларни оммалаштирувчи жудаям фойдали жараён..

Юқорида келтирилган ҳамма фикр-мулоҳазаларни таҳлил этган ҳолда қуйидагича якуний хулосани чиқаришимиз ўринли бўлса керак. Яъни, бугунги кун, ҳозирги ҳамма соҳада янгиланишларга, замонга мос тараққиётга



интилинаётган даврда кадрлар малакасини ошириш талаби биринчи ўринда. Давлатимиз томонидан ушбу муҳим жараён учун улкан ғамхўрликлар кўрсатилмоқда. Шу кўмак ва ёрдамларга лаббай деб жавоб бериб, кадрлар салоҳияти ҳамда малакасини оширишдек муҳим ишга катта эътиборни ўзимиз ҳам қаратайлик. Чунки бу кўпчиликнинг саъй-ҳаракати, интилишлари, бир ёқадан бош чиқариб ҳамжихатликда ишлашлари заруриятини талаб этади. Интилиш, ижодкорлик, изланишлар эса эртанги кунда ўз самарасини беражак. Нафақат ҳозирги, балки яқин кунларга ҳам юксак умид, катта ишонч туйғуси билан қарайдиганлар фақат олдинга қараб қадам босадилар. Асли мамлакатимиз раҳбари, ҳукумати, тизимимиз мутсаддилари талаби ишчан кадрлар таълим сифатини келажак учун оширишларига ишончлари комил. Ҳа, ҳаммаси қуйида ишловчиларнинг намунали ишлашларига боғлиқ. Улар бугуннинг таянчи, эртанги кун ишончи.

Зеро кадрлар салоҳияти – келажак кафолотидир.

Нилуфар Кобиловна АҲМАДЖОНОВА,

Фарзона Аброр қизи АКБАРОВА,

“Мактабгача таълим” йўналиши бўйича 2023-2024 ўқув йили 3-босқич битирувчи талабалари.

Фойдаданилган адабиётлар:


Янги Ўзбекистон стратегияси. Шавкат Мирзиёев. 2022-йил..

“Илк қадам” журнали. 4-сон. 2023-йил.

Интерфаол методлар. Ўқув қўлланмаси. 2010-йил.

“Мактабгача таълим” журнали. 7-сон. 2019-йил.

“Улуғ эл” газетаси. 17-сон. 2023 йил.



Hoshimjanov Ibrohimjon Ikromovich. Tahallusi esa Ibrohim Ikrom. Ijodkor O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati, Namangan shahrida tavallud topgan. Hozirda ushbu shaharga qarashli 9-umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olib kelmoqda. Ijodkor o'z ijodiy ishlari bilan ko'plab tanlovlarga qatnashib ko'plab Sertifikat va Diplomlar sohibi bo'lib kelmoqda. Qolaversa, ijodkorning ijodiy ishlari Xalqaro antologiyalarda shu jumladan Buyuk Britaniya va Respublika antologiyalarida hamda Germaniyaning Raven Cage jurnalida va shunga o'xshash ko'plab xalqaro sayt, jurnal va antologiyalarida o'z ijodiy ishlari chop etilgan. Undan tashqari ijodkorning Buyuk Britaniya va Moldova shaharlari hamkorligidagi Just-Fiction Edition nashriyotida o'zining shaxsiy antologiyasini nashr ettirgan va hozirda ham bir qancha antologiya kitoblariga muallif bo'lib kelmoqda.

Sarlavha: *Jannat tomon go'zal yo'l!*

Mavzu: *Ota-ona bilan muomala qilish.*

Har bir inson tug'iladi va bu yoriq dunyoni ko'zlari bilan ko'ra boshlaydi. Lekin bu dunyoda birinchi bo'lib ko'radigan, talpinadigan, ular siz yashay olmaydigan insonlarga duch keladi. Va u insonlar bilan birga yashab, ularning odatlarini-harakat, fel-atvorlarini o'rganishadi. Va o'sha yaqin insonlari ularning ota-onalaridir. Ha ota-onalari. Dunyodagi mavjudotlar ichida eng go'zal, mehribon, rahmdil, shafqatli va ongli bo'lgan yaratilish hisoblanadi. Insonlar o'z ota-onalariga mehribonlik qo'yishadi, ularsan uzoqlashadigan bo'lishsa darrov sog'inlashga tushishadi. Va asosiysi dunyodagi eng muhim narsalardan hisoblangan tarbiyani ham o'z ota-onalaridan o'rganishadi. Qaysidir ma'noda bir go'dakning kelajakda qanday inson bo'lishi, o'z yo'lini topib keta olishi yoki yuksak martabaga erisha olishi bu ota-onaga yoki ular bergan tarbiyaga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Hayotimizda ota-onamizning o'rni qanday ekanligini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Va anglab yetganmiz-ki, har bir oilada otaning va onaning o'rinlari boshqa-boshqa. Ya'ni ota uchun alohida ehtirom ko'rsatsak, ona uchun ham alohida ehtirom ko'rsatamiz. Nega bunday ekanligini ham bilmaysiz emas. Bizning kelajakda yetuk, muvaffaqiyatli, olim va dono insonlar bo'lib yetishishimizda ham otamiz va onamizning o'rni boshqa-boshqa. Onamiz 9 oy bizga o'z vujudidan joy berib, qornida ko'tarib yuradi. Tug'ilganimizdan keyin esa bizning dastimizdan na kunduzi va na kechasi tinchlik bor. Endi qornimizni to'yg'azsa, uyqumiz kelgan endi uxlatib noqulaylik sabab yoki yana bir noma'lum sabablarga ko'ra uyg'onib, yig'lab onamizning tinchini buzganmiz. Erta-yu kech kirlarimizni yuvgan, bizni



ozoda tutgan ham onamiz hisoblanadi. Otamiz esa bolalarimni boqaman deb tinim bilmay, ter to'kib, peshona teri bilan halol ishlab pul topib, bizga yedirgan. Och qolmasin, kiyimsiz qolmasin yoki do'stalaridan ortda qolmasin deya biz uchun belini bukib mehnat qilgan inson hisoblanadi. Agarda siz o'rtog'ingiz kiygan yangi modadagi kiyimni ko'rib kiygiz kelib turgan bo'lganingizda ham sizni o'ksib qolmasin deya sizga qimmat bo'lsa ham istaganningizni olib kelib sizni hursand qiladigan ham Ota hisoblanadi. Tobingiz bo'lmaganida esa sizni davolaymiz deb sog'ayishingizga ketadigan mahshlotlarni olib kelgan inson Ota hisoblanadi. O'sha paytda sizning atrofingizda girdikapalak bo'lib sizni qanday qilib davolashni bilmay hali uyoqdan hali buyoqqa o'tib, ko'z yoshlarini daryo kabi oqizib, siz uchun qayg'urib, sizga sog'ayasan deya dalda beradigan inson Ona bo'ladi. Va aynan siz shu mushtipar onangiz va otangiz uchun ham sog'ayishni boshlaysiz. Irodali bo'lishni boshlaysiz, o'zingizda kuch-quvvat topishni boshlaysiz. Keyinchalik asta-sekinlik bilan ulg'ayib bo'yga yetib qolganingizda ota-onangizdan baxtiyor inson bo'lmaydi. Siz o'qib, tirishib, izlanib, o'ylanib, o'z yo'lingizni topasiz, o'z maqsadlaringizga va shu bilan birgalikda ota-onangizning ham maqsadlariga erishishni boshlaysiz. Nega emdi ota-onangizning ham maqsadlariga deb aytdik ? Chunki ota-onangizning asl maqsadlari sizning yuksalishingizni, jamiyatda o'z o'rningizga ega bo'lishingizni, yetuk, olim, dono va o'qimishli inson bo'lib o'z yo'lini o'zi topib keta oladigan darajada bo'lishingizning guvohi bo'lib, sizga har bir ishingizda dalda bo'lib, qo'llab-quvvatlab, sizni olqishlab, omad tilab turishdir. Ota-onangiz esa sizga ishonishadi. Bu ishlarni qila olishingizga ko'zlari yetadi. Lekin avval bu darajaga yetishdan avval tinmay o'qishingiz kerak. Ha o'qishingiz kerak. Shuni biling-ki, agar o'qish, izlanish sizga yoqmasa, ota-onangizning ishonchini oqlash uchun ham o'qing, omma oldida yuzlari yoriq bo'lishlari uchun ham o'qing. Va bu meni farzandim deya sizdan faxirlanib sizni o'stirganlariga, siz uchun ketgan umirlariga, sizni deb oqargan sochlariga rozi bo'lishlari uchun ham o'qing. O'qing, o'qing, o'qing va yana o'qing! To'xtamang! O'qishingiz ortda qolsa ham, o'yin-kulgudan qolsangiz ham, siz tengilar yetishib o'zini o'zi qoplay oladigan darajaga yetgan bo'lsa ham ruhiyatingizni so'ndirmang, bir kun albatta tugaydi, o'tadi, barchasi o'tadi. Bedor o'tkazgan tunlaringiz-u, yon-atrofga parvo qilmay, qiyinchiliklar bilan to'lgan kunlaringiz ham o'tadi. Xattoki, Xitoyning bir ajoyib maqoli ham bor: " Sekin ketishidan qo'rqma, bir joyda turib qolishidan qo'rq". Axir sizning o'qishingiz sekin bo'lsa ham, tengdoshlaringizdan ortda qolgan holda bo'lsa ham ketyaptiku. Har xolda bir narsani o'rganyapsiz. Endi shuni biling-ki ota-onangiz sizga shu narsalarga siz uchun oilangiz budjetidan qanchadir miqdorda pul ajratyapti. Sizni o'qishingiz yo'l qo'yib beryapti. Istaklaringizni bajaryapti. Lekin ota-onasining qadriga yetmay ancha-muncha xatoga yo'l qo'yib, ota-onasiga ovoz ko'tarib yo'lini topa olmayotganlar ham oz emas. Endi siz ham shunday xatolarga yo'l qo'yib, ota-onangizni ranjitib qo'yimaslik uchun ham bularni o'qing. Ota-onangizga odob-axloq bilan, hurmat bilan muomala qilishingiz kerak va buni hozir o'rganib olasiz.

Ota va ona bilan muomala borasida rioya etiladigan 35 odob

1. Ularning huzurida qo'l telefonini o'chirib qo'yish.
2. Ular so'zlayotganda jim quloq tutish.
3. Fikrlarini qabul qilish.
4. So'zlarini tasdiqlab, qo'shib turish.
5. Ularga o'zni hokisor tutib nazar solish.
6. Ularni doim maqtab va olqishlab turish.



7. *Quvonchli xabarlarda birga xursand bo'lish.*
8. *Yoqimsiz xabarlarni ularga aytmaslik.*
9. *Do'stlari va yaxshi ko'rgan kishilarni maqtab turish.*
10. *Ular amalga oshirayotgan ishlarni esga olib turish.*
11. *Takror va takror so'zlashsa ham gaplarini tasdiqlab turish.*
12. *O'tmishdagi ko'ngilxira ishlarni esga olmaslik.*
13. *Kesatiq, piching gaplardan chetlanish.*
14. *Ularga ehtirom ko'rsatgan holda o'tirish.*
15. *Fikrlari sayozlikda ayblamaslik.*
16. *Gapirayotganlarida gaplarini bo'lmaslik.*
17. *Yoshlarini hurmat qilib, nabiralalar bilan ularni bezovta qilmaslik.*
18. *Ularning oldida nabiralarni jazolamaslik.*
19. *Barcha nasihat va ko'rsatmalarni qabul qilish.*
20. *Huzurlarida oilaning rahbari ekanliklari bildirib, bo'ysinib turish.*
21. *Ularga ovozni balandlatmaslik.*
22. *Ulardan oldin yoki oldlarida yurmaslik.*
23. *Ulardan avval ovqatlanmaslik.*
24. *Ularga baqrayib qaramaslik.*
25. *Ba'zan loyiq bo'lishmasada, ehtiroman ular bilan faxrlanish.*
26. *Ularga oyoq uzatmaslik yoki orqa o'girib yotmaslik.*
27. *Ular tanbeh berib urishayotganlarida, gap qaytarib so'kishib ketmaslik.*
28. *Hamisha ularning haqqiga duoda bo'lish.*
29. *Oldlarida horg'inlik va charchoqni sezdirmaslik.*
30. *Ulardan xato sodir bo'lsa kulmaslik.*
31. *Talab qilmaslaridan avval xizmatlariga shay turish.*
32. *Ularga jahl qilmaslik, g'azablanmaslik va ziyoratlarida muntazam bo'lish.*
33. *Ular bilan suhbatda eng yaxshi so'zlarni tanlab gapirish.*
34. *Ularni o'zlariga yoqqan, eng mahbub ismlar bilan chaqirish.*
35. *Boshqa insonlardan va boshqa narsalardan ota-onani muqaddam qo'yish.*

Muhim jihat: Ota-ona siz uchun (xuddi) yer ustidagi bir xazinadirlar. (Vafot etib) yer ostiga dafn etilmaslaridan avval ularni g'animat biling. Xizmatlarini qiling, ehtirom ko'rsatib ulkan ajru-savoblarga erishing.

Xulosa: Bizning vazifamiz ota-onamizni g'animat bilib borlarida qadrilariga yetib, orzu-umidlarini ushaltirib, qaddilarini tik tutib yurishdir. Ba'zan ularga g'azab bilan qattiq gapirib, dillarini og'ritib, ranjitib qo'ygan bo'lishimiz ham mumkin. Va biz ularni ranjitishni oldini olishimiz kerak. Qanday qilib? Shunchaki ular man etgan ishlardan qaytishimiz kerak. Va ularga doimo itoatda bo'lishimiz kerak. Zero ota-ona rizoligisiz Jannatga ham qo'yilmasligingiz mumkin. Shunday ekan ular bilan so'zlashayotganda ham o'z haddingizni bilib gaplashing. Ularga uf tortish ham odobdan emas. Va buni ham bilganingiz yaxshi. Hozirda ko'pchilik o'smirlar orasida keng tarqalgan odobsizliklardan biri ham ota-onaga uf tortish hisoblaandi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qodirova Zuxraxon Mamatxonovna

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 24-DMTT direktori

***Annoatsiya.** Bugungi kunda biron bir soha taraqqiyotini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, yosh avlodning ta'lim-tarbiya sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini axborot kommunikatsiyasi va raqamli texnologiyalarga asoslangan holda qayta tashkil etish masalalari muhokama etilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, o'qitish, o'yin, axborot texnologiyalari, interaktiv texnologiya, maktabgacha ta'lim, aloqa.*

***Аннотация.** Сегодня развитие любой сферы невозможно представить без информационно-коммуникационных технологий и инноваций. Одной из актуальных задач является внедрение современных информационных технологий, особенно в сфере образования молодого поколения. В данной статье рассматриваются вопросы реорганизации организаций дошкольного образования на основе информационно-коммуникационных и цифровых технологий.*

***Ключевые слова:** образование, обучение, игра, информационные технологии, интерактивные технологии, дошкольное образование, общение.*

***Annotation.** Today, the development of any field cannot be imagined without information and communication technologies and innovations. One of the urgent tasks is the introduction of modern information technologies, especially in the field of education of the young generation. This article discusses the issues of reorganization of preschool education organizations based on information communication and digital technologies.*

***Key words:** education, teaching, game, information technology, interactive technology, preschool education, communication.*

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bo'g'ini bo'lsa-da, u keyingi ta'lim tizimi, bolani maktabga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, ta'lim sohasini davlat siyosati darajasiga ko'tarish bejiz emas. Bugungi kunda intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarish barkamol avlodni tarbiyalash va ularni har tomonlama barkamol shaxs etib ulg'aytirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Chunki jismonan sog'lom, ma'nan yetuk insonlarga buyuk kelajakni yarata oladi. Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti – xalqimizning boy madaniyati, rivojlanayotgan iqtisodiyoti, erishilayotgan yutuqlar asosida mutaxassislar tayyorlash, fan va texnologiya sohasida mukammal tizimni shakllantirishdir.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev tizimni chuqur tahlil qilib, asosiy e'tiborni hozirgacha e'tibordan chetda qolgan eng kichik jihatlarga qaratdi. Ma'lum bo'ldiki, farzandlarimiz tarbiyasi va ta'lim muassasalari dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim sohasiga joriy etish ta'lim usullari va o'qitishni sifat jihatdan osonlashtirish va o'zgartirish imkonini beradi hamda jarayonga yangi va ijodiy yondashuvni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni tizimli ravishda ta'lim jarayoniga joriy etish bu sohaning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlaridan



biri hisoblanadi. Shuni ta'kidlash zarurki, avvalo raqamli texnologiyalar asosida bolaga ta'lim berishning samaradorligi pedagog kadrlarning intellektual salohiyati va akademik qobiliyatiga bog'liq. Pedagog kompyuterining texnik imkoniyatlarini bilishi, ular bilan ishlash malakasiga ega ekanligi, va buni bolalarga amaliy ravishda yetkazib bera olishi juda muhim jarayondir. Shuni hisobga olgan holda bugungi kun talabi har bir pedagogdan dasturiy ta'minot ta'lim tizimlari, Internet, global kompyuter tarmog'i resurslari bilan ishlash va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda bolalarni darslarning sifat jihatidan yangi darajasiga o'tkaza olish qobilayati talab qilmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasasida kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim tizimini joriy etishning maqsadlari quyidagichadir:

- a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalar bilan masofaviy ta'lim jarayonini tashkil qilish;
- b) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan pedagoglar va ota-onalarning hamkorligini ta'minlash;
- v) axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim orqali pedagoglarning uslubiy ishlarining sifatini oshirish.

Maktabgacha ta'lim muassasasi hayotida o'yinlar bolalarning shaxsiy rivojlanishi va shakllanishida katta ahamiyatga ega va ta'limning muhim turi hisoblanadi. Shu jihatdan bolaga kompyuter o'yinlari asosida yangi bilimlar berilayotganda tanlangan o'yin yoxud visual tasvirlar bolaning yoshi va axloqiga qay darajada mos kelishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Kompyuter o'yinlaridan foydalanish (multimedia yordamida) bolaning aqliy rivojlanishiga bilan birga ijodiy qobiliyatlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Paint dasturida bola ob'ekt yoki hayvon uchun ranglarni tanlaydi, tabiiy jarayonida tasvirlangan manzara yoki inson surati chizadi, mavjud ranglarni farqlaydi, ulardan foydalanadi va natijada o'z ishini baholaydi, bu jarayonda uning shaxsiy xususiyatlar va qiziqishlar oddiy qog'ozga chizishdan ko'ra aniqroq ifodalanadi.

Shu bilan birga, AKT interaktiv vosita sifatida bolaga tezda yangi narsalarni olish imkonini beradi va dunyoqarashini kengaytiradi. Agar kompyuterlashtirilgan pedagogikani an'anaviy ta'lim shakllari bilan solishtirsa, texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda texnologiyalar samarali natijalarni ko'rsatmoqda. Kompyuter ekranidagi ma'lumotlarning namoyishi bolalarning e'tiborini va qiziqishini uyg'otadi, faoliyat turi: harakat tasvirlari, tovush va ekrandagi illuziyalar o'rganuvshining xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Kompyuterdagi muammolarni hal qilish bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

Darhaqiqat, ta'limni jonlantirilgan, tovushli, harakatlanuvchi elementlar orqali tashkil qilish bir vaqtning o'zida bolaning tafakkurini uyg'otadi va olingan ma'lumotni xotirasida uzoq vaqt davomida saqlanishga xizmat qiladi. AKTdan to'g'ri uslubiy foydalanish bilan ta'lim jarayoni o'zgaradi, nafaqat asosiy e'tibor bolalar faoliyatida faol kognitivning har xil turlarini tashkilga qaratiladi, balki shaxsiy rivojlantirish ham bir vaqtda amalga oshiriladi.

AKTdan foydalanishga ijodiy yondashish – bu narsa yoki hodisalar rangi, harakati va yangi ovoz yaratishda, ijodiy mahsulotlarni ishlab chiqishda, bolaga berilayotgan didaktik yordamni ijodiy yo'l bilan rivojlantirish imkonini beradi. Bugun har qanday joyda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyachi AKTdan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishi kerak.



Bugungi kunda kadrlar va metodik ta'minot ta'lim jarayoni bilan birga olib borilishi nafaqat zamonaviyning maktabdagi huquqiy imkoniyatlarini baholash, balki maktabgacha ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonining ham sifatini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

ko'rsatkich. Jahon ijtimoiy fanlar xabarnomasini (WBSS) joriy etishdagi yana bir dolzarb muammo maktabgacha ta'lim muassasalarida AKT hamda zamonaviy axborot sohasida malakali kadrlar yetarli darajada emas. Bu sohaning porloq kelajagini yaratish uchun esa bugungi pedagoglar o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda oshirishlari va zamon bilan bir qatorda rivojlanishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barnett, W. Preschool education for economically disadvantaged children: Effects on reading achievement and related outcomes. In S. B. Neuman & D. K. Dickinson (Eds.), Handbook of early literacy research, Vol. 1, pp. 421-443. New York: Guilford Press.
2. Torakulov X.A. Information systems and technologies in pedagogical research. - T.: Science, 2007. www.gov.karelia.ru/Leader/Gossovet/d14.html.
4. Azizkhodjayeva N.N. Pedagogical technologies and pedagogical skills. - T.: 2018.
5. Khalikova U.M. (2020). Relevance of the use of information and communication technologies in preschool educational institutions. Internauka, 13-2, S. 78-79.
6. Kakhhorov O.S., Sayfulloev O.O. (2021). Problems and prospects of training competitive personnel in the field of agrotourism. Scientific progress. - T. 2. - no. 3. - S. 667-674



Mirzag'aniyeva Diyora Mirzahamdami qizi

-O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti 2-kurs talabasi.

-Birgalikda yuksalamiz loyihasi , Afsonaviy yoshlar forumi, Ibrat tillari ishtokchisi.

-2022-yil Ta'lim vaziri Baxtiyor Saidov mukofoti sovrindori.

-"Najot ilmda " qizlar uchun loyiha asoschisi.

- Bolalar psixologiyasi, Islom psixologiyasi bo'yicha online kurslar tolibasi.

-Chet tilini o'qitish bo'yicha 4 yillik tajriba ega

The Title Unraveling Tapestry of Language Socialization: A Comprehensive Exploration:

Introduction: Language, beyond being a mere tool for communication, serves as a powerful vehicle for cultural transmission, identity formation, and social integration. The process through which individuals acquire language skills and, more critically, internalize the cultural and social nuances associated with it is known as language socialization. This multifaceted phenomenon plays a pivotal role in shaping individuals within a society, influencing their identities, behaviors, and interactions. This article undertakes a comprehensive exploration of language socialization, delving into its significance, the diverse methods employed, presenting results, conducting analysis, and engaging in a thoughtful discussion to deepen our understanding of this intricate process.

Methods of Language Socialization:

1. ****Family and Early Childhood:****

The family unit serves as the primary agent of language socialization. From the earliest moments of life, children are immersed in the linguistic and cultural environment of their caregivers. Parents and family members not only provide linguistic input but also introduce cultural norms, values, and behaviors through language. Early childhood experiences within the family lay the foundation for an individual's language development and cultural identity.

2. ****Education and Formal Institutions:****

Educational institutions play a crucial role in shaping language skills and social behaviors. Students not only acquire academic language but also learn the language appropriate for formal settings. Language socialization within educational contexts involves the transmission of both explicit and implicit rules governing language use. This process contributes to the development of language competencies necessary for success in academic and professional spheres.

3. ****Peer Groups and Social Circles:****



Peer groups significantly influence language socialization, especially during adolescence. Individuals often adopt linguistic styles, slang, and communication patterns from their peer groups. This socialization process fosters the formation of subcultures with shared linguistic practices. Peer interactions contribute to the development of language registers suitable for informal and social contexts, influencing the individual's language repertoire.

4. ****Media and Technology:****

In the contemporary era, media and technology have emerged as influential agents of language socialization. Exposure to various forms of media, including television, radio, and the internet, exposes individuals to diverse linguistic trends, expressions, and even different dialects. Social media platforms, in particular, contribute to a globalized linguistic landscape, shaping language use and communication styles on a broader scale.

Results:

The results of language socialization are manifold and intricate, reflecting the dynamic interplay between language, culture, and society. Individuals who undergo effective language socialization exhibit:

1. ****Cultural Competence:****

Successful language socialization leads to cultural competence, where individuals not only acquire linguistic skills but also understand and embody the cultural meanings embedded within language. This cultural competence enables effective communication within diverse social contexts.

2. ****Identity Formation:****

Language socialization plays a pivotal role in the formation of individual and group identities. Through language, individuals express their affiliations, values, and self-concept. Effective language socialization contributes to the development of a coherent and nuanced identity within the larger social framework.

3. ****Adaptability and Flexibility:****

Individuals who undergo robust language socialization demonstrate adaptability and flexibility in their communication styles. They can navigate various social settings, adjusting their language use according to the formality, context, and social dynamics at play.

Analysis:

The process of language socialization is not without its complexities and challenges. While effective language socialization contributes positively to cultural understanding, identity formation, and communicative competence, challenges may arise, such as:

1. ****Cultural Dissonance:****

In multicultural societies, individuals may experience cultural dissonance when their language socialization experiences conflict with the diverse linguistic and



cultural practices present in the larger community. This dissonance can lead to challenges in effective communication and social integration.

2. **Power Dynamics:**

Language socialization is intricately linked to power dynamics within society. The language choices individuals make can reflect and perpetuate existing social hierarchies. Unequal access to linguistic resources can contribute to the marginalization of certain groups within the larger societal context.

Discussion:

The intricate nature of language socialization calls for a nuanced understanding and a thoughtful approach to its implications. This discussion aims to explore key themes and considerations related to language socialization:

1. **Thesis:**

The central thesis of language socialization posits that the acquisition of language is not a neutral process; rather, it is deeply embedded in the cultural and social fabric of a community. The thesis underscores the transformative power of language socialization in shaping individuals and communities.

2. **Cultural Sensitivity:**

Language socialization emphasizes the importance of cultural sensitivity in communication. Individuals who are culturally sensitive are better equipped to navigate diverse social landscapes, fostering understanding and collaboration.

3. **Educational Implications:** Understanding the role of language socialization has profound implications for education. Educational institutions should recognize and accommodate diverse linguistic and cultural backgrounds, promoting inclusive language socialization practices that empower students from all walks of life.

4. **Social Justice and Language Equality:**

Language socialization brings attention to the inequalities in language access and usage. Addressing these disparities is crucial for promoting social justice. Efforts to ensure language equality contribute to dismantling linguistic barriers and fostering a more inclusive society.

Conclusion:

Language socialization is a dynamic and intricate process that goes beyond the mere acquisition of linguistic skills. It is a powerful force shaping cultural identity, influencing social behaviors, and contributing to the overall development of individuals within a society. By recognizing the significance of language socialization and addressing its challenges, we can foster a more inclusive and culturally aware world where language becomes a bridge rather than a barrier. This comprehensive exploration highlights the need for continued research, education, and societal reflection to enhance our understanding of language socialization and its far-reaching implications.



Baxtiyorova Sevinch Doniyor qizi 2005-yil 9-fevralda Samarqand viloyati Jomboy tumanida tavvalud topgan. Hozirda Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetida O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida I-bosqich talabasi.

Bo'lajak-pedagog.

Yoshlar tashkilotida 2017-yildan buyon o'z faolligini boshlagan qizlardan. 2017-yilda "Kamalak" bolalar tashkilotida sardor sifatida ishlagan, "Vatan, do'stlik va baxtli bolalik uchun!" shiori ostida tashkil qilingan an'anaviy XVII –anjumanida jonkuyarligi hamda samarali faoliyati uchun taqdirlangan, keyinchalik "Yoshlar ittifoqi" da ushbu amaliyotni davom ettirgan.

2021-2022- o'quv yilda tuman olimpiyadasida Ona tili va adabiyot fanidan faxrli I o'rinni egallab, viloyatga yo'llanmani qo'lga kiritgan hamda faol ishtirok etgan.

Hozirda o'z sohasi ya'ni ona tili fanni bo'yicha Milliy sertifikatga ega.

Maktabni a'lo baholarga muvaffaqiyatli tamomlagan Sevinch Xalq Ta'limi Vazirligi tomonidan "Oltin medal" bilan mukofotlangan.

Hozirgi kunda Sevinch Xalqaro maydonda o'z o'rnini topayotgan faol qizlarimiz biri hisoblanadi. U bir qator tanlovlarda o'ziningiz faol ishtiroki bilan bir qancha yutuqlarga erishmoqda, qolaversa, yaqinda o'tkazilgan "MDH yetakchilari" xalqaro tanlovida faol ishtirok etib oltin medal sohibasiga aylandi. Bundan tashqari "Kelajak yoshlar forumi" ishtirokchisi, "Shine qizlar akademiyasi" muvaffaqiyatli bitiruvchisi, O'zbekiston Respublikasi "Qizlar ovozi" klubi hamda "Kelajak: ilmi qizlar hamjamiyati, ta'lim dasturi 13-mavsum"ning faol ishtirokchisi. "All India Council For Technical Skill Development" xalqaro tashkilotiga a'zo va ko'plar yutuqlar sohibasi.

"Uyg'on ayol, uyg'on tengdoshim" nomli maqolalar to'plamida hozirgi kunda jamiyatimizda dolzarb bo'lgan ayol-qizlar mavzularni keng yoritib bergan, ularning ilm olishi muhim ekanligi haqida batafsil gapirib o'tgan. Hozirda qizlar uchun



maxsus “Wake up woman” akademiyasini tashkil qilgan Sevinch tengdoshlarini o’zi qatorida ilm yo’liga safarbar etib kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va internetning foydali jihati

Baxtiyorova Sevinch Doniyor qizi

Mustaqil izlanuvchi Samarqand viloyati Jomboy tumani

Bugungi XXI asrda hayotimizni internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilish nihoyatda qiyin bir vaziyat hisoblanadi. Insonlarning bugungi kunda aksariyat qismi mana shu orqali o’z ish faoliyatlarini olib boradi. Juda ko’pchilik telefonning zarar ekanligi va virtual olamning xavflari haqida gapiradi, albatta, bir tomondan qaraydigan bo’lsak shunday, ammo bu hozirgi davrga nisbatan biroz bo’sada noo’rin va haqiqatdan yiroq bo’lgan fikr, nazariya hisoblanadi.

Internet tarmoqlari orqali online ish yuritish, kimgadir bilim bera olish, tezkor usulda xabarlashuv, muloqot almashinuv ishlarini tez va sifatli tarzda amalga oshorishning imkoni mavjuddir. Hozirda online auditoriya orqali bilim olish ancha keng rivojlangan soha hisoblanadi. Har bir ishni to’g’ri yo’lga qo’ysak har qanday biz ko’zlagan maqsadga erishishimiz mumkin. Demak, zamonaviy asr texnikalarini ham maqsadli ishlatar ekanmiz bu borada ham ko’zlagan natijamizga erishishimiz mumkin. Raqamli axborotlar inson uchun vaqtni va mablag’ni bir muncha tejashni imkonini beradi. Odiy misol tariqasida aytishimiz mumkinki, avval Davlat Test Markaziga uchun hujjat topshirishimiz kerak bo’lsa qishloq markazida yashaymizmi yoki shahar atrofida aytilgan va belgilangan manzilga borishimiz va ro’yhatdan o’tishimiz kerak bo’lar edi. Biroq bugungi kun talabi bilan joriy etilgan online platform orqali hujjat topshirish bir muncha oson va hech qanday harajatlarsiz bitadigan ish sifatiga kirdi ya’ni bunda qo’shimcha bino, insonlarning aniq ajratilgan bir kuni kerak emas. Agarda o’zgartirish kiritish kerak bo’lgan taqdirda ham bu ish hech qanday qiyinchiliksiz bitadi.

Tanganing ikkinchi tarafi bo’lganidek bu ishni ham o’ziga yarasha ziyon yetkazadigan nuqtalari mavjud. Kibberjinoiyat bugungi kunda mamlakatimiz balki butun dunyoda muommoli masal hisoblanadi. Albatta bu mamlakatning iqtisodiy va harbiy jihatdan zarar ko’rishiga sabab bo’ladi, biro ularni ham reja asosida yaxshi tarafga yo’naltirsa kibberjinoiyat emas balki telepartatsiyani yaratuvchi olimlarni kashf qilishimiz mumkin bo’ladi.

Farzandimizga mumkin emas, o’ynama, keraksiz, foydasiz deb emas, balki u uchun foydalilarini o’rgatishimiz kerak. Chunki istaymizmi yo’qmi bu texnologiyalar yaqin kelajakda butun dunyo uchun yagona bo’lgan ma’lumotlar ombori, yagona ish manbai bo’lib xizmat qiladi.

Dunyo hamjamiyatidan orqada qolmaslik uchun har kuni yangidan yangi texnologiyalarni o’rganishimiz, raqamli hsayotning imkoniyatlaridan to’laqonli foylana bilishimiz jozidir.



Men **Qobilova Madina** Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanida 2003-yil tug'ilganman. 2021-yil Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim



yo'nalishiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindim. 30ga yaqin maqolalarim o'zbekiston respublika va xalqaro jurnallarda chop etilgan. 100dan ziyod sertifikatlarni qo'lga kiritganman. 10ta xalqaro forumlarda qatnashganman. Ilm-fan fidoiylari kitobida avtobiografiyam bosilib chiqqan. Toshkentdagi xalqaro konferensiyada ishtirok etganman. Registon stipendiyasi tanlovida faol qatnashib sertifikat qo'lga kiritganman. Ulug'bek vorislari tanlovida ham faol ishtirok etganman. Milliy tiklanish demokratik partiyasining rasmiy a'zosiman. "Yoshlar turizmi" II xalqaro qurultoyga lochin oromgohiga "Surhon yoshlari" sifatida qatnashdim. Qizlar ovozi klubi tomonidan tashkillashtirilgan "Ilm-fan oromgohi" ga Toshkent viloyatidagi Semurg' oromgohiga 917ta qiz ichidan saralab olindim va qatnashdim.

O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan professional talablar.

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

21-04-guruh 3-bosqich talabasi

Qobilova Madina Sobir qizi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yimoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak».

Kalit so'zlar: pedagog, kommunikativlik, texnologiya, pantomimika, mimika, texnika, tarbiyachi, psixologik xususiyat, zamonaviy o'qituvchi, professional talab.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan



o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi):

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni no'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatning tarkib topishiga erishishi zarur. CHunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda



hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi. Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi-bakalavr qiyofasida ijobiy fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak. So'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarni o'zida umumlashtiradi. Demak, o'qituvchi-bakalavr jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi, zamonaviy o'qituvchi sifatida ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan doimo xabardor bo'lishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega, o'z ustida tinimsiz izlanishi, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi, ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga hamda ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi, yuksak darajadagi pedagogik mahorat, jumladan, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika - nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest kabi jarayon qoidalarini chuqur o'zlashtirib olgan bo'lishi, nutq madaniyatiga amal qilishi, ya'ni uning nutqida jozibadorlik, aniqlik, to'g'rilik, ravonlik va turli dialektal so'zlardan holilik aks etgan bo'lishi, shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchi tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklarini, ularning o'zaro kommunikativ munosabatlari hamda faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi, uning samaradorligini belgilashini unutmazligi shart. O'qituvchi sinf jamoasiga va alohida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun, o'quvchilar orasida o'zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo'lgan, yosh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini tashkil etish uchun o'qituvchi har bir o'quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi, axborot berishi, fikr almashishi, ular qayg'usini, tuyg'ularini tushunishi va hamdard bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Talim tog'risida"gi qonuni. 2020 y 23.09.



2 Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. T:Tafakkur bo'stoni. 2011.

A.Musurmonova, X.Ibragimov. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T: O'zbekiston. 2020.

B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik T:..Sano-standart. 2017-yil.

R.Mavlonova, N.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya. O'quv qo'llanma. T:”Voris nashriyoti” 2013



Ziyodullayeva Marjona Sharofjon qizi 2005- yil 23-avgustda Surxondaryo viloyati Denov tumanida tugʻilgan. 2022-2023-yil Denov tumanidagi 28-maktabni a'lo baholarga bitirgan va 2023-yil Shahrisabz davlat pedagogika institutining 1-bosqich talabasi sifatida o'qishga kirgan. Institutda Yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi, zakovat klubi rahbari, institut "Iqtidorli talabalar" klubi a'zosi, "Til nafosati" to'garagi a'zosi, "Ko'hinur" valyontorlik klubi yetakchisi, talabalar turar joyida "Tikuvchi qizlar" to'garagi rahbari, "KELAJAK: Ilmli qizlari" hamjamiyati klubi a'zosi va shu kabi bir nechta klublarda o'z faoliyatini yuritadi. Adabiyot shaydosi va tilshunoslikka qiziquvchi Marjona Ziyodullayeva institutda o'zining ilmiy faoliyatini yuritish jarayonida Shahrisabz davlat pedagogika institutida bo'lib o'tgan "O'zbek tili xorijiy til sifatida" nomli ilmiy konferensiyasida o'z maqolasi bilan qatnashdi va ilmiy maqolasi to'plam sifatida chop etildi. Bir nechta diplom va tashakkurnomalar bn taqdirlandi.

Adabiy tanqid va uning rivojlanish tarixi

**O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi talabasi:
Ziyodullayeva Marjona Sharafjon qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy tanqid va uning rivojlanishi haqida fikr bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Adabiy tanqid, tazkira, adabiyotshunoslik, zamonaviy adabiyot.

Tanqid - bu o'z davridagi adabiyot asarlarini yuksaklikka olib chiquvchi, uning xato va kamchiliklarini to'ldiruvchi badiiy janr hisoblanadi. "**Adabiy tanqid**" fan tarixida dastlab **Platon, Aristotel, Aristarx** kabi qadimiy shaxslar faoliyatlarida antik zamonda namoyon bo'lgan. Adabiy tanqidning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u dastlab xuddiki boshqa badiiy asarlar kabi og'zaki va yozma shaklda bo'lib, asarlar yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini yuritib kelingan. Tarixdan ma'lum bo'lganidek, ilk badiiy asarlarni yaratuvchisi xalq bo'lgani kabi, ularga bo'lgan ilk munosabatlarni ham xalqning o'zi bildirgan.

Tanqidning asosiy vazifasi yozuvchi yoki adabiy asarni faqatgina tanqid qilish emas, balki adabiy asar yoki hodisaga haqqoniy baho berish, undagi yutuq va kamchiliklarni holisona yo'l bilan ifoda etishdir. **Tanqid** va **tazkira** bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Negaki dastlabki tanqidiy qarashlar mashhur olimlar va ularning asarlari haqidagi ma'lumotlarni o'z asarlarida keltirib ularga izoh berib o'tish, bu **tazkirachilik san'ati** deb yuritiladi. **Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (1487)** asarini eng qadimgi tazkiralardan biriga misol qilib olsak bo'ladi. "**Tazkira**" tushunchasi vaqt o'tgan sari o'z o'rnini "**Tanqid**"ga bo'shatib berdi.

Tanqid badiiy ijod bilan bir vaqtda adabiyotga kirib kelgan. Shu o'rinda **Belinskiy** quyidagi so'zlarini keltirib o'tish o'rinlidir: "**Adabiyot va san'at tanqid bilan o'zaro qo'l ushlab boradi va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi**" (Belinskiy "Adabiy orzular" asarida. 1987). Shundan kelib chiqadiki, biz adabiyotshunoslikni tanqidsiz tasavvur qilolmaymiz. Adabiyotshunoslikning 3 ta eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri "**Adabiy tanqid**" hisoblanadi. O'zbek adabiy tanqidchiligining rivojlanish tarixi ancha murakkab. Adabiyotning bu sohasiga hissa qo'shgan ijodkor, adabiyotshunos va olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ammo ularning hammasi ham adabiyot ravnaqiga xizmat qilmaydi. Adabiy tanqidida ijod qiluvchilar 2 turga bo'linadi: **Salbiy** va **ijobiy** tanqid. Salbiy tanqidchilik adabiyotning rivojlanishiga va uning gullab-yashnashiga to'sqinlik



qiladi. Ya'ni bu ijodkorning asar mohiyatiga noto'g'ri yondashuvi natijasida kelib chiqadi. Bunday yo'lda ijod qiluvchi ijodkorlarga **O.Hoshim, S.Husayn, M.Solihov** kabi adabiyotshunoslar, **H.Olimjon, Uyg'un, K.Yashin** kabilarni aytishimiz mumkin. Bunday ijodkorlarning tanqidiy asarlari adabiyotshunoslikning rivojlanishiga zarar sifatida xizmat qiladi va unutiladi. **M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, S.Mirvaliyev, I.G'afurov, A.Rasulov, M.Mahmudov** kabi ijodkorlarning asarlari adabiyot jozibasini ochib beradigan va uning rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan.

L.N.Tolstoy tanqid bo'yicha o'zining quyidagi fikrlarini bildirib o'tgan. **“Tanqid yomonlikni qoralashi bilan birga, nima qilganda o'sha yomonlikni qoralashi bilan birga, nima qilganda o'sha yomonlik bo'lmasligini ko'rsatsagina samarali bo'ladi”.**

Shu o'rinda, o'zbek adabiy tanqidchiligiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan **Olim Sharafiddinov** haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, **Ayn** taxallusi bilan nom qozongan olim, o'zbek adabiyotshunoslaridan biri sifatida tanqidchilikni rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan. **Olim Sharafiddinov 1903-1944**-yillarda yashab ijod qilgan. U adabiyotimizda mashhur bo'lgan asarlar xususida turli maqolalar jumladan **“Abdulla Qodiriy romani “O'tkan kunlar”, Uyg'unning dastlabki she'riy to'plami “Bahor sevinchlari”, “S.Ayniy ijodi faoliyati”, Cho'lponning “Kecha va kunduz” romani haqida**” maqolalari zamonaviy adabiyotimizning dolzarb ijodiy masalalarini yoritishga bag'ishlandi. **Ayn “O'zbek shoiri Cho'lpon”** nomli maqolasida shoirning she'riy shakl, til va ifoda vositalarini betakrorligini ta'kidlagan holda uni millatchi, badbin ziyolilar shoiri deb qoraladi. Garchand adabiyotshunos olim **Cho'lpon** ijodiga noto'g'ri yondashuvi natijasida uni qoralagan bo'lsa-da, uning yozgan maqolalari o'zbek adabiyotshunosligiga tanqid qilish orqali o'zining ma'lum bir o'chmas izini qoldirganlar qatorida tilga olinadi. Mana shunday adabiyotshunos olimlarimizni sanaydigan bo'lsak, ular bir qancha kishilarni tashkil etadi.

Mamlakatimizning mustaqil bo'lishi barcha sohalar singari adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning rivojlanishiga katta imkoniyat yaratdi. Ammo hozirgacha bu imkoniyatlardan to'laligicha foydalana olganimiz yo'q. Adabiy tanqid aslida ijodning alohida bir turi sifatida shakllanishi kerak. Tanqidchining ishi oson emas, ayniqsa, zamonaviy adabiyotda asarlarni xalq hayoti, uning estetik ehtiyoji va talablari jihatidan o'rganadi, baholaydi, fazilat, nuqsonlarini aniqlaydi, yozuvchilarning ijodiy o'sishlariga va adabiyotning ravnaqiga ko'maklashadi. Tanqidchi bir asarni o'qib-o'rganib, uning kamchiliklarini topmoqchi bo'lsa, u ham ijodkordek yondashishi kerak bo'ladi. Zamonaviy adabiyot tanqidchilari oldidagi eng katta shartlardan biri, bu har bitta badiiy asarga e'tibor bilan yondashib, undagi xalqimiz ongiga salbiy ta'sir qiluvchi kamchiliklarni bartaraf qilishi kerak va o'quvchi saviyasiga mos bo'lmagan asarlarni tanqidiy yo'l bilan tahlil qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, tanqidchilik keng ma'noda bo'lib, yozuvchi, shoir va ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarni sof, ma'nodor va jozibali etib keng xalq ommasiga yetkazishdan iborat deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Nazarov.B va boshqalar “O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi” – Cho'lpon NMIU,2012.

Rasulova.A .Tanqid, tahlil, baholash.”Fan”-2006



GREEN ECONOMY IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF RESOURCE EFFICIENCY

X.B. Makhkamjonova

Teacher of TIF

R.M. Isakhonova

Student of TIF

rosy270305@gmail.com

Abstract: This article explores Uzbekistan's shift to a green economy, emphasizing its economic and environmental goals. The 2030 Plan of Action outlines the country's commitment, while a recent World Bank report underscores the benefits of green policies. Despite abundant natural resources, pollutants, particularly from automobiles, pose challenges. The Environmental Performance Index highlights areas for improvement. The conclusion suggests targeted measures and international collaboration for a sustainable and prosperous future.

Key words: green economy, pollutants, waste, economic planning, green policies, green strategies, environmental, market-based economy, Environmental Performance Index.

Introduction:

World scientists have been talking a lot about “Green economy” since the beginning of the 21st century and they have been emphasizing that economic growth is increasingly dependent on environmental factors.

